

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



Ro'yxatga olindi

№ _____
" _____ " 2017-yil



«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

dot. U.Seytjanova

» _____ 2017-yil

O'ZBEK TILI KAFEDRASI

**ESKI O'ZBEK YOZUVI VA
SHARQ TILLARI**

FANIDAN O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100000 –	gumanitar
Ta'lim sohasi:	140000 –	pedagogika
Ta'lim yo`nalishi:	5111200 –	O'zbek tili va adabiyoti

O'quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2014-yil 25-avgusda tasdiqlangan va BD-5111200-3.07 raqam bilan ro'yxatga olingan "Eski o'zbek yozuvi praktikumi Sharq tillari (Fors tili)" o'quv fan dastur asosida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: Jamalova Z. O'zbek tili kafedrası assistenti

Taqrizchi: Davletmuradov I. O'zbek tili kafedrası assistenti

O'quv-uslubiy majmua Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute O'quv-metodik kengashining 2017-yil 29-avgustdagi 1-sonli majlisida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya qilingan.

Mundarija

1. O'quv materiallar

- 1.1. Amaliy mashg'ulotlar
- 1.2. Seminar mashg'ulotlar
- 1.3. Laboratoriya mashg'ulotlar

2. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun uslubiy kwrsatmalar

3. Glossariy

4. Ilovalar

- 4.1. Fan dasturi
- 4.2. Ishchi fan dasaturi
- 4.3. Tarqatma materiallar
- 4.4. Testlar
- 4.5. Baholash mezonlari
- 4.6. Boshqa materiallar

FAN BO'YICHA O'QUV MATERIALLARI

Mavzu: *Kiruv.*

КИРИШ. Форс тилининг қардош Эроний тиллар билан бирга Ҳинд-Европа тиллари оиласига мансублиги. Форс тилининг Ўрта Осиё ва Шарқ халклари адабиёти тарихидаги роли ва ўрни. Янги форс тилининг *форсий*, *форси- йэ дарий* ва *дарий* тили деб юритилиши, янги форс тилининг араб сўзлари ва иборалари билан бойиши. IX асрда Сомонийлар давлати вужудга келгач, форс тилининг давлат тилига айланиши. Шу кунга қадар ўзбек адабиёти, айниқса, шеърятда форсий сўзларнинг қўлланиб келиши ва бу тилда ўзбек адабиёти ва тарихига оид жуда бой ёзма адабий мерос мавжудлиги. Ўзбек тили ва адабиёти тарихини ўрганиш, улар устида илмий тадқиқот ишлари олиб бориш учун форс тилини ўрганиш ва уни билишнинг аҳамияти. Ўзбек тили луғат бойлигида форсча сўзлар ва сўз ясовчи элементлар, уларнинг ўзбек тили луғат таркибининг бойиб боришдаги аҳамиятини тушунтирилади. (Форс тили М.Абдусаматов 10-бет)

Maqsad: Форс тили ҳақида умумий маълумот бериш

Mavzu: *Arab-fors alifbosi.*

Maqsad: Fors tilida qo'llaniladigan arab-fors alifbosining xususiyatlarini tushuntirish.

Darsning borishi: 1.Davomat (5 min.)

2. **Uy vazifasini tekshirish.** (20 min.)
3. **Yangi tema** (30 min.)
4. **Baholash** (20 min.)
5. **Uyga vazifa** (5 min.)

Yangi mavzu: ARAB-FORS ALIFBOSI

الفباى فارسى alefbo-ye forsi

Bundan avvalgi semestrda o'tilgan "Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi" kursidan malum bo'lgan alifbo takrorlanadi, xususiyatlari takidlanadi.

Arab-fors alifbosining nima uchun bunday atalishi xaqida malumot beriladi.

Forslar VII asrdan boshlab to shu kunga qadar o'z yozuvlarida arab alifbosini ishlatib kelmoqdalar. Arab tili tovushlariga moslashgan va shu tilning tovush sistemasini to'la aks ettira olgan arab alfaviti fors tovushlarini to'la ifodalay olmadi. Bunga sabab, birinchidan, fors tili fonetik sistemasiga tamoman yot bo'lgan bir necha tovush va belgilarning arab tilidan kirib kelishi bo'lsa, ikkinchidan, fors tilining xususiyatlarini ifoda etuvchi spetsifik tovushlarning arab tili tovushlari sistemasida bo'lmasligi va ularni yozuvda ifodalovchi ma'lum harflarning arab alifbosida yo'qligi bo'ldi.

Arab alifbosi 28 harfdan iborat bo'lib, forslar o'z spetsifik tovushlarini ifodalash uchun qo'shimcha ravishda

quyidagi 4 harfni kiritdilar: پ P, ژ J, چ Ch, گ G.

Shunday qilib, arab-fors alifbosida 32 harf hosil bo'lgan.

ARAB – FORS ALIFBOSI

Harfning nomi	Harfning hozirgi ko‘rinishi	Harflarning yozilishi			
		So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Yolg‘iz holda
alif	o,a	ا	ا	ا	ا
Be	B	ب	ب	ب	ب
Pe	P	پ	پ	پ	پ
Te	T	ت	ت	ت	ت
Se	S	ث	ث	ث	ث
Jim	J	ج	ج	ج	ج
chim	Ch	چ	چ	چ	چ
ho-ye hutti	H	ح	ح	ح	ح
Xe	X	خ	خ	خ	خ
dol	D	د	د	د	د
zol	Z	ذ	ذ	ذ	ذ
Re	R	ر	ر	ر	ر
Ze	Z	ز	ز	ز	ز
Ʒe	Ʒ	ژ	ژ	ژ	ژ
Sin	S	س	س	س	س
shin	Sh	ش	ش	ش	ش
sod	S	ص	ص	ص	ص
zod	Z	ض	ض	ض	ض

To	T	ط	ط	ط	ط
Zo	Z	ظ	ظ	ظ	ظ
‘ayn	-	ع	ع	ع	ع
g‘ayn	o‘	غ	غ	غ	غ
Fe	F	ف	ف	ف	ف
qof	Q	ق	ق	ق	ق
kof	K	ك	ك	ك	ك
gof	G	گ	گ	گ	گ
Lom	L	ل	ل	ل	ل
mim	M	م	م	م	م
nun	N	ن	ن	ن	ن
vov	V	و	و	و	و
ho-ye havvaz	H	ه	ه	ه	ه
Yo	y,i,ey	ی	ی	ی	ی

Topshiriq. Quyidagi so‘zlarni ko‘chirib yozing va harflarning yozilishini aniqlang.

باد	bod	Shamol	مور	mur	Chumoli
نیم	nim	Yarim	تیغ	tig‘	Xanjar
شیر	shir	Sut	مار	mor	Ilon
پا	po	Oyoq	میهن	mihan	Vatan
زاغ	zog‘	qarg‘a	میخ	mix	Mix
سود	sud	Foyda	ماه	moh	Oy
جیب	jib	cho‘ntak	طرف	taraf	Tomon
دود	dud	Tutun	عصب	‘asab	asab

BO'G'IN

Fors tilida so'zlar bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli bo'lishi mumkin.

Fors tilida ham bo'g'in, o'zbek tilidagi kabi, unlilar yordami bilan hosil bo'ladi. Har bo'g'inda bitta unli bo'lishi shart. Bo'g'in unli bilan tugasa, ochiq bo'g'in; undosh bilan tugasa, yopiq bo'g'in deyiladi. Masalan:

ما	mo	Biz	در	dar	eshik
سه	se	Uch	راه	roh	yo'l

Ikki va ko'p bo'g'inli so'zlarda bo'g'inlar turlicha bo'lishi mumkin.

Birinchi bo'g'in ochiq, ikkinchi bo'g'in yopiq:

بیمار	bi-mor	kasal
بهار	ba-hor	bahor

Birinchi bo'g'in yopiq va ikkinchi bo'g'in ochiq:

دریا	dar-yo	dengiz
پنبه	pam-be	paxta

Ikkala bo'g'in ham ochiq:

صدا	se-do	sado, ovoz
شانه	sho-ne	taroq, elka

Ikkala bo'g'in ham yopiq:

آسمان	os-mon	osmon
بلبل	bo'l-bo'l	bulbul

Ko'p bo'g'inli so'zlarda ham bo'g'in shu tarzda bo'ladi.

Bulardan tashqari, bo'g'in fors tilida uzun va qisqa bo'g'inga bo'linadi. Agar bo'g'in tarkibida cho'ziq unli bo'lsa, uzun bo'g'in; qisqa unli bo'lsa, qisqa bo'g'in deyiladi. Masalan: آب **ob** (suv), در **dor**(dor)-uzun bo'o'i لب **lab**(lab), زر **zar**(zar)- qisqa bo'g'in, شکار **she-kor**(ov), انسان **en-son** (inson) so'zlarida birinchi bo'g'in qisqa va ikkinchi bo'g'in uzundur. پادشاه **pod-shoh**(podshoh), آفتاب **of-tob** (oftob) so'zlarida ikkala bo'g'in ham uzun, فرضت **fo'r-sat**(fursat,vaqt), دفتر **daf-tar** (daftar) so'zlarida ikkala bo'g'in ham qisqa.

Fors tilida bo'g'inning ochiq yoki yopiq, uzun yoki qisqa bo'lishining klassik poetik asarlarni o'rganishda, ularni vaznga solib to'g'ri o'qishda katta ahamiyati bor.

URG'U

Fors tilida urg'uni to'g'ri ishlata bilish so'zlarni to'g'ri o'qish va tushunish uchun katta yordam beradi. Fors tilida urg'u so'zning oddiy yoki murakkabligidan, forsiy yoki horijiyiligidan qat'iy nazar, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Urg'u tushgan bo'g'indagi unli tovush so'zdagi boshqa unli tovushlarga nisbatan kuchliroq talaffuz etiladi. Masalan:

پسر	Pesar	o'g'il bola
خبرنگار	Xabarnegor	muxbir
تلویزیون	Televizyun	televizor

Hatto chet tillardan kirgan atoqli otlarda ham urg'u oxirgi bo'g'inga ko'chiriladi. Masalan:

امريکا	Emriko	Amerika
استونيا	Esto'niyo	Estoniya
افريقا	Afriqo	Afrika

So'zga biror qo'shimcha qo'shilsa, odatda urg'u ana shu qo'shimchaga ko'chadi. Masalan:

دانش	Donesh	bilim
دانشجو	Doneshju	talaba
کودک	Kudak	go'dak
کودکستان	Kudakeston	bog'cha

Quyidagi ikki bo'g'inli bog'lovchi va yuklamalarda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi: Masalan:

لیکن	Likan	lekin
خیلی	Xeyli	juda, ko'p
اگر	Agar	agar

Bulardan boshqa yana bir necha qo'shimchalar va yuklamalar borki, so'z oxirida kelsa ham, urg'u olmaydilar, ya'ni ularga urg'u tushmay, urg'u ulardan oldingi bo'g'inda qoladi. Bu hol grammatikaning morfologiya qismi bilan bog'liq bo'lgani uchun, darslikning morfologiya qismida ma'lum qoidalar bilan birgalikda izohlanadi.

Uyga vazifa: Berilgan so'zlarni lug'at daftaringizga ko'chirib yozing, yozilishi va o'qilishini yodlab oling.

IKKINCHI DARS (2 s)

Mavzu: *Fors tilida unlilar.*

Maqsad: Fors tilida unlilarning xususiyati, talaffuzini tushuntirish.

Darsning borishi: 1. Davomat (5 min.)

2. **Uy vazifasini tekshirish.** (20 min.)

3. **Yangi tema** (30 min.)

4. **Baholash** (20 min.)

5. **Uyga vazifa** (5 min.)

Davomat aniqlangach, uyga berilgan mavzu arab-fors alifbosi va uning xususiyatlari so'raladi.

Yangi tema: *Fors tilida unlilar.*

U N L I L A R

Fors tilidagi unli tovushlar jadvali

Paydo bo'lish	Lablanmagan	Lablangan
---------------	-------------	-----------

o'rniga ko'ra Tilning ko'tarilish darajasiga ko'ra	til oldi	til orqa
Yuqori ko'tarilish	i – cho'ziq	u – cho'ziq
O'rta ko'tarilish	e – qisqa	o' – qisqa
Quyi ko'tarilish	a – qisqa	o – cho'ziq

O – cho'ziq, til orqa, quyi ko'tarilish, lablangan unli tovush. Bu tovushni hosil qilishda og'iz keng ochilib, lablar dumaloqlashadi. Til orqaga tortilib, bir oz ko'tariladi. **O** tovushini to'g'ri talaffuz etish uchun o'zbek tilidagi **o** unli tovushini **a** tovushiga moyilroq talaffuz qilish kerak.

Fors tilidagi **o** unli tovushi *uzoq, bosh* kabi o'zbek so'zlaridagi **o** tovushiga yaqinlashib boradi. O'zbek tilidagi **o** unli tovushi ba'zi bir so'zlarda (*ota, bola*, kabi) qisqa **a** tovushi kabi talaffuz etiladi. Fors tilidagi **o** unlisi esa har doim cho'ziq va aniq talaffuz qilinadi. Masalan:

دانا Dono	Dono
ايران Iron	Eron
روزنامه Ruznome	Gazeta

i – cho'ziq, til oldi, yuqori ko'tarilish, lablanmagan unli tovush. Bu tovush o'zbek tilidagi **iy** tovushlar birikmasiga (*kiyik, qariyb, siyrak, Muqimiy* so'zlaridagi kabi) yaqinlashib boradi.

O'zbek tilidagi **i** unli tovushi ba'zi so'zlarda qattiq **ɪ** kabi (*qishloq, qiro'iz* kabi) va **r, z, l** tovushlari oldidan juda qisqa (*bir, biz*, kabi) talaffuz qilinadi. Bu holni forsha **i** cho'ziq unlisida uchratmaymiz. Forsha **i** unlisi har doim cho'ziq va yumshoq talaffuz qilinadi. Masalan:

شير Shir	Sut	ايران Iron	Eron
-----------------	-----	-------------------	------

مريض Mariz	kasal	ريسمان rismon	Arqon
ماهى Mohi	Baliq	بينى bini	Burun

u –cho‘ziq, til orqa, yuqori ko‘tarilish, lablangan unli tovush. Bu tovush o‘zbek tilidagi **u** tovushidan o‘zining cho‘ziqligi bilan farq qiladi. Bu tovush o‘zbek tilidagi **suv, yozuv** so‘zlaridagi **u** tovushining talaffuziga o‘xshaydi. O‘zbek tilidagi **u** tovushi ba‘zi hollarda **i** unlisiga yaqinlashib boradi (**urush, yutuq** kabi) lekin forscha unlida bu holni uchratmaymiz. Fors tilida **u** doimo cho‘ziq va to‘la talaffuz etiladi. Masalan:

طوفان Tufon	bo‘ron	مور mur	Chumoli
كبود Kabud	ko‘k	كدو kadu	Qovoq
دوست Dust	do‘st	بوى buy	Hid

a - qisqa, til oldi, quyi ko‘tarilish, lablanmagan unli tovush. Bu tovushni talaffuz etganda og‘iz keng ochiladi, tilning uchi bir oz ko‘tariladi. Fors tilida **a** tovushini *mana, kalik, ana, gal, aka* kabi o‘zbek so‘zlaridagi **a** tovushiga solishtirib to‘g‘ri talaffuz qilish mumkin. Bu tovush o‘zbek tilidagi **e** va **a** tovushlari orasidagi tovushga to‘g‘ri keladi. Masalan:

زبان Zabon	Til	بد bad	Yomon
در Dar	Eshik	ابر abr	Bulut
دست Dast	qo‘l	سفر safar	Safar

e - qisqa, til oldi, o‘rta ko‘tarilish, lablanmagan unli tovush. Bu tovush o‘zbek tilidagi **e** tovushidan asosan o‘zining qisqaligi bilan farq qiladi. Ba‘zan urg‘usiz ochiq bo‘g‘inda juda qisqarib, sezilmay ketish darajasiga etadi. Forscha **e** tovushi yopiq bo‘g‘inli holatda *sevd, keldi, mendan* kabi o‘zbek so‘zlaridagi **e** tovushiga yaqinlashib boradi. Masalan:

دل Del	dil, yurak	اداره edore	Idora
امروز Emruz	Bugun	زمستان zemeston	Qish
شاگرد Shogerd	Shogird	نامه nome	Xat

o‘ - qisqa, til orqa, o‘rta ko‘tarilish, lablangan unli tovush. Bu tovush ham o‘zbek tilidagi **o‘** dan asosan o‘zining qisqaligi bilan farq qiladi. Fors tilida **o‘** tovushini **e** tovushi kabi urg‘usiz ochiq bo‘g‘inli holatda juda qisqarib ketadi. Masalan:

بلبل bo‘lbo‘l	Bulbul	گل go‘l	Gul
سرخ so‘rx	Qizil	شتر sho‘to‘r	Tuya
عمر o‘mr	Umr	اميد o‘mid	Umid

FORS TILIDA QISQA UNLILAR

Fors tilida qisqa unlilar harflarning osti va ustiga qo‘yiladigan **harakat** deb ataluvchi **diakritik belgilar** orqali ifodalanadi. Harakat qaysi harfning ustiga yoki ostiga qo‘yilsa, avval harakat qo‘yilgan undosh o‘qilib, so‘ngra harakat talaffuz qilinadi.

1. Soʻz boshida qisqa **a** unlisi **alif** harfining ustiga satr ustki **---** belgisi qoʻyish orqali ifoda etiladi. Fors grammatikasida bu belgi **zabar** (ustida, tepasida degan maʼnoda) deyiladi. Bunda **alif** butunlay talaffuz etilmay, faqat vositachi rolini bajaradi. Masalan:

اثر	Asar	asar
اشک	Ashk	koʻz yoshi
ابر	Abr	bulut

Qisqa **a** unlisi soʻz oʻrtasida oʻzidan oldin kelayotgan undosh harfning ustiga **zabar** belgisini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

مادر	Modar	ona
وزیر	Vazir	vazir, ministr
ملخ	Malax	chigirtka

Fors tilida qisqa **a** unlisi soʻz oxirida umuman uchramaydi. Shuning uchun yozuvda ham ifodalanmaydi.

2. Soʻz boshida qisqa **e** unlisi **alif** harfining ustiga satr ostiga **---** belgisi qoʻyish orqali ifoda etiladi. Fors tili grammatikasida bu belgi **zir** (ostida, tagida degan maʼnoda) deb ataladi. Bunda **alif** butunlay talaffuz etilmay, faqat vositachi rolini bajaradi. Masalan:

اسم	Esm	ism
ادامه	Edome	davom
اداره	Edore	idora

Qisqa **e** unlisi soʻz oʻrtasida oʻzidan oldin kelayotgan undosh harfning ostiga **zir** belgisini qoʻyish orqali ifodalanadi. Masalan:

سفارت	Seforat	elchixona
زمستان	Zemeston	qish
دل	Del	qalb, yurak, dil

Soʻz oxirida undosh harflardan soʻng **ho-ye havvaz** harfining soʻz oxiridagi **ه** yoki alohida **ه** shakllari yozilib, u qisqa **e** unlisini ifodalaydi. Fors tili grammatikasida **h** tovushini ifoda etmagan **ho-ye havvaz**ning bu koʻrinishini **های غیر ملفوظ** **ho-ye gʻayre malfuz** (**h** tarzida talaffuz etilmaydigan ho-ye havvaz) deyiladi.

نویسنده	Navisande	yozuvchi
خانه	Xone	xona, uy
روزنامه	Ruznome	gazeta

3. Soʻz boshida qisqa **oʻ** unlisi **alif** harfining ustiga satr ustki **---** belgisi qoʻyish orqali ifoda etiladi. Fors tili grammatikasida bu belgi **pish** (old, oldida) deb ataladi. Bunda **alif** butunlay talaffuz etilmay, faqat vositachi rolini bajaradi. Masalan:

افق	oʻfq	ufq
الاغ	oʻlogʻ	eshak

	اطاق	o'toq	uy, xona
Qisqa o' unlisi so'z o'rtasida o'zidan oldin kelayotgan undosh harfning ustiga pish belgisini qo'yish orqali ifodalanadi. Masalan:			
	هنر	ho'nar	san'at
	ناخن	noxo'n	tirnoq
	شتر	sho'to'r	tuya
Ba'zi hollarda so'z o'rtasida qisqa o' unlisi vov harfi orqali ham ifodalanadi. Masalan:			
	خود	xo'd	o'z (o'zlik olmoshi)
	خوراک	xo'rok	taom, ovqat, emish
	خوردن	xo'rdan	emoq, ichmoq
	خورشید	xo'rshid	quyosh
So'z oxirida undosh harflardan so'ng vov harfining so'z oxiridagi و yoki alohida و shakllari yozilib, u qisqa o' unlisini ifoda etadi. Fors tili grammatikasida v tovushini ifoda etmagan vov harfining bu ko'rinishini واو معدوله vov-e ma'dule (v tarzida talaffuz etilmaydigan vov harfi) deyiladi.			
	تو	to'	sen
	دو	do'	ikki
Fors tili leksikasiga kirgan ayn harfi bilan boshlanuvchi arab so'zlarida diakritik belgi 'ayn harfining osti yoki ustiga qo'yilib, o'rniga ko'ra a , e yoki o' tarzida talaffuz qilinadi. Bunda ayn harfi talaffuz etilmay, alif kabi yordamchi vazifasini bajaradi . Masalan:			
	عَلَف	'alaf	o't, maysa
	عِمَارَت	'emorat	imorat, bino
	عِذْر	'o'zr	uzr
4. Undosh tovushdan so'ng unli bo'lmasa, ya'ni bo'g'in yopiq bo'lsa, bo'g'in oxiridagi undosh harf ustiga kichik yumaloq --- belgi qo'yiladi. Buni fors tili grammatikasida sukun (tinchlik, to'xtash) deyiladi. Masalan:			
	فَرْهَنْگ	Farhang	madaniyat, lug'at
	اِقْتِصَاد	Eqtesod	iqtisod
Yuqoridagi so'zlarda so'kun birinchi so'zning r harfi ustiga, ikkinchi so'zning esa q harfi ustiga qo'yilib, ulardan so'ng unli tovush yo'qligiga va bo'g'in yopiqligiga ishora qiladi.			
Qisqa unlilarning yozuvdagi ifodasi			
tovushlar	belgilar		Namlari
	So'z boshi	so'z o'rtasi	
a	ا ع	---	Zabar
e	ا ع	---	Zir
o'	ا ع	---	Pish

1-topshiriq. Berilgan soʻzlarni koʻchirib yozing va ulardagi diakritik belgilarni aniqlang.

ساختم	soxtemon	tuzum, qurilish	پل	poʻl	koʻprik
ان					
مژده	moʻjde	Xabar	طلا	telo	Tillo
رفیق	rafiq	Oʻrtoq	صدا	sedo	sado, tovush
ابریشم	abrishoʻm	Ipak	دختر	doʻxtar	qiz bola
نمک	namak	Tuz	پسر	pesar	oʻgʻil bola
امید	oʻmid	Umid	جوان	javon	yosh, oʻsmir
فقط	faqat	Faqat	انگشت	angoʻsht	Barmoq
			ت		

2-topshiriq. Qisqa unlilar ishtirokida 20 ta soʻz yozing va soʻzlarda qoʻllangan diakritik belgilar vazifalarini izohlang.

FORS TILIDA CHOʻZIQLAR

Fors tilida choʻziqlar (o, u, i) **ا** alif, **و** vov, **ی** yo harflari bilan ifoda etiladi.

Tovushlar	Belgilar	
	Soʻz boshi	Soʻz oʻrtasi
o	آ	ا (yoki ا)
i	ای	ی (yoki ی)
u	او	و (yoki و)

Masalan:

آب	Ob	suv
واردات	Voredot	import
طوفان	Tufon	boʻron, toʻfon
زانو	Zonu	tizza
مریض	Mariz	kasal, bemor
خليج	Xalij	koʻrfaz, qoʻltiq
صدا	Sedo	ovoz, sado
صندلی	Sandali	stul
كدو	Kadu	qovoq

1. Agar cho‘ziq unlilar so‘z boshida kelsa, yozuvda cho‘ziq unli oldidan bir **alif** orttirilib yoziladi.

Shunday qilib, so‘z boshida **o** tovushi uchun **ا** (ikki alif) hosil bo‘ladi. Bunday holatda ikki alifdan biri odatda ikkinchisining ustiga yotqizib yoziladi **آ** va buni fors tili grammatikasida **مد madd** yoki **مده madda** (cho‘zilgan) deyiladi. Masalan:

آب	Ob	suv
آرد	Ord	un
آسمان	Osmon	osmon

So‘z boshida cho‘ziq **o** unlisi **maddali alif** harfidan tashqari arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarda **ayn** va **alif** harfiy birikmalari orqali ham ifoda etiladi. Masalan:

عاشق	‘osheq	oshiq
عادت	‘odat	Odat
عاقل	‘oqel	Oqil
عالی	‘oli	Oliy

Cho‘ziq **o** unlisi so‘z o‘rtasida alif harfining **ا** alohida yoki **و** qo‘yilgan shakli orqali ifoda etiladi. Bunday hollarda alif **maddasiz** yoziladi. Masalan:

دانا	Dono	dono, Dono (ism)
مادر	Modar	Ona
قانون	Qonun	Qonun

Fors tilida cho‘ziq **o** unlisi so‘z oxirida alif harfining **ا** alohida yoki **و** qo‘shilgan shakli orqali ifoda etiladi. Bundan tashqari fors tiliga o‘zlashgan arabiy so‘zlarda so‘z oxiridagi **yo** harfi **o** tarzida o‘qiladi. Bu harf **alif-e maqsure** (ya‘ni **i** tarzida o‘qilmaydigan **yo** harfi) deyiladi. **Masalan:**

تقوى	Taqvo	Taqvo
فتوى	Fatvo	Fatvo
حتى	Xatto	Xatto
دعوى	da’vo	da’vo
موسى	Muso	Muso
عيسى	Iso	Iso
مصطفى	Mo‘stafo	Mustafo

2. So‘z boshida cho‘ziq **i** unlisi **اي (اى)** alif va **yo** harflar birikmasi orqali ifoda etiladi. Masalan:

ايشان	Ishon	Ular
اين	In	bu, shu
ايستگاه	Istgoh	Bekat

Cho‘ziq **i** unlisi so‘z o‘rtasida o‘zidan oldin kelayotgan undosh harfning oldidan o‘rniga ko‘ra **yo** harfining **ی** so‘z boshidagi yoki **ی** so‘z o‘rtasidagi shakllarini qo‘yish orqali ifoda qilinadi. Masalan:

مریض	Mariz	kasal, bemor
دیروز	Diruz	Kecha
بینی	Bini	Burun
سفید	Sefid	Oq

So‘z oxirida cho‘ziq **i** unlisi **yo** harfining **ی** alohida yoki **ی** so‘z oxiridagi shakllari orqali ifoda etiladi. Masalan:

قالی	Qoli	Gilam
بخاری	bo‘xori	Pechka
صندلی	Sandali	Stul

3. So‘z boshida cho‘ziq **u** unlisi **alif** va **vov** harflar birikmasi orqali ifoda etiladi. Masalan:

اوت	Ut	Avgust
اوبه	Ube	chodir, chayla
او	U	u (kishilik olmoshi)

Cho‘ziq **u** unlisi so‘z o‘rtasida o‘zidan oldin kelayotgan undosh harfning oldidan **vov** harfining **و** so‘z boshidagi yoki **و** so‘z o‘rtasidagi shakllarini qo‘yish orqali ifoda qilinadi. Masalan:

دور	Dur	Uzoq
دود	Dud	tutun, dud
توده	Tude	xalq, omma
بوی	Buy	Hid

So‘z oxirida cho‘ziq **u** unlisi **vov** harfining **و** so‘z boshidagi yoki **و** so‘z o‘rtasidagi shakllarini qo‘yish orqali ifoda qilinadi. Masalan:

بانو	Bonu	bonu, xonim
زانو	Zonu	Tizza
کدو	Kadu	Qovoq
گردو	Gerdu	yong‘oq

Agar **و** **vov** yoki **ی** **yo** so‘z boshida **alifsiz** bo‘lsa, **v** va **y** undosh tovushlarini ifodalaydi. Masalan:

ورزش	Varzesh	Sport
وطن	Vatan	Vatan
يار	Yor	yor, do'st, o'rtoq
يخ	Yax	Muz

1-topshiriq. Quyidagi so'zlarni o'qing, ko'chirib yozing va cho'ziq unilarning yozilishini aniqlang.

آسمان	Osmon	Osmon	ايستگاه	istgoh	Bekat
چاقو	Choqu	Pichoq	ديگر	digar	Boshqa
بخارا	Bo'xoro	Buxoro	بينى	bini	Burun
عاجز	'ojez	Ojiz	اوت	ut	Avgust
عالم	'olem	Olim	كوزه	kuze	ko'za
عادل	'odel	Odil	گردو	gerdu	yong'oq

2-topshiriq. Cho'ziq unililar ishtirok etgan 20 ta so'z yozing va bu so'zlardagi unilarning yozuvdagi ifodasini tushuntiring.

DIFTONGLAR

Fors tilida ikkita diftong bor: **ey** va **o'u**. Bu diftonglarning o'zbek tilida ekvivalenti yo'q. Shuning uchun ularni boshqa tillardagi tovushlar bilan taqqoslash natijasida to'g'ri talaffuz qilish mumkin. Bu diftonglarni talaffuz qilganda, ularni ayirib, ikki bo'g'inga bo'lib emas, balki birga qo'shib, bir bo'g'inda talaffuz qilish kerak. Bunda diftonglarning birinchi harfi ikkinchisiga nisbatan kuchliroq talaffuz qilinadi.

1. **ey** diftongi - o'zbek tilidagi undov so'zi **ey** yoki inglizcha **may, day** so'zlaridagi diftong tovushlariga yaqinlashib boradi. Masalan:

بين	beyn	aro, o'rta	ايوان	eyvon	Ayvon
ميل	meyl	xohish, istak	ميدان	meydon	Maydon
حيوان	heyvon	Hayvon	مى	mey	may, sharob

2. **o'u** diftongini ruscha **sous** so'zidagi **ou** unli birikmasi yoki inglizcha **now** so'zidagi **ow** diftongiga solishtirib, to'g'ri talaffuz qilish mumkin. Masalan:

نو	no'u	Yangi	توليد	to'ulid	ishlab chiqarish
نوبت	no'uba	Navbat	دولت	do'ulat	Davlat
	t				
برو	bero'u	bor (buyruq fe'li)	روغن	ro'u g'an	yog'

I z o h: Fors tilidagi diftongli so'zlarning ko'pchiligi o'zbek tili leksikasida ham mavjuddir. Lekin, bu diftong tovushlar o'zbek tilida o'z diftonglik xususiyatlarini yo'qotib, **ey** diftongi **ay** kabi, **o'u** diftongi esa **av** kabi talaffuz etiladi: Masalan:

دولت	Do‘ulat	Davlat
گوهر	Go‘uhar	Gavhar
میمون	Meymun	maymun

Uyga vazifa: Berilgan soʻzlarni lugʻat daftaringizga koʻchirib yozing va yodlang.

UCHINCHI DARS (2 s)

Mavzu: Fors tilida undoshlar.

Maqsad: Fors tilida undoshlarning xususiyati, talaffuzini tushuntirish.

Darsning borishi: 1. Davomat (5 min.)

2. Uy vazifasini tekshirish. (20 min.)

3. Yangi tema (30 min.)

4. Baholash (20 min.)

5. Uyga vazifa (5 min.)

Davomat aniqlangach, uyga berilgan mavzu fors unlilarning xususiyatlari, choʻziq va qisqa unlilar va diftonglar soʻraladi.

Yangi tema: FORS TILIDA UNDOSHLAR

Fors tili undosh fonemalari:

- 1) hosil boʻlish usuliga koʻra: portlovchi, sirgʻaluvchi, affrikat fonemalarga va burun, yon, titroq tovushlarga;
- 2) hosil boʻlish oʻrniga koʻra: lab-lab, lab-tish, til oldi, til oʻrta, til orqa, chuqur til orqa va boʻgʻiz tovushlariga;
- 3) ovoz va shovqinning ishtirokiga koʻra: shovqinlilar va sonorlarga boʻlinadi.

Fors adabiy tilida 23 undosh tovush bor.

1. **p** – jarangsiz, portlovchi, lab-lab tovush. Oʻzbek tilidagi **p** tovushi kabi talaffuz etiladi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Pe	P	پ	پ	پ	پ

پ پ پ پ

پوشاک	Pushok	Kiyim
شپاہ	Sepoh	qoʻshin, armiya
توپ	Tup	Koptok

2. **b** – jarangli, portlovchi, lab-lab tovush. Oʻzbek tilidagi **b** tovushi kabi talaffuz etiladi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida

Be	B	ب	ب	ب	ب
----	---	---	---	---	---

ب ب ب ب ب

برف	Barf	Qor
سبب	Sabab	Sabab
شب	Shab	Tun

I z o h: Bu tovush soʻz oxirida ham oʻz jarangliligini yoʻqotmaydi:

3. **t** – jarangsiz, portlovchi, til oldi tovush. Oʻzbek tilidagi **t** tovushi kabi talaffuz etiladi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Te	T	ت	ت	ت	ت

ت ت ت ت ت

تاریک	Torik	qorongʻu
آتش	Otash	Olov
دست	Dast	qoʻl

4. **d** – jarangli, portlovchi, til oldi tovush. Oʻzbek tilidagi **d** tovushi kabi talaffuz etiladi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Dol	D	د	د	د	د

د د د د د

دود	Dud	tutun
مرد	Mard	Kishi
دندان	Dandon	Tish

Fors tilida **d** tovushi barcha fonetik pozitsiyalarda kelganda ham oʻz jarangliligini yoʻqotmaydi.

5.k – jarangsiz, portlovchi. til orqa tovush bo‘lib, xuddi o‘zbek tilidagi kabi talaffuz etiladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Kof	K	ک	ڪ	ك	ك

_____ ک _____ ڪ _____ ك _____ ک _____

کار	Kor	Ish
سبک	sabo‘k	Engil
شکار	Shekor	Ov

Fors tilidagi **k** tovushi qisqa unlilar oldida kelganda, o‘zbek tilidagi **k** tovushiga nisbatan yumshoqroq talaffuz etiladi.

6.g – jarangli, portlovchi, til orqa tovushi bo‘lib, o‘zbek tilidagi **g** tovushi kabi talaffuz etiladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Gof	G	گ	گ	گ	گ

_____ گ _____ گ _____ گ _____ گ _____

گرگ	go‘rg	bo‘ri
مگس	Magas	Pashsha
سگ	Sag	It

7.ch – jarangsiz, affrikat, til oldi tovush. O‘zbek tilidagi **ch** tovushi kabi talaffuz etiladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Chim	Ch	چ	چ	چ	چ

_____ چ _____ چ _____ چ _____ چ _____

چشم	Cheshm	ko‘z
-----	---------------	------

کوچک

Kuchek

Kichik

بچه

Bache

Bola

8. j – jarangli, affrikat, til oldi tovush. O‘zbek tilidagi jarangli affrikat til oldi undoshi **j** kabi talaffuz etiladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Jim	J	ج	ج	ج	ج

ج ج ج ج

جوان

Javon

Yosh

مجله

Majalle

Jurnal

گنج

Ganj

Xazina

O‘zbek tilida **j** belgisi, ya’ni harfi bilan affrikat **j** tovushi va sirg‘aluvchi **j** tovushi ifoda etiladi. Fors tilida bu ikki tovush bir-biridan keskin farq qiladi. Bularni bir harf bilan ifoda etilsa, ko‘p so‘zlarning ma’nosini tushunmaslikka olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, fors alifbosida bu ikki tovush ikkita alohida harf bilan ifoda etiladi. Bu tovushlarni o‘zbek grafikasida aks ettirish maqsadida transkriptsiyada affrikat tovush uchun **j** belgisini qoldirib, siro‘aluvchi tovushni **j** belgisi orqali ifodaladik. Qiyos qiling:

ژوئن

Juan

Iyun

جاهل

johel

Johil

ژاله

Jole

Shudring

جامه

jome

Kiyim

پژمرده

pajmo‘rde

so‘ligan

پنجره

panjare

Deraza

9. f – jarangsiz, sirg‘aluvchi , lab-tish tovush. Bu tovush o‘zbek tilidagi **f** tovushi kabi talaffuz etiladi. Lekin o‘zbek tilidagi **f** tovushi lab-lab tovush bo‘lib, fors tilidagi **f** esa lab-tish tovushdir:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Fe	F	ف	ف	ف	ف

ف ف ف ف

فرودگاه

fo‘rudgoh

Aeroport

ظرف

Zarf

Idish

تفنگ

to‘fang

Miltiq

هزار

Hezor

Ming

13. **x** – jarangsiz, siro‘aluvchi, chuqur til orqa tovush. O‘zbek tilidagi **x** tovushi kabi talaffuz etiladi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Xe	X	خ	خ	خ	خ

خ خ خ خ

خاور

Xovar

Sharq

دختر

do‘xtar

Qiz

تلخ

Talx

Achchiq

14. **o‘** – jarangli, sirg‘aluvchi, chuqur til orqa tovush. O‘zbek tilidagi **g‘** tovushi kabi talaffuz etiladi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
g‘ayn	g‘	غ	غ	غ	غ

غ غ غ غ

غذا

G‘azo

ovqat, taom

زاغ

zog‘

qarg‘a

ارمغان

armo‘g‘on

sovg‘a

15. **q** tovushi fors tilida o‘zbek tilidagi **q** tovushidan butunlay farq qiladi. O‘zbek tilidagi **q** tovushi jarangsiz, portlovchi, chuqur til orqa tovush bo‘lsa, fors tilidagi **q** tovushi esa jarangli, sirg‘aluvchi, chuqur til orqa tovushdir.

Ko‘pgina eronshunoslarning fikricha, fors tilida aslida **q** tovushi bo‘lmasdan, bu tovush fors tiliga boshqa tillardan kirgan so‘zlarda uchraydi. Shuning uchun ham **q** tovushini forslar **g‘** tarzida talaffuz qilishadi. Masalan, ikki

ma‘nodagi **غالب** **g‘oleb** va **قالب** **qaleb** so‘zlarining birinchi harflari fors tilida bir xil talaffuz qilinadi. Lekin Tehron dialektidan boshqa dialektlarda, hamda boshqa eroniy tillarda **q** bilan **g‘** tovushlari talaffuzida ancha farq borligini ko‘rish mumkin.

q va **g‘** tovushlari fors alifbosida alohida ikki harf bilan ifoda etilib, so‘zda bir harf o‘rnida ikkinchi harf ishlatilsa, so‘zning ma‘nosi butunlay o‘zgarib ketishi mumkin. Shuning uchun biz fors tili yozuvini o‘zlashtirishni osonlashtirish maqsadida, hamda o‘zbek yozuvida ham **q** **qof** harfi bilan ifoda etilishini nazarga olib, fors tilidagi **q** ni o‘zbek tilida **q** harfi bilan shartli ravishda ifodalashga qaror qildik:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So‘z oxirida	So‘z o‘rtasida	So‘z boshida	Alohida
Qof	Q	ق	ق	ق	ق

ق	ق	ق	ق
قلم	Qalam	Qalam	
عميق	Amiq	Chuqur	
دقيقه	Daqique	Daqiqa	

Ba'zan fors tilidagi **q** tovushi jarangsizlarga yondashib, o'zbek tilidagi **q** yoki **x** tovushlariga yaqinroq talaffuz etiladi. Masalan, **maqsad**, **vaqt**, kabi **g'** va **q** tovushlarining talaffuziga ahamiyat bering:

غريب	g'arib	g'arib	قريب	qarib	Yaqin
غذا	g'azo	Ovqat	قضا	qazo	Qazo
غير	g'eyr	Boshqa	قير	qir	Asfalt

16. **sh** - jarangsiz, sirg'aluvchi, til oldi tovush. O'zbek tilidagi **sh** tovushi kabi talaffuz etiladi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Shin	Sh	ش	شد	شد	ش

ش شد شد شد شد

شهر	Shahr	Shahar
کشتی	Kashti	Kema
بالش	Bolesh	Yostiq

17. **j** – jarangli, sirg'aluvchi, til oldi tovush. O'zbek tilidagi sirg'aluvchi **j** tovushi kabi talaffuz etiladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	So'z oxirida	So'z o'rtasida	So'z boshida	Alohida
Je	<u>J</u>	ژ	ژ	ژ	ژ

ژ ژ ژ ژ ژ

ژنده	Jande	Juldur
دژ	Dej	qal'a
مژده	mo'jde	Xushxabar

18. **h** - jarangsiz, sirg'aluvchi, bo'g'iz tovush. O'zbek tilida **h** tovushi kabi va ba'zan undan ham yumshoqroq talaffuz qilinadi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Ho-ye havvaz	H	ه	ه	ه	ه

ه ه ه ه

ماه	Moh	Oy
مهر	Mehr	Mehr
همسايه	Hamsoye	qoʻshni

19. **m** - jarangli, lab-lab, burun tovush. Oʻzbek tilidagi **m** tovushi kabi talaffuz qilinadi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Mim	M	م	م	م	م

م م م م

مو	Mu	Soch
مغرب	magʻreb	gʻarb
پشم	Pashm	Yung

20. **n** – jarangli, burun til oldi tovush. Oʻzbek tilidagi **n** tovushi kabi talaffuz etiladi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
nun	N	ن	ن	ن	ن

ن ن ن ن

نقره	noʻqre	Kumush
مهندس	moʻhandes	Injener
باران	Boron	yongʻir

21. **l** – jarangli, yon, til oldi tovush. Oʻzbek tilidagi **l** kabi va baʼzan undan ham yumshoqroq talaffuz etiladi:

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Lom	L	ل	ل	ل	ل

_____ل_____ل_____ل_____ل_____

لباس	Lebos	Kiyim
پل	poʻl	koʻprik
بلبل	boʻlboʻl	Bulbul

22. r – jarangli, titroq, til oldi tovush. Oʻzbek tilidagi r tovushi kabi talaffuz etiladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Re	R	ر	ر	ر	ر

_____ر_____ر_____

رابطه	Robete	Aloqa
مردم	mardoʻm	Xalq
مار	Mor	Ilon

23. y – jarangli, sirgʻaluvchi, til oʻrta tovush. Oʻzbek tilidagi y tovushi kabi talaffuz etiladi: Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Yo	Y	ی	ی	ی	ی

_____ی_____ی_____ی_____ی_____

یک	Yek	Bir
سایه	Soye	Soya

24. **ayn** (transkripsiyada ’) belgisi bilan arab tilidan kirgan soʻzlarda uchraydigan maxsus tovush ifoda etiladi.

Harf nomi	Ifoda etgan tovush	Soʻz oxirida	Soʻz oʻrtasida	Soʻz boshida	Alohida
Ayn	‘	ع	ء	ء	ع

ع ع ع ع

Arab tilida **ayn** jarangli, portlovchi, boʻgʻiz tovush, boʻlib, fors tilida bu tovush oʻzining artikulyatsion xususiyatlarini bir muncha yoʻqotgan holda ishlatiladi va faqat arab tilidan kirgan soʻzlardagina uchraydi.

Shu kunga qadar **ayn** harfini fors tilida fonema yoki fonema emasligi haqida eronshunoslar orasida qatʼiy bir fikr yoʻq. YU.A. Rubinchik oʻzining «Sovremenniy persidskiy yazik» kitobida **ayn** harfining ayrim fonetik xususiyatlariga, hamda uning maʼnoni farqlash uchun qiladigan xizmatiga koʻra fonemalar guruhiga kiritadi. SH. G. Gaprindashvili va D. SH. Giunashvili oʻzlarining «Fonetika persidskogo yazika» kitobida bu fikrni tasdiqlab, **ayn** harfini fors tilida jarangli, portlovchi, boʻgʻiz tovush degan xulosaga keladilar. Boshqa baʼzi olimlar esa uni hech qanday tovush bildirmaydigan orfografik belgi tarzida tahlil qiladilar.

Hozirgi fors adabiy tilida **ayn** harfining quyidagi xususiyatlari bor:

A. Maʼnoni farqlash uchun xizmat qiladi:

من	Man	men	منع	manʼ	man qilish
زر	Zar	oltin	زرع	zarʼ	Ekin
فر	Far	hashamat	فرع	farʼ	oʻsish

B. Soʻz boshida kelganda, bu harfga taalluqli boʻlgan satr osti va usti belgilari talaffuz etiladi:

علم	‘elm	Ilm
عمر	‘oʻmr	Umr
عادل	‘odel	Odil

V. Soʻz orasida yoki oxirida unli tovushdan soʻng kelganda, oʻz oldidagi unliga taʼsir qilib, uni choʻzibroq talaffuz etishga ishora qiladi:

تعليم	taʼlim	taalim	taʼlim
دفاع	Defoʼ	defoo	Himoya
تعطيل	taʼtil	taatil	taʼtil

G. Soʻz oxirida undosh tovush bilan yondashib kelganda, boshqa hollarga nisbatan aniqroq talaffuz etiladi va oʻzidan oldingi undoshga taʼsir qilib, uni kuchliroq talaffuz etishga ishora qiladi:

منع	manʼ	man qilish
جمع	jamʼ	jamgʻarish
نفع	nafʼ	foйда

Uyga vazifa: Topshiriq. Quyidagi soʻzlarni koʻchirib yozing va harflarning yozilishini aniqlang.

باد	Bod	Shamol	مور	mur	Chumoli
نیم	Nim	Yarim	تیغ	tigʻ	Xanjar
شیر	Shir	Sut	مار	mor	Ilon
پا	Po	Oyoq	میهن	mihan	Vatan
زاغ	zogʻ	qargʻa	میخ	mix	Mix
سود	Sud	Foyda	ماه	moh	Oy
جیب	Jib	choʻntak	طرف	taraf	Tomon
دود	Dud	Tutun	عصب	ʻasab	asab

AYRIM HARFLAR VA HARF BIRIKMALARNING

YOZILISHI VA TALAFFUZI

و VOV HARFI

1. **Vov** harfi soʻz yo boʻgʻin boshida yoki unidan soʻng kelsa, **v** undoshi kabi talaffuz etiladi. Masalan:

وزیر	Vazir	vazir, ministr
دوات	Davot	Siyohdon

Vov harfi baʼzan soʻz oxirida undoshdan soʻng kelib, **v** kabi talaffuz etilishi ham mumkin. Masalan:

سرو	Sarv	sarv (daraxt)
عضو	ʻoʻzv	aʻzo

2. **Vov** harfi baʼzi soʻzlarda (soʻz oʻrtasi yo oxirida kelib) **oʻu** diftongini ifoda etadi. Masalan:

روشن	roʻushan	ravshan, yorugʻ
روغن	roʻugʻan	yogʻ, moy
نوبت	noʻubat	Navbat
گرو	geroʻu	Garov
جو	joʻu	Arpa
نو	noʻu	Yangi

3. **Vov** harfi baʼzi soʻzlarda soʻz oxirida yoki soʻz oʻrtasida qisqa **oʻ** unli tovushini ifoda etadi. Masalan:

تو	toʻ	Sen
دو	doʻ	Ikki

خود	xo‘d	o‘z (o‘zlik olmoshi)
خوراک	xo‘rok	ovqat, taom, emish
4. Vov harfi خ xe bilan ا alif o‘rtasida kelganda, و vov harfi butunlay talaffuz etilmaydi, lekin doimo yozuvda ifodalanadi. Masalan:		
خواهر	Xohar	opa-singil
خواهش	Xohesh	istak, xohish
خوان	Xon	Dasturxon
خواب	Xob	uyqu, tush
استخوان	O‘sto‘xon	Suyak
خوار	Xor	nafratga uchragan
خواجه	Xoje	xo‘ja
خوارزم	Xorazm	Xorazm
خواربار	Xorbor	oziq-ovqat
خواستن	Xostan	Xohlamoq
خواندن	Xondan	o‘qimoq
خوايدين	Xobidan	Uxlamoq
5. Vov harfi boshqa hollarning barchasida, ya’ni ا alifdan so‘ng so‘z boshida, undoshdan so‘ng so‘z o‘rtasi yo oxirida cho‘ziq unli u tovushini ifoda etadi.		
اوت	Ut	Avgust
اردوگاه	O‘rdugoh	Lager
طوفان	Tufon	bo‘ron
زانو	Zonu	Tizza
كدو	Kadu	Qovoq
ی YO HARFI		
Yolg‘iz holda va so‘z oxirida kelganda, nuqtasiz (ی alohida yoki ی so‘z oxiridagi shakli), so‘z boshida va o‘rtasida nuqta bilan (ی so‘z boshidagi shakli, ی so‘z o‘rtasidagi shakli) yoziladi.		
1. ی harfi so‘z yo bo‘g‘in boshida yoki unlidan so‘ng kelsa, y tovushini ifoda etadi.		
يخ	Yax	Muz
پايدار	Poydor	Mustahkam

چای	Choy	Choy
2.Yo harfi ba'zi so'zlarda ey diftongini ifodalaydi.		
میدان	Meydon	Maydon
ایوان	Eyvon	Ayvon
عیب	'eyb	Ayb
نی	Ney	nay, qamish
3.Yo harfi ba'zi arab so'zlarining oxirida kelib, o cho'ziq unlisi kabi talaffuz etiladi.		
سکنى	so'kno	yashash (bir joyda)
فتوى	Fatvo	Fatvo
4. Qolgan barcha hollarda, masalan, alif dan so'ng so'z boshida, undoshdan so'ng so'z o'rtasi yo oxirida cho'ziq unli i tovushini ifoda etadi.		
این	In	bu, shu (ko'rsatish olmoshi)
میز	Miz	Stol
قالی	Qoli	Gilam
5. So'zda yo harfi oldidan zir belgisi va ketidan alif harfi kelgan bo'lsa, zir yo ta'sirida i kabi talaffuz qilinadi, ya'ni zir bilan yo birikmasi iy deb o'qiladi.		
میان	Miyon	o'rta
سیاه	Siyoh	Qora
زیاد	Ziyod	ko'p
احتیاج	Ehtiyoj	Ehtiyoj
ادبیات	Adabiyot	Adabiyot
نشریات	Nashriyot	Nashriyot
ه HO-YE HAVVAZ		
So'z boshida ه shaklida, so'z o'rtasida ه shaklida, so'z oxirida ه yoki ه shaklida yoziladi. Masalan:		
همراه	Hamroh	yo'ldosh, hamroh
مهمان	Mehmon	Mehmon
نویسنده	Navisande	Yozuvchi
خانه	Xone	xona, uy
1.Ho-ye havvaz harfi so'z oxirida undoshlardan so'ng doimo qisqa unli e kabi talaffuz etiladi.		

روزنامه	Ruznome	Gazeta
شیشه	Shishe	Shisha
سرمایه	Sarmoye	boylik, kapital
اداره	Edore	Idora

2. **Ho-ye havvaz** harfi bir bo'g'inli ba'zi so'zlarda ham **e** tovushini ifoda etadi. Masalan:

که	Ke	Kim
چه	Che	Nima
سه	Se	Uch

3. **Ho-ye havvaz** harfi qolgan hamma hollarda **h** tarzida talaffuz qilinadi. Masalan:

همدان	Hamadon	Hamadon
دهقان	Dehqon	Dehqon
مشهور	Mashhur	Mashhur
ورزشگاه	Varzeshgoh	Stadion

Agar **ه** belgisi **e** tovushini ifoda etsa, fors tili grammatikasida bu **ho-ye g'eyre malfuz** (**h** tarzida talaffuz etilmaydigan hoye havvaz), **h** tovushini bildirsa, **ho-ye malfuz** (**h** tarzida talaffuz etiladigan hoye havvaz) deyiladi.

LIGATURALAR

Lom bilan **alif** birikmasi **لا = ل + لا** (lo) shaklida yoziladi.

Bu birikma **لا** shaklida yoziladi. Masalan:

لازم	Lozem	kerak, lozim
اصلاح	Esloh	tuzatish, reforma
ملاقات	mo'loqot	Uchrashuv

Kof bilan **alif** birikmasi **كا = ک + ا** (ko) shaklida yoziladi.

Gof bilan **alif** birikmasi **گا = گ + ا** (go) shaklida yoziladi.

Bu birikma **کا** ko, **گا** go shaklida yoziladi. Masalan:

کار	Kor	Ish
استحکام	Estehkom	Istehkom
امریکا	Amriko	Amerika
گاؤ	Gov	Sigir
سیگار	Sigor	Sigaret

آموزگار	Omuzgor	o‘qituvchi (maktab)
Kof bilan lom birikmasi كَل = ل + ك shaklida yoziladi. Gof bilan lom birikmasi گَل = ل + گ shaklida yoziladi. Bu birikma quyidagi so‘zlardagi kabi yoziladi		
كلاغ	kalog‘	qarg‘a
كلمه	Kaleme	so‘z
مشكل	mo‘shkel	Mushkil
گل	go‘l	Gul
گليم	Galim	Sholcha
جنگل	Jangal	o‘rmon
Topshiriq. Quyidagi so‘zlarni o‘qing, yozilishini o‘rganing va ularni daftaringizga ko‘chirib yozing:		
لاھوتی	Lohuti	Lohutiy
آلوبالو	Olubolu	Olcha
شرط	Shart	Shart
گوشت	Gusht	go‘sht
سلام	Salom	Salom
کاتب	Koteb	Kotib
قشنگ	Qashang	chiroyli, go‘zal
انگور	Angur	uzum
TO`RTINCHI DARS (2 s) Mavzu: Arab satr usti belgilari. (harakatlar) Maqsad: Fors tilida arab satr usti belgilarini tushuntirish. Darsning borishi: 1.Davomat (5 min.) 2.Uy vazifasini tekshirish. (20 min.) 3.Yangi tema (30 min.) 4.Baholash (20 min.) 5.Uyga vazifa (5 min.)		

Davomat aniqlangach, uyga berilgan mavzu fors tilida undoshlarning xususiyatlari va topshiriq soʻraladi.

Yangi tema: ARAB SATR USTI BELGILARI

Fors tiliga arab harflari bilan bir qatorda, arab satr usti belgilari ham kirib kelgan.

Bu belgilar quyidagilar:

I. **تشديد t a s h d i d** (kuchaytirish, ikkilantirish degan maʼnoni anglatadi) yozuvda **---** belgisi bilan ifoda etilib, harfni takrorlab (ikkilantirib) oʻqishga ishora qiladi. Bunda avval tashdid ostidagi undoshni takrorlab, soʻng tashdid ostidagi harakatni talaffuz qilish kerak. Masalan:

نقاش	Naqqosh	rassom, naqqosh
نجار	Najjor	Duradgor

II. **همزة h a m z a** yozuvda **ء** belgisi bilan ifoda etiladi. Transkripsiyada hamzani **ْ** belgisi bilan ishora qilamiz.

Hamza fors tilida asosan arab tilidan kirgan soʻzlarda va qisman fors soʻzlarida uchraydi. Arab tilida hamza portlovchi, boʻgʻiz, jarangsiz undosh tovush boʻlib, fors tilida esa butunlay oʻz artikulyatsion xususiyatlarini

yoʻqotadi. Arab tilidan kirgan soʻzlarda hamza belgisi soʻz oʻrtasida kelganda, odatda **ا** (alif), **و** (vov), **ى** (yo) harflari ustiga qoʻyiladi.

Bu harflar **hamza** ostida hech qanday talaffuz qilinmay, faqat vositachi vazifasini bajaradilr. Bularidan **ى** yo harfi, soʻz oʻrtasida kelganda, ikki tomondagi harf bilan qoʻshiladigan shakli nuqtasiz holda yoziladi.

Vositachi harakatlar	Hamza qoʻyilishi
ا	أ
و	ؤ
ى	ئ ، ؤ

Vositachi harflar quyidagi qoida asosida ishlatiladi:

1. Soʻzda hamza oldida kelgan harfning yoki hamzaning harakati **zabar** (a) boʻlsa, vositachi harf shaklida **ا** alif yozilib, **hamza** shu harfning ustiga qoʻyiladi. Masalan:

تأسيس	taʼsis	taʼsis
تأكيد	taʼkid	taʼkidlash

2. Soʻzda hamza oldida kelgan harfning yoki hamzaning harakati **zir** (e) boʻlsa, vositachi harf shaklida **ى** yo yozilib, **hamza** shu harfning ustiga qoʻyiladi. Masalan:

هيأت	heyʼat	hayʼat, guruh
مسائل	masoʼel	Masalalar

3. Soʻzda **hamza** oldida kelgan harfning yoki hamzaning harakati **pish** (oʻ) boʻlsa, vositachi harf shaklida **vov** yozilib, hamza shu harfning ustiga qoʻyiladi. Masalan:

مؤلف	moʼʼallef	tuzuvchi, avtor, muallif
مسؤل	masʼul	masʼul, javobgar

Shunday qilib, **hamza** ostidagi vositachi harflarning qoʻyilishi harakat bildirgan belgilarga booʻliqdir.

Vositachi belgilarning yozilishi

Harakatlar	Vositachi belgilar
--- zabar dan so‘ng	ا
-- zir dan so‘ng	ى
--- pish dan so‘ng	و

Agar **hamza** so‘z oxirida kelsa, hech qanday vositachi belgisiz yoziladi.

امضاء	emzo‘	Imzo
ابتداء	ebtedo‘	boshlang‘ich

Fors grafikasida odatda ء belgisi so‘z oxirida yozilmay, tushib qoladi.

امضا	Emzo	Imzo
ابتدا	Ebtedo	boshlang‘ich

Ba‘zan bir yoki ikki bo‘g‘inli hamzali so‘zlarda **hamza** belgisi tushib qolib, **vositachi belgi mustaqil harf** sifatida o‘qilishi mumkin. Masalan:

رأس	ra‘s	راس	ros	bosh (numerativ)
شان	sha‘n	شان	shon	shon, shavkat, qadr
تاريخ	ta‘rix	تاريخ	torix	tarix, vaqt

Ayrim so‘zlarda agar **hamza** undoshdan so‘ng kelgan bo‘lsa, uning ketidan qanday unli kelishidan qat‘iy nazar, **hamza** **ى** yo belgisi ustiga qo‘yiladi. Masalan:

مسئله	mas‘ale	Masala
مسئول	mas‘ul	mas‘ul

Ba‘zi so‘zlarda vositachi harflarning yozilishi qoidadan mustasno bo‘lishi mumkin. Masalan:

رئيس	ra‘is	Rais
قراءت	qero‘at	o‘qish, qiroat

HAMZANING XUSUSIYATLARI QUYIDAGICHA:

1. Agar **hamza** oldidagi bo‘g‘in ochiq bo‘lsa, **hamza** o‘z oldidagi unli tovushga ta‘sir qilib, uni cho‘zibroq talaffuz etishga va tovushni bir oz to‘xtatish kerakligiga ishora qiladi. **Hamza**ning bu ta‘siri aytarli kuchli emas, shuning uchun so‘zni tez talaffuz qilganda, ba‘zan butunlay sezilmaydi. Masalan:

تأسيس	ta‘sis	talaffuzda taasis
تأكيد	ta‘kid	talaffuzda taakid

2. Ikki unli orasida hech qanday talaffuz qilinmaydi. Masalan:

رئيس	ra‘is	talaffuzda rais
مؤسسه	mo‘‘assase	talaffuzda mo‘assase

3. Agar **hamza** oldidagi tovush undosh bo‘lsa, **hamza** bo‘g‘in ajratuvchi vazifasini bajarib, bo‘g‘in orasida kichik pauza qilishga ishora qiladi. Masalan:

جرات	jo‘r‘at	talaffuzda jo‘r/at
مسئله	Mas‘ale	talaffuzda mas/ale

1. Agar **hamza**dan keyingi tovush undosh bo‘lib, **hamza** sukunli kelsa, hamza jarangli bo‘g‘iz tovushiga yaqinlashib boradi. Masalan:

رأس	ra’s	bosh (numerativ)
-----	------	------------------

Yuqoridagi so‘zni tez talaffuz qilgan paytda **hamza** o‘rniga uning oldidagi tovush cho‘zibroq talaffuz qilinayotganligi seziladi.

2. So‘z oxirida **hamza** butunlay talaffuz qilinmaydi. Masalan:

امضا	Emzo	Imzo
ابتدا	Ebtedo	boshlang‘ich

6. Ba‘zan **hamza** so‘z oxirida ma‘noni farqlash uchun ishlatiladi. Masalan:

جزء	jo‘z‘	qism, bo‘lak
جز	jo‘z	Boshqa

Hamza faqat arab so‘zlaridagina emas, balki ba‘zi fors so‘zlarida ham ishlatiladi.

Fors so‘zlarida hamzaning xususiyatlari quyidagicha:

1. Cho‘ziq **i** tovushini cho‘ziq **o** yoki **u** tovushidan ajratish uchun yoziladi. Bunda ikki unli tovushni ajratish uchun talaffuzda qisqa pauza hosil qilish kerakligiga ishora qilinadi.

Yozuvda **hamza i** unlisi oldidan bir tish ئ orttirilib, uning ustiga qo‘yiladi. Odatda fors so‘zlarida ishlatilgan **hamza** belgisi transkripsiyada ifoda etilmaydi. Masalan:

پائين	po-in	ost, quyi
پائيز	po-iz	Kuz

2. Aniqlanmish ه e (hoye g‘eyre malfuz) bilan tugagan bo‘lsa, izofa **hamza** orqali ifoda etiladi. Masalan:

نویسندهء مشهور	navisande-ye mashhur	mashhur yozuvchi
تختهء سیاه	taxte-ye siyoh	qora doska

3. Hozirgi zamon negizi cho‘ziq **o** yoki **i** unlisi bilan tugagan fe‘lga cho‘ziq **i** unlisi bilan boshlanuvchi shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shilsa, ikki unli orasiga **hamza** belgisi qo‘yiladi. Masalan:

میائیم	mio-im	Kelamiz
بفرمائید	befarmo-id	buyuring, marhamat

4. Cho‘ziq unli bilan tugagan so‘zga bir i harfi qo‘shilgan paytda, doim i oldidan **hamza** belgisi qo‘yib yoziladi. Masalan:

نوا navo-kuy, navo → نوائى navoi-Navoiy

دانشجو doneshju - talaba → دانشجوى doneshjui-bir talaba

III. **تتوین t a n v i n** faqat arab tilidan kirgan so‘zlardagina uchraydi. Tanvin yozuvda --- belgisi bilan ifoda etiladi va so‘z oxirida **vositachi alif** ustiga qo‘yiladi ا. Tanvin talaffuzda **an** tovush birikmasini bildiradi. Tanvinli so‘zlar fors tilida **ravish** vazifasida keladi. Masalan:

مثلاً

Masalan

Masalan

خصوصاً

xo'susan

Xususan

an tanvinli arab so'zlari o'zbek tili lug'at tarkibida ham ko'p uchraydi: *taqriban, shaklan, qisman, mazmunan* kabi.

IV. **وصله** *vasla* (qo'shish ma'nosida) --- belgisi bilan ifoda etilib, arab tilidagi aniqlik artikli **ال** birikmasining birinchi harfi alifning ustiga qo'yiladi **أل**.

Fors tilida **vasla** murakkab so'zga aylangan ba'zi arab izofiy birikmalarda yoki aniq otlarda uchraydi. Masalan:

المغرب

al-mag'reb

g'arb

دارالفنون

dor-o'l-fo'nun

Universitet

FORS YOZUVINING AYRIM XUSUSIYATLARI

- O'zbek tilida yozuv chapdan o'ngga qarab yoziladi, lekin fors tilida esa yozuv o'ngdan chapga qarab yoziladi va shu tartibda o'qiladi.
- Fors yozuv sistemasida shu vaqtga qadar tinish belgilarini ishlatish qonunlashtirilmagan. XX asrdan boshlab fors tiliga ba'zi bir tinish belgilari kirib kela boshladi. Shu kunlarda nashr qilinayotgan gazeta va jurnallarda, ilmiy va adabiy asarlarda nuqta, vergul (,) lotin yozuviga asoslangan o'zbek yozuviga nisbatan teskari holda), qo'shtirnoq, savol alomati (lotin yozuviga asoslangan o'zbek yozuviga nisbatan teskari holda ؟ teskari holda), ko'p nuqta va qavs kabi tinish belgilari ishlatilmoqda. Lekin bu tinish belgilari ma'lum qoidaga bo'ysungan holda ishlatilmaydi. Ba'zan qo'shtirnoq o'rniga qavs, goh sarlavha yoki atoqli otlarni qavs yo qo'shtirnoq bilan ajratish hollari ko'rinadi.
- Arab – fors alfavitida atoqli otlar va gapning boshlanishi uchun maxsus harflar yo'q. Yozuvda atoqli va turdosh otlar uchun va butun boshqa hollarda bir hajm va shakldagi harflar ishlatiladi.
- Fors yozuvida ~ maddadan boshqa hamma diakritik belgilar odatda tushib qoladi.

Diakritik belgili holda		
مجلة	Majalle	Jurnal
أفتاب	Oftob	quyosh, oftob
جلال الدين	Jaloliddin	Jaloliddin

Diakritik belgisiz holda		
مجلة	Majalle	Jurnal
أفتاب	Oftob	quyosh, oftob
جلال الدين	Jaloliddin	Jaloliddin

Diakritik belgilarning, xususan, unlilarning yozuvda ifoda etilmasligi so'zlarni to'g'ri o'qish va yozishni birmuncha qiyinlashtiradi.

5. O'zbek yozuvida so'zlarni bo'g'inlarga bo'lib, bir satrdan ikkinchi satrga ko'chirish mumkin. Lekin fors yozuvida so'zlar bo'g'inlarga bo'linsa ham, bir satrdan ikkinchi satrga so'z bo'g'inini ko'chirish mumkin emas. Agar satr oxiridagi so'zni shu satrga sio'dirishning iloji bo'lmasa, uni butunlay ikkinchi satrga yozish kerak bo'ladi. Qo'l yozmalarda esa ba'zan satrga sig'magan so'zning so'nggi harflarini shu so'zning yuqorisiga yozadilar yoki satrda qolsa, joy ochiq qolmasligi uchun so'zning oxirgi harflarini cho'zibroq yozadilar.

Mavzu: Fors tilida sodda gap va ko'rsatish olmoshlari.

Maqsad: Fors tilidagi ot kesimli sodda gaplarni xususiyatlari va ko'rsatish olmoshlarini tushuntirish.

Darsning borishi: 1. **Davomat** (5 min.)

2. **Uy vazifasini tekshirish.** O'tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

3. **Yangi tema** (30 min.)

4. **Baholash** (20 min.)

5. **Uyga vazifa** (5 min.)

Davomat aniqlanadi. Keyin uyga berilgan vazifa tekshiriladi. Talabalarning savollariga javob beriladi va yangi mavzu tushuntiriladi.

Yangi mavzu: OT KESIMLI SODDA GAP

Fors tilida ham xuddi o'zbek tilida bo'lgani kabi kesimi fe'ldan boshqa so'z turkumlari bilan ifodalangan gaplar ot kesimli gap deyiladi. Ot kesimli sodda yig'iq gap deb, faqat bosh bo'laklardan, ya'ni ega va ot kesimdan tashkil topgan jumlarlar ot kesimli sodda yig'iq gaplar deyiladi. Bunday gapda ega har doim gap boshida, kesim esa gap oxirida keladi. Masalan:

این روزنامه است.

In ruznome ast.

Bu gazetadir.

آن مجله است.

On majalle ast.

U jurnaldir.

احمد روزنامه نگار است.

Ahmad ruznomenegor ast.

Ahmad muxbirdir.

Bu gaplarda **این** va **احمد** so'zlari ega bo'lib, **majalle ast** **روزنامه است** **ruznome ast** **مجله است** **روزنامه نگار** **ruznomenegor ast** **روزنامه است** **kesimdir.** **است**

SODDA YIG'IQ GAPDA SO'Z TARTIBI

O'zbek va fors tillaridagi sodda yig'iq gaplardagi so'z tartibini kuzatadigan bo'lsak, ulardagi mushtaraklik yaqqol ko'rinadi, ya'ni ulardagi so'z tartibi bir xildir.

bog'lama	kesimning ot qismi	Ega
است	روزنامه	این

Ega	kesimning ot qismi	kesimlik qo'shimchasi
Bu	gazeta	Dir

Mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi mashqlardan biri bajariladi

1 – topshiriq. Nuqtalar o'rniga bog'lama, lozim bo'lgan so'zlar hamda ko'rsatish olmoshlarini qo'yib ko'chiring va jummalarni o'qing.

.... چیست؟ آن میز آن کتاب آن در این گچ و آن
دفتر جلال دانشجو این کیست؟ این دانشیار آن کیست؟
آن کارگر این دانشجو خوب آن گچ بد گچ است.

2 – **topshiriq.** Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Bu nimadir? Bu eshikdir. U kim? U Jaloldir. U Dilmuroddir. Dilmurod ishchidir. Bo‘r oqdir. Bu stol yaxshidir. U stol yomondir. Bu kitob va u daftardir. Bu talaba yaxshidir. U kim? U kishi vrachdir. Bu ayol kim? Bu ayol o‘qituvchidir. Bu nima? Bu qalamdir. Bu doskadir va u bo‘rdir.

Uyga vazifa: matnni yozish, o‘qib notanish so‘zlar lug‘atini yozish va yodlash, tarjima qilish, va grammatik mavzuga oid 1 va 2 mashqlarni bajarib kelish.

KO‘RSATISH OLMOSHLARI

ضمایر اشاره zamoyer-e eshore

این (in) va آن (on) ko‘rsatish olmoshlari

Kishilik olmoshlari shaxs o‘rnida qo‘llansa, ko‘rsatish olmoshlari ham shaxs, ham narsa o‘rnida qo‘llanaveradi. Shuningdek, kishilik olmoshlari gapda otlar bajargan grammatik vazifani bajarsa, ko‘rsatish olmoshlari gapda sifatlar o‘rnida kelib, aniqlovchi vazifasini bajaradi.

Fors tilida **این in** ko‘rsatish olmoshi so‘zlovchiga nisbatan yaqinda bo‘lgan predmetlarni, **آن on** ko‘rsatish olmoshi esa so‘zlovchiga nisbatan uzoqda bo‘lgan predmetlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Masalan:

این مداد است.	In medod ast.	Bu qalamdir.
آن مقاله است.	On maqole ast.	U maqoladir.
این نویسنده است.	In navisande ast.	Bu yozuvchidir.
آن کیف است.	On kif ast.	U sumkadir.

Yuqoridagi misoldan ko‘rinadiki, **این in** va **آن on** ko‘rsatish olmoshlari aniqlanmishdan oldin kelib, u bilan izofasiz bog‘lanadi.

این in va **آن on** ko‘rsatish olmoshlari **چنان** cho‘non – unday, o‘shanday olmoshlari **چنین** chenin – shunday, bunday; **همین** hamin – xuddi shu va **همان** hamon – xuddi o‘sha olmoshlari **چون** cho‘n so‘zini qo‘shish orqali hosil bo‘lgan. **همچنین** hamchenin – xuddi shunday, **همچنان** hamcho‘non – xuddi o‘shanday olmoshlari ham shu yo‘l bilan hosil bo‘lgan.

Uyga vazifa: Quyidagi matnni ko‘chirib yozing, transkripsiyaga qarab o‘qing, lug‘atini yod oling va tarjima qiling.

مکالمه

آن کیست؟ آن راننده است. این کیست؟ این دانشجو است. آن چیست؟ آن مداد است. این چیست؟ این کتاب است. آن چیست؟ آن دفتر است. این چیست؟ این کاغذ است. آن چیست؟ آن قلم است. این چیست؟ این دیوار است. آن چیست؟ آن نقشه است. این روزنامه است و آن مجله است. این کیست؟ این دانشیار است. این چیست؟ این دبیرستان است. دبیرستان زیبا است. آن تخته است و این گچ است. تخته سیاه است. گچ سفید است.

کلمات

bo‘r	Gach	گچ
bu , shu	In	این
Daftar	Daftar	دفتر
Devor	Divor	دیوار
Dialog	mo‘koleme	مکالمه
Doska	Taxte	تخته
Eshik	Dar	در
Haydovchi	Ronande	راننده
Ishchi	Korgar	کارگر
Kim	Kist	کیست
Kitob	Ketob	کتاب
Nima	Chist	چیست
o‘qituvchi	Doneshyor	دانشیار
Oq	Sefid	سفید
Qizil	so‘rx	سرخ
Ruchka	Qalam	قلم
Sinf	Kelos	کلاس
so‘zlashish	go‘fto‘gu	گفتگو
Stol	Miz	میز
talaba(student)	Doneshju	دانشجو
u, o‘sha	On	آن
yozuvcchi	Navisande	نویسنده

OLTINCHI DARS (2 s)

Mavzu: Fors tilida **است** (ast) bog`lamasi.

Maqsad: Fors tilida **است** (ast) bog`lamasini tushuntirish.

Darsning borishi: 1.Davomat (5 min.)

2. **Uy vazifasini tekshirish.** O`tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

3. **Yangi tema** (30 min.)

4. **Baholash** (20 min.)

5. Uyga vazifa (5 min.)

Davomat tekchirilgach uy vazifasi telshiriladi va o`tilgan mavzu qaytariladi. Keyin yangi tema o`tiladi.

Yangi tema: **است** (AST) BOG'LAMASI

1. Fors tilida gapning kesimi ot, sifat yoki boshqa so'z turkumlari bilan ifodalansa, ya'ni gap ot kesimli gap bo'lsa, kesimlilikni ifodalash uchun ular oxiriga **است** **ast** bog'lamasi qo'yiladi. **است** **ast** bog'lamasi o'zbek tilidagi kesimlik qo'shimchasi **-dir** ga to'g'ri keladi. Masalan:

این کتاب است. In ketob ast. Bu kitobdir.

آن دفتر است. On daftar ast. U daftardir.

2. O'zbek tilida kesimlik qo'shimchasi **-dir** ko'pincha tushib qoladi va yozuvda ifoda etilmaydi. Lekin fors tilidagi **است** **ast** bog'lamasi gapda har doim mavjud va yozuvda ifoda etiladi. Masalan:

این خانه است. In xone ast. Bu xonadir.

آن در است. On dar ast. U eshikdir.

3. **است** **ast** bog'lamasi talaffuzda uro'u qabul qilmaydi va o'z oldidagi so'z bilan birga qo'shib talaffuz qilinadi. Kesim vazifasini bajaruvchi so'z urg'usi o'zgarmay, o'z holicha qoladi. Masalan:

این کتاب است. In ketob ast. Bu kitobdir.

آن کارگر است. On korgar ast. U ishchidir.

Ot kesim tarkibidagi **است** **ast** bog'lamasi kesimning ot qismida kelgan so'zning qanday tovush bilan tugashiga ko'ra turli fonetik xususiyatlarda bo'ladi.

1. Cho'ziq unlilar **o**, **i**, **u** tovushlari bilan tugagan so'zdan so'ng kelsa, bog'lamaning **a** tovushi tushib qolib, oldidagi so'z bilan birga bir so'z tarzida talaffuz etiladi. Masalan:

In doneshjust Bu talabadir.

On sandalist U stuldir.

Bu holda **است** **ast** bog'lamasi yo to'la holda va ba'zan bog'lamaning **ا** **alif** harfi tushib qolib, qolgan qismi esa oldindagi so'z bilan qo'shilgan tarzda yozilishi mumkin.

این دانشجو است. این دانشجوست. In doneshjust

→

آن صندلی است. آن صندلیست. On sandalist

→

- **که** (KE) VA **چه** (CHE) SO'ROQ OLMOSHLARI fors tilida **چه** **che** – nima? va **که** **ke** kim? so'roq olmoshlari bor. Bu ikki so'roq olmoshdan **که** **ke** inson uchun va **چه** **che** qolgan jonli va jonsiz predmetlar uchun ishlatiladi.

که **ke** va **چه** **che** so'roq olmoshlari bilan **است** **ast** bog'lamasi birga kelganda **که** **ke** va **چه** **che** olmoshlarining oxirgi **e** tovushi bog'lama **است** **ast**ning **a** tovushi bilan qo'shilib, bir cho'ziq **i** tovushini hosil

qiladi:

که + است = کیست

چه + است = چیست

این چیست؟	In chist?	Bu nima?
این روزنامه است.	In ruznome ast.	Bu gazeta.
آن کیست؟	On kist?	U kim?
آن نویسنده است.	On navisande ast.	U yozuvchidir.

BOG‘LAMANING TUSLANISHI (TO‘LIQ SHAKLI)

Ot kesimli gapda eganing qaysi shaxs va sonda kelishiga qarab, kesim ham ega bilan shu shaxs va sonda moslashadi. Bu holda bog‘lama **است ast** III shaxs birlikdan boshqa hamma shaxslarda o‘z ekvivalenti bo‘lgan **hast** so‘zi bilan almashinadi. Ot kesim tuslanganda III shaxs birlikda **است ast** bog‘lamasi o‘z holicha qolib, boshqa hamma shaxslarda shaxs-son qo‘shimchalari **هست hast** bog‘lamasiga qo‘shiladi.

Shaxs – son qo‘shimchalari

Ko‘plik—جمع jam’		Birlik – مفرد mo‘frad		Shaxslar
-یم	-im	م -	-am	I shaxs
-ید	-id	ی -	-i	II shaxs
-ند	-and	-	-	III shaxs

Shaxs-son qo‘shimchalarini bog‘lama bilan qo‘shilgan holdagi ko‘rinishi:

جمع jam’	مفرد mo‘frad
هستیم hastim	هستم Hastam
هستید hastid	هستی Hasti

هستند	hastand	است	Ast
-------	---------	-----	-----

BOG'LAMANING INKOR SHAKLINING TUSLANISHI

Bog'lamaning inkor shaklining tuslanishida shaxs-son qo'shimchalari **نیست nist** so'ziga qo'shiladi. Urg'u bu erda **نیست nist** so'zining birinchi bo'g'iniga, ya'ni inkor yuklamasiga tushadi. Masalan:

مفرد mo'frad		
من دانشجو نیستم.	Man doneshju nistam	Men talaba emasman.
تو دانشجو نیستی.	To' doneshju nisti	Sen talaba emassan.
او دانشجو نیست.	U doneshju nist	U talaba emas.
جمع jam'		
ما دانشجو نیستیم.	Mo doneshju nistim	Biz talaba emasmiz.
شما دانشجو نیستید.	Sho'mo doneshju nistid	Siz talaba emassiz.
آنها دانشجو نیستند.	Onho doneshju nistand	Ular talaba emaslar.

است (AST) BOG'LAMASINING BO'LISHSIZ SHAKLI

است ast bog'lamasining bo'lishsiz shakli bog'lamaga **na** – nikor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi va o'zbek tiliga *emas* tarzida tarjima qilinadi. **است ast** bog'lamasi bilan **na** – inkor yuklamasi bir-biri bilan qo'shilganda **است ast** dagi va **na** dagi qisqa **a** unlilari yozuvda tushib qoladi va ular o'rnini bir cho'ziq unli **i** egallaydi.

این روزنامه نیست.

In ruznome nist.

Bu gazeta emas.

آن روزنامه نو

On ruznome no'u nist.

U gazeta yangi emas.

نیست.

OT KESIMNING TUSLANISHI

مفرد (mo'frad) birlik

من دانشجو هستم. **Man doneshju hastam** Men talabaman.

تو دانشجو هستی. **To‘ doneshju hasti** Sen talabasan.

او دانشجو است.	U doneshju ast	U talaba.
----------------	-----------------------	-----------

جمع (jam‘) ko‘plik

ما دانشجو هستیم. **Mo doneshju hastim** Biz talabamiz.

شما دانشجو هستید. **Sho‘mo doneshju hastid** Siz talabasiz.

آنها دانشجو هستند.	Onho doneshju hastand	Ular talabalar.
--------------------	------------------------------	-----------------

Ot kesimning tuslanishida bog‘lama **هست hast** mustaqil urg‘u olib, bu urg‘u shaxs – son qo‘shimchalariga tushadi. Masalan:

مفرد (mo‘frad) birlik

من کارگر هستم. **Man korgar hastam** Men ishchiman.

تو کارگر هستی. **To‘ korgar hasti** Sen ishchisan.

او کارگر است.	U korgar ast	U ishchi.
---------------	---------------------	-----------

جمع (jam‘) ko‘plik

ما کارگر هستیم. **Mo korgar hastim** Biz ishchimiz.

شما کارگر هستید. **Sho‘mo korgar hastid** Siz ishchisiz.

آنها کارگر هستند.	Onho korgar hastand	Ular ishchilar.
-------------------	----------------------------	-----------------

ک(KE) SO‘ROQ OLMOSHINING TUSLANISHI

Bog‘lamanig bu shakli shaxs-sonda tuslagnada, urg‘u shaxs–son qo‘shimchalariga emas, **کیست kist** birikmasining birinchi bo‘g‘iniga tushadi.

Masalan:

مفرد		mo'frad
من کیستم؟	Man kistam?	Men kimman?
تو کیستی؟	To' kisti?	Sen kimsan?
او کیست؟	U kist?	U kim?
جمع		jam'
ما کیستیم؟	Mo kistim?	Biz kimmiz?
شما کیستید؟	Sho'mo kistid?	Siz kimsiz?
آنها کیستند؟	Onho kistand?	Ular kimlar?

هست HAST SO'ZINING MUSTAQIL MA'NOSI

هست **hast** so'zi bog'lamaning to'liq shaklidan tashqari mustaqil ma'noni ham anglatadi.

1. Hamma shaxslarda (III shaxs birlikda ham) qo'llanib, **borlik**, **mavjudlik** ma'nolarini bildiradi.

Masalan, ikki jumlani taqqoslab ko'raylik:

Jalol ironi ast Jalol eronlikdir.
جلال ایرانی است.

Injo ironi hast Bu erda eronlik bormi?
اینجا ایرانی هست؟

Bu ikki jumlada **هست** **hast** va **است** **ast** III shaxs birlikda kelgan bo'lsa ham, birinchi jumlada **است** **ast** bog'lama bo'lib, **ironi** ایرانی bilan birga kesim vazifasini bajarib kelgandir. Ikkinchi jumlada esa **hast**ning o'zi kesim vazifasida kelgan. Masalan:

Injo ketob hast Bu erda kitob bor.
اینجا کتاب هست.

Dar kelos doneshyor Auditoriyada o'qituvchi
در کلاس دانشیار هست.

hast

bor.

2. **هست hast** so‘zi mustaqil urg‘u olib, gapda bog‘lovchi bo‘lib emas, o‘zi mustaqil kesim vazifasida keladi. Tuslanganda urg‘u shaxs–son qo‘shimchalariga emas, **هست hast** so‘zinig birinchi bo‘g‘iniga tushadi. Masalan:

مفرد mo‘frad		
من اینجا هستم.	Man injo hastam	Men bu erdaman.
تو اینجا هستی.	To‘ injo hasti	Sen bu erdasan.
او اینجا هست.	U injo hast	U bu erda.
جمع jam’		
ما اینجا هستیم.	Mo injo hastim	Biz bu erdamiz.
شما اینجا هستید.	Sho‘mo injo hastid	Siz bu erdasiz.
آنها اینجا هستند.	Onho injo hastand	Ular bu erdalar.

Mustaqil ma‘nodagi **هست hast**ning bo‘lishsiz shaklida **نیست nist** so‘zi o‘zbek tiliga **yo‘q** yoki **emas** deb tarjima qilinadi. **نیست nist** so‘zini bog‘lovchi yoki mustaqil ma‘nodagi so‘z ekanligi asosan gapning mazmuniga qarab belgilanadi. Masalan:

مفرد mo‘frad		
من اینجا نیستم.	Man injo nistam	Men bu erda yo‘qman.
تو اینجا نیستی.	To‘ injo nisti	Sen bu erda yo‘qsan.
او اینجا نیست.	U injo nist	U bu erda yo‘q.
جمع jam’		
ما اینجا نیستیم.	Mo injo nistim	Biz bu erda yo‘qmiz.
شما اینجا نیستید.	Sho‘mo injo nistid	Siz bu erda yo‘qsiz.

Onho injo nistand	Onho injo nistand	Ular bu erda yo‘qlar.
-------------------	-------------------	-----------------------

Quyidagi soʻzlarni talabalar mustaqil tuslab chiqishlari kerak boʻladi.

omuzgor	آموزگار	maktab o‘qituvchisi
ironi	ایرانی	Eronlik
navisande	نویسنده	Yozuvchi
Ho‘narpishe	هنرپیشه	Artist
dono	دانا	dono, donishmand
korgar	کارگر	Ishchi

2 – topshiriq. Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Siz kimsiz? Men talabaman. U kim. U vrachdir. Ular kimlar? Ular harbiylar. U qiz ham talabami? Yo‘q, u qiz talaba emas, u qiz injenerdir. Bu ayol kim? Bu ayol mening onam. U qiz kim? U qiz mening singlim. Siz ham muallimmisiz? Ha, men ham muallimman. Bu erda vrach bormi? Ha, bu erda vrach bor. Bugun navbatchi kim? Bugun men navbatchiman. Stolning ustida nima bor? Stolning ustida guldor bor. Portfelda nimalar bor? Portfelda kitob, jurnal, qalam va qog‘oz bor. Sen ishchimisiz? Ha, men ishchiman. Sinfdan kimlar bor? Sinfdan talabalar bor. U erda shoir va yozuvchilar ko‘p. U o‘qituvchimi?

Ot kesim tarkibidagi bog‘lama qisqa shaklda ham ishlatiladi. Bunda bog‘lama III shaxs birlikdan boshqa hamma shaxslarda shaxs – son qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi. Bog‘lamaning qisqa shakli bevosita ot kesimning ot qismiga qo‘shilib yoziladi.

Bog‘lama oldidagi so‘zning unli yoki undosh tovush bilan tugashiga qarab, turli variantlarda bo‘lishi mumkin:

Undosh harf bilan tugagan so‘zdan so‘ng yoziladigan shakli. Masalan:

Shaxslar	مفرد		جمع	
I shaxs	م	-am	تم	-im
II shaxs	ی	-i	ید	-id
III shaxs	است	ast	ند	-and

Bog‘lamaning qisqa formasiga urg‘u tushmasdan, u bog‘lama oldidagi so‘zning

oxirgi bo‘g‘iniga tushadi.

2. Bog‘lamaning qisqa shakli **ه e** qisqa unlisi yoki **ی i** cho‘ziq unlisi bilan tugagan so‘zlardan so‘ng quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi. Masalan:

Shaxslar	مفرد		جمع	
I shaxs	- ام	-am	- ایم	-im
II shaxs	- ای	-i	- اید	-id
III shaxs	است	ast	- اند	-and

ه e qisqa unlisi bilan tugagan so‘zlarda:

مفرد (mo‘frad) birlik

من نویسنده ام. **Man navisande-am** Men yozuvchiman.

تو نویسنده ای. **To‘ navisande-i** Sen yozuvchisan.

او نویسنده است.	U navisande ast	U yozuvchidir.
-----------------	------------------------	----------------

جمع (jam‘) ko‘plik

ما نویسنده ایم. **Mo navisande-im** Biz yozuvchimiz

شما نویسنده اید. **Sho‘mo navisande-id** Siz yozuvchisiz.

آنها نویسنده اند.	Onho navisande-and	Ular yozuvchilardir.
-------------------	---------------------------	----------------------

ی i cho‘ziq unlisi bilan tugagan so‘zlarda:

مفرد (mo‘frad) birlik

من نظامی ام. **Man nezomi-am** Men harbiyman.

تو نظامی ای. **To‘ nezomi-i** Sen harbiysan.

او نظامی است.	U nezomi ast	U harbiydir.
---------------	---------------------	--------------

جمع (jam‘) ko‘plik

ما نظامی ایم. **Mo nezomi-im**

Biz harbiymiz.

شما نظامی اید. **Sho'mo nezomi-id**

Siz harbiysiz.

آنها نظامی اند.	Onho nezomi-and	Ular harbiylardir.
-----------------	------------------------	--------------------

3. Bog'lamaning qisqa shakli **o** va **u** cho'ziq unlisi bilan tugagan so'zlardan so'ng quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Shaxslar	مفرد		جمع	
I shaxs	- یم	-yam	- ئیم	-im
II shaxs	- ئی	-i	- ئید	-id
III shaxs	است	ast	- یند	-yand

Masalan:

مفرد (mo'frad) birlik

من دانشجویم. **Man doneshju-yam**

Men talabaman.

تو دانشجویی. **To' doneshju-i**

Sen talabasan.

او دانشجو است.	U doneshju ast	U talabadir.
----------------	-----------------------	--------------

جمع (jam') ko'plik

ما دانشجوییم. **Mo doneshju-im**

Biz talabamiz.

شما دانشجوئید. **Sho'mo doneshju-id**

Siz talabasiz.

آنها دانشجویند.	Onho doneshju-yand	Ular talabalardir.
-----------------	---------------------------	--------------------

Bog'lamaning bo'lishsiz shakli hamma shaxslarda **nist** نیست so'zi orqali to'liq shaklda ishlatiladi. Masalan:

ما نقاش نیستیم.

Mo naqqosh nistim.

Biz rassom emasmiz.

آنها فروشنده نیستند.

Onho fo‘rushande nistand.

Ular sotuvchi emaslar.

Yangi temaga tayangan holda quyidagi mashqlarni bajarish.

1 – topshiriq. Quyidagi so‘zlarga bog‘lamaning bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklini qo‘shib tustlang.

نویسنده	navisande	Yozuvchi
دانشجو	doneshju	Talaba
راننده	ronande	Haydovchi

2 – topshiriq. Quyidagi so‘zlarga bog‘lamaning qisqa shaklini qo‘shib, shaxs va sonda tustlang.

هنرپیشه	Ho‘narpishe	Artist
دانا	dono	dono, donishmand
کارگر	korgar	Ishchi
مهندس	mo‘handes	Injener
ایرانی	ironi	Eronlik
نویسنده	navisande	Yozuvchi

3 – topshiriq. Bog‘lamaning qisqa shaklidan foydalanib, quyidagi gaplarni tarjima qiling.

Sen kimsan? Men talabaman. Sen ham talabamisan? Yo‘q, men ishchiman. Bugun kim navbatchi? Bugun men navbatchi. Bugun kim darsda yo‘q? Bugun darsda Hasanov yo‘q. Siz vrachmisiz? Ha, men vrachman, siz kimsiz? Men o‘qituvchiman. Bugun u kasalmi? Ha, u bugun kasal. U yozuvchidir. U mashhur yozuvchimi? Ha, uning nomi juda mashhur. Siz diktormisiz? Yo‘q, men diktor emasman, men artistman. Bu erda sharqshunos bormi? Ha, bor. Siz qaeliksiz? Men Tehronlikman. Bu kishi kim? Bu kishi olim. Bu erda eronlik bormi? Ha, bu erda eronlik bor. Sizning xonangiz qanday? Mening xonam katta va chiroyli. Mening xonamda ikkita katta deraza bor. Sinfimiz eshigi ochiq. Bugun havo qanday? Bugun havo juda sovuq.

Uyga vazifa: 2-mashq va quyidagi matnni daftarga ko‘chirib yozish, lug‘at yodlash, o‘qish va

مکالمه

شما کیستید؟ من پزشک هستم. آن دختر کیست؟ آن دختر نویسنده است. تو کیستی؟ من مهندس هستم. تو هم دانشجو هستی؟ بلی، من هم دانشجو هستم. اکبر کیست؟ اکبر افسر است. فاطمه کیست؟ فاطمه مهندس است. ناظمه امروز کشیکچی است. امروز هوا چطور است؟ امروز هوا گرم است. مگر امروز هوا گرم است؟ خیر، امروز هوا گرم نیست، امروز هوا سرد است. آن مرد چکاره است؟ آن مرد صحاف است. کهنه کجا است؟ کهنه روی میز است. روی میز دیگر چه چیز هست؟ روی میز کیف و مداد هست. آیا آنجا مجله هم هست؟ بلی، آنجا مجله هم هست. در این خانه مجله نیست، مجله در آن خانه است. در اینجا که هست؟ در اینجا من هستم. ما همه هم اینجا هستیم.

کلمات

afsar	ofiser (zobit)	افسر
emruz	Bugun	امروز
Akbar	Akbar (ism)	اکبر
To‘	Sen	تو
dars-e chahoro‘m	to‘rtinchi dars	درس چهارم
digar	boshqa, yana	دیگر
ruye	Ustida	روی
sard	Sovuq	سرد
sho‘mo	Siz	شما
sahhof	Muqovachi	صحاف
Foteme	Fotima (ism)	فاطمه
keshikchi	Navbatchi	کشیکچی

eski, latta	ko'hne	کهنه
Issiq	garm	گرم
Hammamiz	mo hame	ما همه
Men	mann	من
Injener	mo'handes	مهندس
Nozima (ism)	Nozeme	ناظمه
Hamma	hame	همه
Havo	havo	هوا

ETTINCHI DARS (2 s)

Mavzu: So'roq gaplarningning tuzilishi.

Maqsad: Fors tilida so'roq gaplarni tuzish.

Darsning borishi: 1.Davomat (5 min.)

2. **Uy vazifasini tekshirish.** O'tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)
3. **Yangi tema** (30 min.)
4. **Baholash** (20 min.)
5. **Uyga vazifa** (5 min.)

Davomat aniqlangach uy vazifaning lug'ati "shahar" o'yini kabi tekshiriladi. (zangirni uzgan talaba keyingi shartda ishtirok etadi). So'ng matn o'qitiladi va tarjima qilinadi. Keyin daftarlar tekshiriladi, talabalar baholanadi.

Yangi mavzu: SO'ROQ GAPNING TUZILISHI

Fors tilida so'roq gap asosan so'roq olmoshlari, intonatsiya va so'roq yuklamalari orqali tuziladi.

1. **که ke va چه che** so'roq olmoshlari orqali tuziladi. Masalan:

این کیست؟	In kist	Bu kim(dir)?
این چیست؟	In chist	U nima(dir)?

2. Intonatsiya orqali savol anglashiladi.

Ot kesimli sodda yig'iq gapdan so'roq gap tuzish uchun, gapning oxirgi qismini kuchli so'roq ohangida talaffuz qilish kerak. Masalan:

این مداد است؟	In medod ast?	Bu qalammi?
آن دختر دانشجو است؟	On do'xtar doneshju ast?	U qiz talabami?

6. **مگر آیا** Ko'pincha gap boshiga so'roq yuklamalarini keltirish orqali ham tuziladi. Masalan:

این روزنامه است؟	In ruznome ast?	Bu gazetami?
------------------	-----------------	--------------

آن کاغذ سفید است؟

On kog‘az sefid ast?

U qog‘oz oqmi?

آیا، آن دختر دانشجو
است؟

Oyo, on do‘xtar doneshju ast?

U qiz talabami?

مگر **magar** so‘roq yuklamasi so‘roq gapda aytilgan fikrga nisbatan shubha, ishonchsizlik ma‘nolarini bildirgan hollarda ishlatiladi va o‘zbek tilidagi **nahotki** so‘ziga to‘g‘ri keladi. Masalan:

مگر، آن دختر نویسنده است؟

Magar on do‘xtar navisande ast?

Nahotki, u qiz yozuvchi bo‘lsa?

مگر، این مداد است؟

Magar in medod ast?

Nahotki, bu qalam bo‘lsa?

Talaffuzda **آیا** **oyo** va **مگر** **magar** yuklamalarini gapning boshqa bo‘laklaridan kichik pauza bilan ajratib talaffuz qilinadi. Undan so‘ng esa gap so‘roq intonatsiyasi bilan o‘qiladi. Masalan:

آیا، این میز است؟

Oyo, in miz ast?

مگر، آن کاغذ است؟

Magar, on kog‘az ast?

Fors tilida tasdiq va inkor ma‘nolarini ifodalash uchun bali va naxeyr so‘zlari ishlatiladi.

بلی (BALI) VA **نخیر** (NAXEYR) SO‘ZLARI HAQIDA

So‘roq gapdagi javob ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin.

1. So‘roq gapning javobi ijobiy bo‘lsa, jumla boshiga tasdiq ma‘nosini anglatuvchi **بلی** **bali** so‘zi qo‘yiladi va o‘zbek tiliga **ha** deb tarjima qilinadi. Masalan:

آیا، این مجله است؟

Oyo, in majalle ast?

Bu jurnalmi?

بلی، این مجله است.

Bali, in majalle ast.

Ha, bu jurnal.

2. So‘roq gapning javobi salbiy bo‘lsa, gap boshiga inkor ma‘nosini anglatuvchi **نخیر** **naxeyr** so‘zi qo‘yiladi va o‘zbek tiliga **yo‘q** deb tarjima qilinadi. Bu holda inkor so‘zidan tashqari, gap kesimi ham bo‘lishsiz shaklda keladi. Masalan:

آیا، آن روزنامه است؟

Oyo, on ruznome ast?

U gazetami?

نخیر، آن روزنامه نیست، مجله است.

Naxeyr, on ruznome nist, majalle ast.

Yo‘q, u gazeta emas, jurnaldir.

بلی **bale** va **نخیر** **naxeyr** so‘zlari **آیا** **oyo** yuklamasi kabi gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik aloqada bo‘lmaydi. Talaffuzda esa bu yuklamalardan so‘ng kichik pauza hosil qilinib, so‘ng gapning boshqa bo‘laklari o‘qiladi.

Fors tilida so‘roq gap so‘roq bildiruvchi **چطور cheto‘ur**, **چه رنگ che rang**, **چکاره chekore**, **کجا ko‘jo**, **کدام ko‘dom**, **چگونه chegune** so‘roq so‘zlari yordami bilan ham tuzilishi mumkin.

1. **چطور cheto‘ur** biror shaxsning hol–ahvolini, predmet va hodisaning holatini yoki hajm-qiyofasini bilish uchun ishlatiladi. Masalan:

احوال شما چطور است؟

Ahvole sho‘mo cheto‘ur ast?

Ahvolingiz qanday?

این باغ چطور است؟

In bog‘ cheto‘ur ast?

Bu bog‘ qanday?

2. **چه رنگ che rang** predmetning qaysi rangda ekanligini bilish uchun ishlatiladi. Masalan:

سیب چه رنگ است؟

Sib che rang ast?

Olma qanday rangda?

تخته چه رنگ است؟

Taxte che rang ast?

Doska qanday rangda?

Shunday qilib, **که ke** va **چه che** so‘roq olmoshlari predmet va shaxsning o‘zini bilish uchun ishlatilsa, **چطور cheto‘ur** va **چه رنگ che rang** shu predmet va shaxsning sifatini, holatini va belgisini bilish uchun ishlatiladi.

3. **چکاره chekore** biror shaxsning kim bo‘lib ishlashini, uning kasbini bilish uchun ishlatiladi. Masalan:

جلال چکاره است؟

Jalol chekore ast?

Jalolning kasbi nima?

این مرد چکاره است؟

In mard chekore ast?

Bu kishining kasbi nima?

4. **کجا ko‘jo** so‘roq olmoshi predmet yo shaxsning yo‘nalishi yoki uning o‘rnini

bilish uchun ishlatiladi va o'zbek tiliga **qaerga? qaerda? qaer?** tarzida tarjima qilinadi. Masalan:

مداد كجاست؟ **Medod ko'jost?** Qalam qaerda?

اينجا كجاست؟ **Injo ko'jost?** Bu er qaer?

تو كجا ميروى؟ **To' ko'jo miravi?** Sen qaerga ketayapsan?

5. كدام **ko'dom** – **qaysi?** olmoshi narsalar ichidan ajratib ko'rsatadigan belgiga xos so'roqni bildiradi.

آن كدام خيابان است؟ **On ko'dom xiyobon ast?** U qaysi ko'cha?

اين كدام ميدان است؟ **In ko'dom meydon ast?** Bu qaysi maydon?

6. چگونه **chegune** so'roq olmoshi o'zbek tilidagi **qanday?** so'rog'iga to'g'ri keladi. Bu so'roq olmoshi **predmetlarning shakli** va **ularning holati** (ahvoli) ni bilishda ishlatiladi.

دفتر چگونه است؟ **Daftar chegune ast?** Daftar qanday?

خانه چگونه است؟ **Xone chegune ast?**

Yangi temani mustahkamlash uchun 1- 2 topshiriq bajariladi

1- topshiriq. Quyidagi gaplarni forschaga tarjima qiling.

Bu imorat qanaqa? Bu imorat baland va chiroyli. Bu ayol (mutaxassisligi bo'yicha) kim? Bu ayol injenerdir. Bu kishi o'qituvchidir. Bu xona qanaqa? Bu xona yorug'dir. Bu qalam qaysi rangda? Bu qalam ko'kdir. Bu kitob yangimi? Yo'q, bu kitob yangi emas, bu kitob eski. U o'qituvchimi? Yo'q, u o'qituvchi emas, u

talaba. Bu vrachmi? Ha, bu vrach. Doska qaerda? Doska auditoriyada. Talabalar qaerda? Talabalar auditoriyada.

2- topshiriq. Transkriptsiyada berilgan gaplarni arab-fors alfaviti bilan yozing va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling.

In chist? In medod ast. On kist? On doneshju ast. Oyo, u korgar ast? Bali, u korgar ast? In film cheto'ur ast? In film xub ast. In go'l cheto'ur ast? In go'l so'rx ast. In divor cheto'ur ast? In divor sefid ast. In kelos cheto'ur ast? In kelos bo'zo'rg va ro'ushan ast. In do'xtar kist? In do'xtar pezechk ast. In koo'az sefid ast? Naxeyr, in koo'az sefid nist, in kog'az sabz ast, vali on kog'az siyoh ast. Kif cheto'ur ast? Kif ko'chek ast? On doneshju cheto'ur ast? On doneshju xub ast. Go'l che rang ast? Go'l so'rx ast.

Uy vazifa: 2- mashqni fors tiliga yozma tarjima qilish, matnni ko'chirib yozish, lug'at yodlash, tarjima qilish, o'qish va so'roq gaplarni aniqlash.

مکالمه

دانشجو کجاست؟ دانشجو هم آنجاست. آن مرد چکاره است؟ آن مرد خبرنگار است. این زن چکاره است؟ این زن پزشک است. این کدام خیابان است؟ این خیابان نوایی است. خیابان نوایی قشنگ است. مگر، آن کتاب بد است؟ اینجا دانشکده است. این دانشکده بزرگ و روشن است. پروین کجاست؟ پروین در کلاس است. کلاس چطور است؟ کلاس کوچک ولی روشن است. آن چه چیز است؟ آن پنجره است. پنجره چطور است؟ پنجره بزرگ است. میز چطور است؟ میز بزرگ است. آیا این مداد سرخ است؟ خیر این مداد سرخ نیست، این مداد سبز است. این کاغذ چه رنگ است؟ این کاغذ زرد است. دانشیار کجا است؟ دانشیار در کلاس است. خیر آن کتاب بد نیست، آن کتاب خوب است. این مرد نویسنده است. این نویسنده مشهور است.

کلمات

u er, u erga, u erda

onjo

آنجا

bu er, bu erga, bu erda

injo

اینجا

Katta

bo'zo'rg

بزرگ

Parvin (ism)

Parvin

پروین

Vrach	pezeshk	پزشک
o'g'il bola	pesar	پسر
Qanday	cheto'ur	چطور
qanday rangda	che rang	چه رنگ
kim(mutaxassisligi bo'yicha)	chekore	چکاره
Muxbir	xabarnegor	خبرنگار
Universitet	doneshgoh	دانشگاه
Fakultet	doneshkade	دانشکده
(predlog) – da	dar	در
uchinchi dars	dars-e sevvo'm	درس سوم
o'rtoq	rafiq	رفیق
yorug'	ro'ushan	روشن
Sariq	zard	زرد
ayol kishi	zan	زن
Yashil	sabz	سبز
Chiroyli	qashang	قشنگ
qaer, qaerda, qaerga	ko'jo	کجا
Sinf	kelos	کلاس
Kichik	kuchek	کوچک
erkak kishi, kishi	mard	مرد
Mashhur	mashhur	مشهور
yozuvchi	navisande	نویسنده

SAKKIZINCHI DARS (2 s)

Mavzu: *Fors tilida kishilik olmoshlari.*

Maqsad: Kishilik olmoshlarini tushuntirish va ular yordamida gap tuzish.

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism (5 min.)

Uy vazifasini tekshirish O`tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

Yangi tema: (30 min.)

Baholash: (20 min.)

Uyga vazifa: (5 min.)

Davomat aniqlangach uy vazifasi tekshiriladi. Berilgan matn asosida lugʻat tekshiriladi, tarjima qilinadi. 10 minutlik lugʻat diktanti, yaʼni oʻqituvchi oʻzbek tilida yangi soʻzlar lugʻatini aytadi, talabalar esa ularni fors tilida yozishlari va talaffuzini yozishlari kerak boʻladi va baholanadi. Soʻng matn oʻqib, tarjima qilinadi. Keyin yangi tema tushuntiriladi.

Yangi tema: KISHILIK OLMOSHLARI

ضمایر شخصی (zamoyer-e shaxsi)

Fors tilidagi kishilik olmoshlari quyidagilar:

Koʻplik-جمع jamʼ			Birlik-مفرد moʻfrad			Shaxslar
ما	mo	biz	من	man	men	I shaxs
شما	shoʻmo	siz	تو	toʻ	sen	II shaxs
آنها ایشان	onho ishon	ular	او وی	u vey	u	III shaxs

Hozirgi zamon fors jonli tilida **ما mo – biz, شما shoʻmo – siz** olmoshlari koʻplikni ifodalasa ham, yana koʻplik qoʻshimchasini olib, **ماها moho – bizlar, شماها shoʻmoho – sizlar** shaklida qoʻllanadi. Shuningdek, **شما shoʻmo – siz** kishilik olmoshi (oʻzbek tilidagi singari) birlikda hurmat maʼnosini ifodalashi normal holga aylangan. Masalan:

شما کیستید؟ Shoʻmo kistid?

Siz kimsiz?

من پزشکم. Man pezeshkam.

Men vrachman.

Koʻrganimizdek fors tilida kishilik olmoshlari birlik va koʻplik shakllari mavjud boʻlib, III shaxs birlik va koʻplikdagi kishilik olmoshlarining ekvivalentlari mavjud. III shaxsdagi وی (vey) hamda ایشان (ishon) kishilik olmoshlari asosan klassik matnlarda uchraydi.

Fors tilida egalik, mansublikni ifodalash uchun otlarga quyidagi egalik qo‘shimchalari qo‘shiladi.

Shaxslar	Birlik- مفرد mo‘frad		Ko‘plik- jam’ جمع	
I shaxs	م -	-am	مان -	-emon
II shaxs	ت -	-at	تان -	-eton
III shaxs	ش -	-ash	شان -	-eshon

Egalik qo‘shimchalari otlarning oxiriga qo‘shilib, predmetning qaysi shaxsga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Masalan:

مفرد		
دوستم	dustam	do‘stim
دوستت	dustat	do‘sting
دوستش	dustash	do‘sti

جمع		
دوستان	dustemon	do‘stimiz
دوستتان	dusteton	do‘stingiz
دوستشان	dusteshon	do‘stlari

Egalik qo‘shimchalari o‘z oldidagi so‘z bilan birga bir so‘z tarzida talaffuz qilinadi. Egalik qo‘shimchalarga uro‘u tushmaydi. Urg‘u egalik qo‘shimchalari dan oldingi bo‘g‘inda bo‘ladi. Masalan:

دستم **dastam**

qo‘lim

کیفش **kifash**

Sumkasi

احوالمان **ahvolemon**

Ahvolimiz

مادرتان **modareton**

Onangiz

EGALIK QO‘SHIMCHALARINING IMLOSI

1. So‘z **ه** e qisqa unlisi yoki **ی** i cho‘ziq unlisi bilan tugagan bo‘lsa, egalik qo‘shimchalari oldidan birlik formada **ا** **alif**, ko‘plikda esa **ه** **hamza** belgisi qo‘yiladi. Talaffuzda birlik formada ot bilan egalik qo‘shimchalari orasida kichik pauza, ko‘plikda esa bir **ی** y tovushi orttiriladi. Masalan:

مفرد		
خانه ام	xone-am	Xonam
خانه ات	xone-at	Xonang
خانه اش	xone-ash	Xonasi

جمع		
خانه مان	xoneyemon	Xonamiz
خانه تان	xoneyeton	Xonangiz
خانه شان	xoneyeshon	Xonalari
مفرد		
صندلی ام	sandali-am	Stulim
صندلی ات	sandali-at	Stuling
صندلی اش	sandali-ash	Stuli

جمع		
صندلى مان	sandaliyemon	Stulimiz
صندلى تان	sandaliyeton	Stulingiz
صندلى شان	sandaliyeshon	Stullari

2. So‘z **o** yoki **u** cho‘ziq unlisi bilan tugagan bo‘lsa, egalik affikslari oldidan bir **y** orttiriladi.

مفرد		
رويم	ruyam	Yuzim
رويت	ruyat	Yuzing
رويش	ruyash	Yuzi

جمع		
رويمان	ruyemon	Yuzimiz
رويتان	ruyeton	Yuzingiz
رويشان	ruyeshon	Yuzlari

مفرد		
صدائيم	sedoyam	Ovozim
صدائيت	sedoyat	Ovozing
صدائيش	sedoyash	Ovozi

جمع		
صدایمان	sedoyemon	Ovozimiz
صدایتان	sedoyeton	Ovozingiz
صدایشان	sedoyeshon	Ovozlari

Egalik affikslari jadvali

Undoshlardan so‘ng			
مفرد		جمع	
- م	-am	- مان	-emon
- ت	-at	- تان	-eton
- ش	-ash	- شان	-eshon

Qisqa e va u unlisi va cho‘ziq i unlisidan so‘ng			
مفرد		جمع	
- ام	-am	ء مان	-yemon
- ات	-at	ء تان	-yeton
- اش	-ash	ء شان	-yeshon
Cho‘ziq o va u unlisidan so‘ng			
مفرد		جمع	
- یم	-yam	- یمان	-yemon
- یت	-yat	- یتان	-yeton
- یش	-yash	- یشان	-yeshon

Izofiy birikmali gaplarda egalik affikslari birikmaning oxirgi so‘ziga qo‘shiladi.
Masalan:

اسم برادر بزرگت چیست؟

Esm-e berodar-e bo'zo'rgat chist?

Akangning ismi nima?

آن مرد دانشیا زبان فارسی مان است.

On mard doneshyor-e zabon-e forsiyemon ast.

U kishi bizning fors tili o'qituvchimizdir.

EGALIKNING IFODALANISHI

Fors tilida egalik ma'nosi oldingi darslarda izoh etilgan egalik affikslaridan tashqari مال mol so'zi yoki آن az on birikmasi bilan ham ifodalanadi.

مال mol so'zi yoki آن az on birikmasi ba'zan ot, ko'pincha olmoshlar oldidin kelib, ular bilan izofa orqali bog'lanadi. مال mol so'zi yoki آن az on birikmasi o'zbek tilidagi **-niki** yoki **-iki** affikslariga to'g'ri keladi. Masalan:

مفرد mo'frad		
از آن من	az on-e man	Bizniki
از آن تو	az on- e to'	Seniki
از آن او	az on-e u	Uniki
جمع jam'		
از آن ما	az on-e mo	Bizniki
از آن شما	az on- e sho'mo	Sizniki
از آن آنها	az on-e sho'mo	Ulariki

این کتاب درسی زبان فارسی مال برادر کوچکم است.

In ketob-e darsi-ye zabon-e forsi mol-e barodar-e kuchekam ast

Bu fors tili darsligi ukamnikipdir.

این کیف از آن من است.

In kif az on-e man ast

Bu portfel menikipdir.

آن az on birikmasi bilan **مال mol** so‘zi o‘zaro **sinonim** bo‘lib, biri o‘rnida ikkinchisini ishlatish mumkin.

این کتاب درسی زبان فارسی مال خواهر کوچکم است.

In ketob-e darsi-ye zabon-e forsi mol-e xohar-e kuchekam ast

Bu fors tili darsligi singlimnikidir.

این کتاب درسی زبان فارسی از آن خواهر کوچکم است.

In ketob-e darsi-ye zabon-e forsi az on-e xohar-e kuchekam ast

Bu fors tili darsligi singlimnikidir.

Abstrakt egalik shaklidagi so‘z gapda doimo **kesim** bo‘lib keladi.

تمام این ثروتها از آن کشور است.

Tamom-e in sarvatho az on-e keshvar ast

Butun bu boyliklar mamlakatnikidir.

این کتاب زبان فارسی مال من است.

In ketob-e zabon-e forsi mol-e man ast

Bu fors tili kitobi menikipdir.

1 – topshiriq. Quyidagi jummalarni fors tiliga tarjima qiling.

Ahvolingiz qanday? Ahvollarim yaxshi. Xona eshiklari ochiq. Bu filologiya fakultetining devoriy gazetadir. Do‘stingizni ismi nima? Do‘stimning ismi Furqat. Ukangiz nechanchi kurs talabasi? Ukam birinchi kurs talabasi. Akangiz qaerda?

Akam Faro‘ona shahrida. Uning otasi injenermi? Ha, uning otasi injenerdir. Fakultet talabalarining hammasi shu erda. Sizni ko‘rishdan juda xursandman. Onangiz kim? Onam nashriyotda redaktodir. Fakultetingiz devoriy gazetasining nomi nima? Fakultetimiz devoriy gazetasining nomi «O‘zbekiston jurnalisti» dir. Bu jurnal akamniki. Bu gazeta kimniki? Bu gazeta singlimniki. U kitob kimniki? U kitob akamning do‘stiniki. Bu fors tili darsligi do‘stimnikidir. Bu qalam meniki. U ruchka ukamnikidir. Bu fors tili kitobi kimniki? Bu fors tili kitobi fors tili o‘qituvchimiznikidir.

2 – topshiriq. Quyidagi so‘zlarga egalik affikslarini qo‘shib turlang.

عمو	amu	Amaki
لباس	lebos	libos, kiyim
همسايه	hamsoye	qo‘shni
خواهر	xohar	opa-singil
شانه	shone	elka, taroq
بینی	bini	Burun
ابرو	abru	Qosh
احوال	ahvol	Ahvol
صدا	sedo	sado, tovush
پا	po	Oyoq

Uy vazifa: 2- mashqni fors tiliga yozma tarjima qilish, matnni ko‘chirib yozish, lug‘at yodlash, tarjima qilish, o‘qish va so‘roq gaplarni aniqlash.

مکالمه

شما کیستید؟ من نویسنده ام. تو کیستی؟ من خبرنگارم. آیا شما هم خبرنگارید؟ خیر، من خبرنگار نیستم، من زبانشناسم. آنها کیستند؟ آنها

نویسنده اند. شما هم نویسنده اید؟ خیر، من نویسنده نیستم. من مهندس. آیا، آن مرد شاعر است؟ خیر، آن مرد شاعر نیست، آن مرد ادبیاتشناس است. شما کیستید؟ ما ادبیاتشناسیم ولی آنها فروشنده اند. من ایرانی ام. شما هم ایرانی اید؟ خیر، من ایرانی نیستم، من ازبکم. شما تشنه اید؟ بلی، من تشنه ام. جلال تو کارگری؟ بلی، من کارگرم. تو هنرپیشه ای؟ خیر، من هنرپیشه نیستم. پس تو کیستی؟ من دهقانم. من امروز ناخوشم. تو هم ناخوشی؟ بلی، من هم ناخوشم ولی رفیق حسنوف سالم است. شما سالمید؟ بلی، ما سالمیم. آیا، آن مرد پیر است؟ بلی، آن مرد پیر است. این پسر جوان است؟ بلی، این پسر جوان است.

کلمات

adabiyotshenos	ادبیاتشناس
Adabiyotchi	
ironi	ایرانی
Eronlik	
bo'land	بلند
Baland	
pir	پیر
Qari	
tashne	تشنه
Tashna	
Jalol	جلال
Jalol (ism)	
javon	جوان
Yosh	
Hasanov	حسنوف
Hasanov (familiya)	
dars-e panjo'm	درس پنجم
bashinchi dars	
dehqon	دهقان
Dehqon	
zabon	زبان
Til	
zabonshenos	زبانشناس
Tilshunos	
solem	سالم
sog'lom	
sho'er	شاعر
Shoir	
emorat	عمارت
Imorat	
noxo'sh	ناخوش
Kasal	
ho'narpishe	هنرپیشه
Artist	
vali	ولی
Lekin	
fo'rushande	فروشنده
Sotuvchi	

TO`QQIZINCHI DARS (4 s)

Mavzu: Fors tilida izofa va izofa zanjiri.

Maqsad: Fors izofasini o`rganish va qo`llash.

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism (5 min.)

Uy vazifasini tekshirish O`tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

Yangi tema: (30 min.)

Baholash: (20 min.)

Uyga vazifa: (5 min.)

Davomat tekshirilgach, uyga berilgan kishilik olmoshlari mavzusi bo`yicha topshiriqlar tekshiriladi. So`ng yangi mavzu o`tiladi.

Yangi mavzu: FORS TILIDA IZOFA VA IZOFA ZANJIRI

إضافة (EZOFE)

Izofa so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, qo‘shish, orttirish degan ma‘noni anglatadi. Aniqlovchili birikma butun bir ohang bilan talaffuz etiladi, ya‘ni aniqlanmish bilan aniqlovchi o‘rtasida to‘xtalish bo‘lmaydi.

Fors tilida aniqlovchi bilan aniqlanmish yoki qaratqich bilan qaralmish o‘rtasidagi munosabat urg‘usiz e tovushi orqali bog‘lanadi.

Shu munosabatni ifoda etuvchi urg‘usiz e tovushi izofa deyiladi.

O‘zbek tilida bo‘lgani kabi fors tilida ham aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlari mavjud. Ushbu munosabatlar o‘zbek va fors tillarida turlicha ifoda etiladi.

Izofiy birikmada so‘z tartibi quyidagicha bo‘ladi: birinchi navbatda aniqlanmish yoki qaralmish kelib, so‘ngra urg‘u olmagan morfologik ko‘rsatkich e kelib, undan so‘ng esa aniqlovchi yoki qaratqich keladi.

Masalan:

دانشیار تاریخ doneshyore torix tarix o‘qituvchisi

میدان "مستقللیک" meydane "Mustaqillik" "Mustaqillik" maydoni

O‘zbek adabiy tilida ham fors tilidan o‘zlashgan dard-i bedavo, dard-i sar, tarjima-i hol, nuqta-i nazar, oshiq-i zor, taxt-i ravon, sarv-i noz

kabi ko‘plab forsiy izofiy birikmalar ham ishlatiladi.

Fors tili izofiy birikmasida so‘z tartibi o‘zbek tiliga qarama-qarshidir. Agar o‘zbek tilida avval aniqlovchi, so‘ng aniqlanmish yoxud avval qaratqich, so‘ng qaralmish kelsa, fors tilida esa aksincha, avval aniqlanmish, so‘ng aniqlovchi yoki avval qaralmish, so‘ng qaratqich keladi.

O‘zbek tilida	Fors tilida
→ aniqlovchi → aniqlanmish	aniqlovchi ← aniqlanmish ←
fors tili	زبان فارسی zabone forsi
baland imorat	عمارت بلند emorat-e bo‘land
→ qaratqich → qaralmish	qaratqich ← qaralmish ←
o‘qituvchining qalami	مداد دانشیار medod-e doneshyor
uning qog‘ozi	کاغذ او kog‘az-e u

Fors tili grammatikasida izofiy birikmadagi aniqlanmish **مضاف** **mo‘zof** va aniqlovchi **مضاف الیه** **mo‘zof-un-eleyh** deb nomlanadi. Izofa ko‘rsatkichi doimo **مضاف** **mo‘zof**dan so‘ng qo‘yiladi va **مضاف** **mo‘zof** bilan **مضاف الیه** **mo‘zof-un-eleyh** bir – biriga bog‘lanadi va shu tariqa izofiy birikma hosil qiladi. Izofiy birikmadagi so‘zlar ajralib o‘qilmay, bir butun, umumiy intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Odatda izofiy birikma bir butun sintaktik birlik hisoblanadi.

Fors tilida gap va so‘z birikmalarda so‘z tartibi qat’iydir. Izofali birikmalarda ham birinchi o‘rinda aniqlanmish yoki qaralmish, ikkinchi o‘rinda aniqlovchi yoki qaratqich kelishi qat’iy. Bu tartibning buzilishi birikma mazmunining buzilishiga olib keladi.

O‘zbek tilida aniqlovchili birikmalarda so‘z tartibi fors tilidagi aniqlovchili birikmalardagi so‘z tartibining teskarisidir. Ya’ni o‘zbek tilida aniqlovchi yoki qaratqich birinchi o‘rinda, aniqlanmish yoki qaralmish ikkinchi o‘rinda keladi. Masalan:

کتاب کهنه ketobe ko'hne

eski kitob

دیوان مشرب divone Mashrab

Mashrab devoni

O'zbek tilida ham aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich yoki qaralmish tartibini o'zgartirsak, aniqlovchi va aniqlanmish yoki qaratqich va qaralmish munosabati emas, ega va kesim munosabati hosil bo'ladi. Masalan: **chiroyli ko'cha** ---- **Ko'cha chiroyli**.

IZOFANING IMLOSI

1. Undosh bilan tugagan so'zlardan so'ng izofa **zir** belgisi orqali yozilib, **◌ e** deb talaffuz etiladi. Odatda **zir** belgisi yozuvda ifoda etilmaydi. Talaffuzda esa doimo saqlanadi. Masalan:

ساعت طلا Soat-e telo

tilla soat

زبان فارسی zabon-e forsi

fors tili

تاریخ ادبیات Torix-e adabiyot

adabiyot tarixi

"گلستان" سعدی go'leston-e Sa'di

Sa'diyning «Gulistoni»

2. **◌ e** qisqa unlisi bilan tugagan so'zlardan so'ng izofa **hamza** belgisi orqali ifoda etilib, **ye** tarzida talaffuz etiladi. **hamza** belgisi yozuvda tushib qolishi ham mumkin. Masalan:

صفحه اول safhe-ye avval

birinchi sahifa

"حمسه" نوائی hamse-ye Navoi

Navoiyning «Hamsa»si

نویسنده مشهور navisande-ye mashhur

mashhur yozuvchi

مجله نو majalle-ye no'u

yangi jurnal

خانه دوستم **xone-ye dustam** do'stimning uyi

دانشکده طب **doneshkade-ye tebb** medisina fakulteti

Cho'ziq unlilar bilan tugagan so'zlardan so'ng izofa **ی** **yo** harfi orqali ifodalanib, **ye** tarzida talaffuz etiladi. Masalan:

بوی گل **bu-ye go'l** gulning hidi

دانشجوی دانشکده **doneshju-ye doneshkade** fakultet talabasi

صدای ترکستان **Sedo-ye To'rkeston** Turkiston ovozi

E s l a t m a: **ی** **i** cho'ziq unlisi bilan tugagan so'zlarda izofa biror belgi, harakat yoki harf orqali ifoda etilmasdan faqatgina talaffuzda **ی** **i** unlisidan so'ng bir **ye** qo'shib o'qiladi. Masalan:

صندلی بزرگ **sandali-ye bo'zo'rg** katta stul

ماهی دریا **mohi-ye daryo** dengiz balio'i

IZOFALI BIRIKMA ANGLATGAN MA'NOLAR

1. Izofali birikmadagi aniqlovchi ot va kishilik olmoshlari bilan ifodalangan bo'lsa, u holda birikma aniqlanmish bildirgan narsaning ma'lum shaxsga xosligini, mansubligini bildiradi. Bu fors tilida **ملکی** **اضافه** **ezofe-ye mo'лки** deyiladi. Masalan:

کتاب پدرم **ketob-e pedaram** otamning kitobi

دیوان لاهوتی **divon-e Lohuti** Lohutiyning devoni

2. Agar aniqlanmish biror jonsiz narsaning nomini bildirs, u holda izofali birikma narsaning jinsini, turini bildiradi. Bunday izofali birikma **بیانی** **اضافه** **ezofe-ye bayoni** deyiladi. Masalan:

ساعت طلا **soat-e telo** tilla soat

راه آهنین **roh-e ohanin** temir yo'l

3. Agar aniqlanmish o‘rin, payt ma’nolarini bildiruvchi so‘zlar bilan ifodalangan bo‘lsa, u holda izofali birikma o‘rin-payt munosabatlarini bildiradi. Bu fors tilida **اضافه زمانی و مکانی ezofe-ye zamoni va makoni** deyiladi. Masalan:

هنگام صبح **hangom-e so‘bh** tong payti

بالای کوه **Bolo-ye kuh** tog‘ tepasi

4. Aniqlanmish bilan aniqlovchi birikmasi bir narsani ikkinchi narsaga o‘xshashligini bildiradi. Bunday izofali birikma **اضافه تشبیهی ezofe-ye tashbihi** deyiladi. Masalan:

لب غنچه **lab-e g‘unche** g‘uncha lab

قد سرو **qadd-e sarv** sarv qad

5. Aniqlovchi asliy yoki nisbiy sifatlar bilan ifodalansa, izofali birikma narsaning qandayligini bildiradi. Bunday birikma **ترکیب نسبی وصفی tarkib-e nesbi-ye vasfi** deyiladi. Masalan:

دیوار بلند **divor-e bo‘land** baland devor

روزنامه ادبی **ruznome-ye adabi** adabiy gazeta

6. Agar aniqlovchi tartib son bilan ifodalangan bo‘lsa, izofali birikma tartib, daraja ma’nolarini bildiradi. Bunday izofali birikma fors tilida

ترکیب عددی tarkib-e adadi deyiladi. Masalan:

کلاس چهارم **kelos-e chahoro‘m** to‘rtinchi sinf

جلد پنجم **jeld-e panjo‘m** beshinchi jild

1 – topshiriq. Quyidagi birikmalarni yod oling.

روز تعطیل	ruz-e ta'til	dam olish kuni
مرحمت شما زیاد	marhamat-e sho'mo ziyod	iltifotingiz uchun rahmat
لطف شما زیاد	lo'tf-e sho'mo ziyod	iltifotingiz uchun tashakkur
از دیدن شما خیلی ممنونم	az didan-e sho'mo xeyli mamnunam	sizni ko'ridan nihoyatda xursandman
متشکرم	mo'tashakkeram	Rahmat
بخشید	Bebaxshid	Kechirasiz
عضو حزب فداکاران	o'zv-e xezb-e fedokoron	«Fidokorlar» partiyasi a'zosi
Gaplarni izofa qoidasiga rioya qilib o'qib, izofa imlosini aniqlash. اسم شما چیست؟ اسم من جلال است. اسم خانواده‌ی شما چیست؟ اسم خانواده‌ی من رحمانوف است. خانه شما کجا واقع است. خانه ما در خیابان نوائی واقع است. خیابان نوائی کجا واقع است؟ خیابان نوائی در مرکز شهر واقع است. دل‌مراد کیست؟ دل‌مراد دوست من است. دل‌مراد کیست؟ او دانشجو است. دل‌مراد دانشجوی کدام دانشکده است؟ او دانشجوی دانشکده فیلولوژی است. برادر بزرگ شما دانشجوی کدام دانشکده است؟ برادر بزرگ من دانشجوی دانشکده فیلولوژی است. من دانشجوی دانشکده روزنامه‌نگاری بین‌المللی هستم.		
2 – topshiriq. Quyidagi birikmalarni izofa imlosiga rioya qilgan holda arab-fors alifbosida yozing. Doneshkade-ye ruznomenegori, doneshgoh-e zabon-e xoreji, ketob-e man, doneshju-ye doneshkade, navisande-ye mashhur, dars-e panjo'm, dars-e zabon-e englisi, hamse-ye navoi, doneshkade-ye tebb, do'ste man, torix-e o'zbekiston, medod-e siyoh, esm-e xohar-e man, doneshyor-e mo, emorat-e bo'land, ketob-e xub, boo'-e esterohat, xiyobon-e sho'mo, meydon-e varzesh, divor-e sefid, sib-e so'rx.		
3 -Topshiriq. Gaplarni fors tiliga tarjima qiling. Izofiy barikma va izofiy zanjirni aniqlang.		

Bu kishi kim? Bu kishi mening do'stim. Bu qiz o'rtog'imning singlisi. Bu yigit universitet talabasidir. Universitet binosi juda chiroylidir. Bizning auditoriya katta va yorug'. Sizning kitobingiz qaerda? Mening kitobim stolning ustida. Bu qalam qaysi rangda? Sizning do'stingiz qaerda? Mening do'stim Samarqand shahrida. Bu bino jurnalistika fakulteti binosidir. Matematika fakulteti qaerda joylashgan? Siz kimsiz? Men vrachman. Bu chet tillar universitetimi? Sizning kasbingiz nima? Men ishchiman. Uning ismi nima? Uning ismi Fotima. Siz qaerda o'qiysiz? Men tibbiyot institutida o'qiyman. Akam tarix fakultetida o'qiydi. Do'stimning akasi injener. Bizning universitet Bobur parki yonida joylashgan. Fakultet talabalari Buxoro shahriga ketdilar.

FORS TILIDA IZOFA ZANJIRI

Fors tilida uchtdan kam bo'lmagan aniqlovchilar bir-biri bilan izofa orqali bog'lanib ma'lum bir aniqlanmishni aniqlab kelsa izofiy birikmaning bunday ko'rinishlariga **izofa zanjiri** deyiladi. Masalan:

من دانشجوی سال دوم دانشکده فیلولوژی دانشگاه پداگوژی دولتی تاشکند بنام
نظامی هستم.

**Man doneshju-ye sol-e do'vvo'm-e doneshkade-ye filo'luji-ye doneshgoh-e
pedogo'ji-ye do'o'lati-ye Toshkand be nom-e Nezomi hastam.**

Men Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti filologiya fakulteti ikkinchi kurs talabasiman.

نویسنده بزرگ ایران

navisande-ye bo'zo'rg-e iron

eronning buyuk yozuvchisi

Izofiy zanjirda aniqlovchi so'zlar bir-birini aniqlab, izohlab va ma'nosini to'ldirib keladilar hamda o'zaro izofa ko'rsatkichi orqali bog'lanadilar. Masalan:

دانشجوی سال اول

doneshju-ye sol-e avval

birinchi kurs talabasi

دانشجوی سال اول دانشکده تاریخ

Doneshju-ye sol-e avval-e doneshkade-ye torix

Tarix fakultetining birinchi kurs talabasi

Aniqlovchi bilan aniqlanmish soʻzlar bir-birlari bilan izofa koʻrsatkichi orqali zanjir kabi bogʻlanib ketadilar va bir butun izofiy birikmani hosil qiladilar. Izofiy zanjirdagi hamma soʻzlar (**oxirgi soʻzdan tashqari**) izofa koʻrsatkichini olgan boʻladi. Birikmadagi oxirgi aniqlovchi esa har doim izofa qabul qilmaydi, yaʼni izofalar soni har doim aniqlovchilar sonidan bitta kam boʻladi.

Izofa zanjirida qatʼiy soʻz tartibi mavjud. Bu tartibning buzilishi soʻz birikmasidagi mazmunning oʻzgarishiga sabab boʻladi.

Agar birikmada kishilik olmoshlaridan biri boʻlsa, ishtirok etayotgan **kishilik olmoshi doimo birikma oxiriga qoʻyiladi**. Masalan:

کتاب زبان فارسی دانشیار ما

ketob-e zabon-e forsi-ye doneshyor-e mo

oʻqituvchimizning fors tili kitobi

کارمندان علمی انستیتوی تاریخ

kormandon-e elmi-ye anstitu-ye torix

Tarix institutining ilmiy xodimlari

« *Blits* » oʻyini

Talabalarning mavzuni tushunganligini tekshirish uchun va olgan bilimlarini mustahkamlash uchun “blits” oʻyini usulidan foydalaniladi.

Talabalarning har biriga shu kungacha oʻtilgan mavzularga doir 15 ta jumlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. « Menimcha toʻgʻri topdim » nomli blits oʻyinida har bir talaba « Fors izofasi va uning zanjiri »

mavzusiga tegishli jummalarni topishi va to'g'risiga belgilashi kerak bo'ladi. Bu o'yinga 10 minut vaqt ajratiladi. O'yinning shartiga ko'ra 3 ta to'g'ri topilgan javob uchun bir ball qo'yiladi. Hamma savolga to'g'ri javob bergan student 5 ball to'playdi. Keyin kartochkalar yig'ib olinadi va oqituvchi to'g'ri javobni aytadi. Shundan so'ng student yiqqan ballini bilib oladi.

Uyga vazifa: Berilgan 1 va 2 topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Quyidagi jummalarni va izofiy birikmalarni fors tiliga tarjima qiling va yodlang.

Tarix fakultetining binosi qaysi ko'chada joylashgan? Tarix fakultetining binosi Bobur ko'chasida joylashgan. U Xalqaro jurnalistika fakultetining ikkinchi kurs talabasi. U o'zbek tili va adabiyoti fakultetining uchinchi kurs talabasi. Toshkent shahri - O'zbekiston respublikasining poytaxti. Uning kitobi mening stolim ustida. O'qituvchining fors tili kitobi. Toshkent shahri O'zbekistonning chiroyli shaharlaridan biridir. Tehron shahri Eron mamlakatining poytaxtidir. O'zbekistonda ko'p miqdorda nashriyotlar, institutlar, maktablar va kutubxonalar bor. Navoiy teatrining binosi juda chiroyli. Iqtisodiyot universitetining binosi juda baland. Turkiston saroyi Navoiy ko'chasida joylashgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining sharqshunoslik institutida qo'lyozmalar ko'p. Bizning kutubxonamizda forsha, arabcha, inglizcha, fransuzcha, nemischa va ruscha lug'atlar bor.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tilshunoslik instituti, Eron mamlakatining asosiy qishloq xo'jalik mahsuloti, O'zbekiston respublikasining qishloq xo'jaligi, O'zbekiston yoshlari, madaniyat saroyi, sharq fakultetining talabalari, san'at va adabiyot bayrami, bolalar sport maydonchasi, O'zbekistonning oliy o'quv yurtlari, shahrimizning go'zal ko'chalaridan biri, fakultetimiz talaba yoshlari, Umar Hayyom ruboiylari, o'zbek tili va adabiyoti fakultetining talabalari, xalqaro jurnalistika fakultetining ikkinchi kurs talabalari, Ommaviy axborot vositalari.

2-topshiriq. Quyidagi izofiy birikmalarni yod oling.

دانشجوی دانشکده خبرنگاری

Doneshju-ye doneshkade-ye xabarnegori

jurnalistika fakulteti talabasi

دانشجوی سال اول دانشکده روزنامه نگاری بین المللی

doneshju-ye sol-e avval-e doneshkade-ye ruznomenegori-ye beyno'lmelali

xalqaro jurnalistika fakultetining birinchi kurs talabasi

فرنگستان علوم ازبکستان

farhangeston-e o'lum-e o'zbakeston

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi

نشریات روزنامه " ترکستان "

nashriyot-e ruznome-ye to'rkeston

«Turkiston» gazetasining nashriyoti

خبرگزاری ملی ازبکستان

xabargo'zori-ye melli-ye o'zbakeston

O'zbekiston milliy axborot agentligi

موزه تاریخ دوران تیموریان

muze-ye torix-e do'uron-e temuriyon

Temuriylar davri tarixi muzeyi

O`NINCHI DARS

Mavzu: Otlarda son kategoriyasi (otlarda ko`plik).

Maqsad: Fors tilida ko'plikning yasalishi va ularni qo'llanishini o'rgatish.

Darsning borishi: Tashkiliy qism (5 min.)

Uy vazifasini tekshirish O'tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

Yangi tema: (30 min.)

Baholash: (20 min.)

Uyga vazifa: (5 min.)

Mavzu: *Otlarda son kategoriyasi.*

Davomat tekshirilgach, uyga berilgan izofa va izofiy zanjir mavzusi va mashqlar tekshiriladi. So'ng yangi mavzu o'tiladi.

Yangi tema: OTLARDA SON KATEGORIYASI

Fors tilida ham otlar xuddi o'zbek tilidagidek ikki son shaklida bo'ladi:

1. Birlik shakli.

2. Ko'plik shakli.

Otlarning ko'plik shakli ularning birlik shakliga **ها** - **ho** va **آن** -**on** qo'shimchalarini qo'shish bilan yasaladi. Bulardan **ها** - **ho** qo'shimchasi odatda jonsiz predmetlarni bildiruvchi otlarga, **آن** - **on** esa jonli predmetlarni bildiruvchi otlarga qo'shiladi. Masalan:

ها - **ho** qo'shimchasi bilan:

مجله	Majalle	Jurnal
مجله ها	Majalleho	Jurnallar
روزنامه	Ruznome	Sazeta
روزنامه ها	Ruznomeho	Sazetalar
شهر	Shahr	Shahar
شهرها	Shahrho	Shaharlar
صندلی	Sandali	Stul
صندلیها	Sandaliho	Stullar

آن - on qo'shimchasi bilan:

do'xtar	دختر	Qiz
do'xtaron	دختران	Qizlar
Korgar	کارگر	Ishchi
Korgaron	کارگران	Ishchilar
Dehqon	دهقان	Dehqon
Dehqonon	دهقانان	Dehqonlar
Gusfand	گوسفند	qo'y
Gusfandon	گوسفندان	qo'ylar

آن-on ko'plik qo'shimchasi juftlikni anglatuvchi inson a'zosi nomlariga ham qo'shib ulardan ko'plik yasashi mumkin. Masalan:

Cheshm	چشم	ko'z
Cheshmon	چشمان	ko'zlar
Lab	لب	Lab
Labon	لبان	Lablar

Hozirgi fors tilida آن - on qo'shimchasi o'rnida ها - ho ko'plik qo'shimchasi ko'proq ishlatilmoqda. Natijada, ها - ho ko'plik qo'shimchasi آن - on qo'shimchasi bilan bir qatorda jonli predmetlarga ham qo'shib, ulardan ko'plik yasamoqda. Masalan:

do'xtaron	دختران	
do'xtarho	دخترها	Qizlar

مردان **Mardon**

مردھا **Mardho**

Kishilar

گوسفندان **Gusfandon**

گوسفندھا **Gusfandho**

qo'ylar

Lekin hozirgi fors tilida ikkala ko'plik ham barobar qo'llaniladi. Shu bilan birga ba'zi so'zlarda ko'plik qo'shimchasi **آن** - **on** o'rniga **ھا** - **ho** qo'shimchasini ishlatish natijasida so'zning ma'nosi butunlay o'zgarib ketishi mumkin. Masalan:

سر **Sar**

Bosh

سران **Saron**

Boshliqlar

سرھا **Sarho**

Boshlar

آن -ON KO'PLIK QO'SHIMCHASINING IMLOSI

1. Birlik formadagi so'z **ا o**, **و u**, **ی i** cho'ziq unlilardan biriga tugallangan bo'lsa, son qo'shimchasi **آن** - **on** oldidan bir **ی y** orttirilib, **یان -yon** shaklida yoziladi. Masalan:

دانشجو **Doneshju**

Talaba

دانا **Dono**

Donishmand

ایرانی **Ironi**

Eronlik

دانشجویان **Doneshjuyon**

Talabalar

دانایان **Donoyon**

Donishmandlar

ایرانی یان **Ironiyan**

Eronliklar

2. Birlik formadagi soʻz **ه e** qisqa unlisi bilan tugagan boʻlsa, son qoʻshimchasi **آن -on** oldidan bir **گ g** orttirilib, **گان -gon** shaklida qoʻshiladi. Yozuvda esa **ه e** harfi tushib qoladi. Masalan:

نویسنده	Navisande	Yozuvchi
نماینده	Namoyande	Namoyanda
بچه	Bache	Bola
تشنه	Tashne	tashna, chanqagan
نویسندگان	navisandegon	Yozuvchilar
نمایندگان	namoyandegon	Namoyandalar
بچگان	Bachegon	Bolalar
تشنگان	Tashnegon	tashnalar, chanqaganlar

3. Choʻziq **u** tovushi bilan tugagan baʼzi soʻzlarga **آن -on** koʻplik qoʻshimchasi qoʻshilganda, **و u** tovushi **و oʻv** kabi talaffuz qilinadi. Masalan:

ابرو	Abru	Qosh
ابروان	abroʻvon	Qoshlar
بانو	Bonu	Xonim
بانوان	bonoʻvon	Xonimlar
بازو	Bozu	Bilak
بازوان	bozoʻvon	Bilaklar

Otlardan koʻplik yasash uchun fors tilida **ان -on** va **ها -ho** affikslaridan tashqari, arab tilidan kirib kelgan koʻplik affikslari yordamida hosil qilinuvchi «**toʻgʻri koʻplik**», hamda «**siniq koʻplik**» deb ataluvchi maxsus koʻplik shakllari ham mavjuddir.

Fors tilidagi arab ko‘plik affikslari asosan arab tilidan kirib kelgan so‘zlarga qo‘shiladi va ulardan ko‘plik hosil qiladi. Bu affikslar quyidagilar:

1) **ين -in** ko‘plik qo‘shimchasi shaxs nomini bildiruvchi arab so‘zlaridan ko‘plik yasaydi. Masalan:

منقذ	mo‘naqqed	Tanqidchi
منقدين	mo‘naqqedin	Tanqidchilar
متخصص	mo‘taxasses	Mutaxassis
متخصصين	mo‘taxassesin	Mutaxassislar
مالک	Molek	Mulkdor
مالکين	Molekin	Mulkdorlar
سایر	Soyer	Boshqa
سایرين	Soyerin	Boshqalar

2) **ون -un (-yun)** ko‘plik qo‘shimchasi **ی i** unlisi bilan tugagan shaxs nomini bildiruvchi ba’zi arab so‘zlaridan ko‘plik yasaydi. Bu affiks fors tilida juda kam uchraydi. Masalan:

روحانی	Ruhoni	Ruhoniy
روحانیون	Ruhoniyun	Ruhoniylar
اعتصابی	e’tesobi	ish tashlovchi
اعتصابیون	e’tesobiyun	ish tashlovchilar

3) **ات -ot** ko‘plik qo‘shimchasi ancha mahsuldor bo‘lib, arab so‘zlaridan ko‘plik yasaydi. Masalan:

حيوان	Heyvon	Hayvon
حيوانات	Heyvonot	Hayvonlar

تعليم	ta'lim	ta'lim
تعليمات	ta'limot	ta'limlar
اطلاع	ettelo'	xabar, ma'lumot
اطلاعات	ettelo'ot	xabarlar, ma'lumotlar

Agar soʻz **ه e** yoki **ت at** bilan tugagan boʻlsa, **-ot** koʻplik qoʻshimchasi bevosita soʻz oʻzagiga qoʻshilib, soʻz oxiridagi **ه e** yoki **ت at** tushib qoladi. Masalan:

مجله	Majalle	Jurnal
مجلات	Majallot	Jurnallar
اداره	Edore	Idora
ادارات	Edorot	Idoralar
مقاله	Maqole	Maqola
مقالات	Maqolot	Maqolalar

-ot koʻplik qoʻshimchasi baʼzi bir fors soʻzlaridan ham koʻplik hosil qiladi. Masalan:

باغ	bogʻ	bogʻ
باغات	bogʻot	bogʻlar
ده	Deh	Qishloq
دهات	Dehot	Qishloqlar

-ot koʻplik **ات** bilan tugagan baʼzi fors soʻzlariga **ه e** yoki **ی i** unlisi qoʻshimchasi ning fonetik varianti boʻlmish **جات** **-jot** qoʻshimchasini qoʻshish orqali koʻplik hosil qilinadi. Bu holda soʻz oxiridagi **ه e** yozuvda tushib qoladi. Masalan:

میوه	Mive	Meva
------	------	------

میوجات	Mivejot	Mevalar
کارخانه	Korxone	Korxona
کارخانجات	Korxonejot	Korxonalar
روزنامه	Ruznome	Gazeta
روزنامجات	Ruznomejot	Gazetalar
سبز	Sabz	ko‘kat
سبزجات	Sabzejot	ko‘katlar

4) Fors tilida arab ko‘plik affikslaridan tashqari, ko‘p miqdorda arab «**siniq ko‘plik**» formalari ham mavjuddir. So‘zning o‘zagini tashkil etuvchi undoshlar orasidagi unlilarning o‘zgarishi, nog‘zak undoshlarning kirishi, umuman, so‘z ichki tarkibining o‘zgarishi natijasida hosil bo‘luvchi ko‘plik **siniq ko‘plik** deyiladi. Bu yo‘l bilan yasalgan ko‘plik shakldagi so‘zlar fors tiliga tayyor holda, o‘zlarining ko‘plik shakllarida kirib kelgan. Arab siniq ko‘plik shakllarining yasalishi birmuncha murakkab bo‘lgani uchun, odatda luo‘at va darsliklarda so‘zning birlik formasi bilan bir qatorda, uning ko‘plik shakli ham beriladi.

Yuqorida aytganimizdek, siniq ko‘plikning shakllanishida ma’lum qonuniyat yo‘q. Shu sababli har bir so‘z o‘zining ko‘plik vazni bilan birga o‘rganilgani maqsadga muvofiqdir. Masalan:

مفرد		جمع		Tarjimasi
رفیق	rafiq	رفقا	ro‘faqo	O‘rtoqlar
وزیر	vazir	وزرا	vo‘zaro	Vazirlar
شاعر	Sho‘er	شعرا	sho‘‘aro	Shoirlar
ادیب	adib	ادبا	o‘dabo	adabiyotchilar
شخص	shaxs	اشخاص	ashxos	Shaxslar

شعر	She'r	اشعار	ash'or	she'rlar
مرکز	markaz	مراکز	marokaz	markazlar
وسیله	vasile	وسایل	vasoyel	vositalar
علم	'elm	علوم	'o'lum	ilmlar, fanlar
فن	fan	فنون	fo'nun	Fanlar
رجل	rajo'l	رجال	rejol	Kishilar
دولت	do'ulat	دول	do'val	davlatlar
ملت	mellat	ملل	melal	millatlar
جمهوری	jo'mhuri	جماہیر	jamohir	respublikalar
کتاب	ketob	کتب	ko'to'b	Kitoblar
رسم	rasm	رسوم	ro'sum	Rasmlar
اثر	asar	اثار	osor	Asarlar
وقت	vaqt	اوقات	avqot	Vaqtlar
عالم	olem	علما	o'lamo	Olimlar
نهر	nahr	انهار	anhor	daryolar

همه HAME OLMOSHI HAQIDA

Fors tilida همه hame olmoshi gapda izofa bilan va izofasiz o'qilishi mumkin. Agar همه hame olmoshidan keyin kelgan so'z ko'plik shaklida bo'lsa, همه hame izofa bilan birlik shaklida bo'lsa, izofasiz o'qiladi. Masalan:

همه دانشجویان
hame-ye doneshjuyon
hamma talabalar

همه ثروت‌های کشور	
hame-ye sarvatho-ye keshvar	
mamlakatning hamma boyliklari	
همه جا	
hame jo	
hamma yer	
1 – topshiriq. Quyidagi soʻzlarning koʻplik shaklini yasang.	
Dar	Eshik
Pezeshk	Vrach
joʻmhuri	Respublika
Doneshkade	Fakultet
Afsar	Ofitser
Navisande	Yozuvchi
Nome	Maktub
Xiyobon	koʻcha
Oshno	Tanish
Shahri	Shaharlik
Uyga vazifa: quyidagi matnni yozing, matnni oʻqib tarjima qiling izofiy birikma, izofiy zanjir va koʻplikni ifodalangan jummalarni aniqlang, yangi soʻzlar lugʻatini yodlang.	
ازبکستان کشور ماست.	
جمهوری ازبکستان کشور ما است. جمهوری ازبکستان یکی از جمهوری‌های بزرگ آسیای میانه است. جمهوری ازبکستان در	

مرکز آسیای مرکزی واقع است. در آسیای مرکزی غیر از ازبکستان جمهوری های قزاقستان، قرغزستان، تاجکستان، ترکمنستان، افغانستان واقع است و همه آنها همسایه های جمهوری ما است. در جمهوری ازبکستان روستاها و شهرها خیلی زیاد است. تاشکند، سمرقند، بخارا، خیوه و قوقان شهرهای بزرگ جمهوری ازبکستان است. رودخانه های آمودریا و سیردریا و دریای آرال در شمال جمهوری ازبکستان واقع است. آب و هوای جمهوری ازبکستان گرم و خشک است. مردم جمهوری ازبکستان خیلی زحمتکش و مهماندوست هستند. کارگران و دهقانان جمهوری ما با کارهای گوناگون مشغولند. عمده ترین محصولات کشاورزی جمهوری ما پنبه است. همه ثروتهای کشور برای مردم است.

شهر تاشکند پایتخت جمهوری ازبکستان است. این شهر در شمال شرق کشور واقع است. تاشکند شهر خیلی بزرگ و زیبا است. شهر تاشکند از یازده ناحیه عبارت است. جمعیت شهر تاشکند در حدود دو میلیون نفر است. شهر تاشکند مرکز سیاسی، اقتصادی، اداری و فرهنگی جمهوری ازبکستان است. در تاشکند بناهای جدید و مدرن، خیابانهای وسیع و زیبا بسیار است. مثلا بازارهای نو، کاخ ها، موزه ها، هتل ها، و غیره از این جمله است. متروی شهر تاشکند خیلی زیبا و بزرگ است. ایستگاه های مترو خیلی قشنگ است. در شهر تاشکند کارخانه ها، آموزشگاه های عالی و متوسطه، فرهنگستان علوم ازبکستان، دانشگاه های دولتی، دبیرستانها، نشریاتهای گوناگون، تاترها، سینماها و پارک ها زیاد است.

یکی از خیابانهای قشنگ تاشکند خیابان نوائی است. اداره

های نشریات، ورزشگاه پخته کار، کاخ هنر و سایر بنگاه های علمی و فنی در این خیابان واقع است.

مرکز شهر تاشکند میدان امیر تیمور است. در وسط میدان مجسمه امیر تیمور هست. در آنجا درختان بلند و پرسایه هست. در این میدان یکی از ایستگاه های مترو هم واقع است. در اطراف میدان امیر تیمور ساعت برج تاشکند، بناهای شهرداری، خبرگزاری ملی ازبکستان، اداره های بانکها، موزه تاریخ دوران تیموریان، دانشگاه حقوق و چند رستوران و کافه واقع است.

کلمات

ob-o' havo	آب و هوا	ob-havo
edore-ye nashriyot	اداره نشریات	nashriyot idorasi
Edori	اداری	Boshqaruv
Osiyo-ye miyone	آسیای میانه	O'rta Osiyo
Eqtesodi	اقتصادی	Iqtisodiy
Istgoh	ایستگاه	Bekat
Bonk	بانک	Bank
Baroye	برای	uchun, - ga
bo'land	بلند	Baland
Banoho-ye shahrdori	بناهای شهرداری	shahar hokimiyati b
bo'ngohho-ye elmi va fani	بنگاه های علمی و فنی	ilm-fan muassasalar
Pork	پارک	Park

پایتخت	Poytaxt	Poytaxt
پرسایه	po‘rsoye	Sersoya
تاتر	Teotr	Teatr
ثروت	Sarvat	Boylik
جدید	Jadid	Yangi
جمهوری	jo‘mhuri	Respublika
جمعیت	jam‘iyat	aholi, jamiyat
خبرگزاری ملی	xabargo‘zori-ye melli	milliy axborot agentligi
خیابان	Xiyobon	ko‘cha, shox ko‘cha
دانشکده حقوق	Doneshkade-ye ho‘quq	huquq fakulteti
درخت	Deraxt	Daraxt
دریا	Daryo	Dengiz
دهقان	Dehqon	Dehqon
رستوران	Resturon	Restoran
رودخانه	Rudxone	Daryo
روستا	Rusto	Qishloq
زحمتکش	Zahmatkash	Zaxmatkash
زیاد	Ziyod	ko‘p, ziyod
ساعت برج	soat-e bo‘rj	minora soati
سایر	Soyer	boshqa, bo‘lak
سیاسی	Siyosi	Siyosiy
سینما	Sinemo	kinoteatr, kino

eborat ast	عبارت است	Iboratdir
g'ayr az	غیر از	-dan tashqari, -dan boshqa
farhangeston-e o'lum	فرهنگستان علوم	fanlar akademiyasi
Farhangi	فرهنگی	Madaniy
garm-o' xo'shk	گرم و خشک	mo'tadil
Gunogun	گوناگون	turli, har xil
Metru	مترو	Metro
mo'jassame	مجسمه	Haykal
mo'dern	مدرن	Zamonaviy
mardo'm	مردم	xalq, odamlar
mehmondust	مهماندوست	mehmondo'st
Muze	موزه	Muzey
muze-ye torix-e do'uron-e Timuriyon	موزه تاریخ دوران تیموریان	Temuriylar davri tarixi muzeyi
Meydon	میدان	Maydon
Nohiye	ناحیه	nohiya, tuman
ho'tel	هتل	Mehmonxona
Hamsoye	همسایه	qo'shni
voqe' ast	واقع است	Joylashgan
varzeshgoh-e paxtekor	ورزشگاه پخته کار	"Paxtakor" stadioni
Vasat	وسط	o'rta

واسيع	vasi'	Keng
كاخ	Kox	saroy, madaniyat uyi
كاخ هنر	kox-e ho'nar	san'at saroyi
كارخانه	Korxone	Fabrika
كافه	Kofe	Kafe
کشور	Keshvar	Mamlakat
يازده	Yozdah	o'n bir
يكي از	yeki az	-dan biri

O`N BIRINCHI DARS

Mavzu: *Miqdor va tartib sonlar.*

Maqsad: Fors tilida miqdor va tartib sonlar hosil bo'lishi o'g'atish.

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism (5 min.)

Uy vazifasini tekshirish O'tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

Yangi tema: (30 min.)

Baholash: (20 min.)

Davomat tekshirilgach, uyga berilgan vazifa tekshiriladi. So'ng yangi mavzu o'tiladi.

Yangi mavzu: ***Fors tilida miqdor va tartib sonlar.***

Raqamlar (arab. رقم – son, nomer)—sonlar ifodalanadigan shartli belgilar. Eng qadimda sonlar so'zlar orqali ifodalangan. Xalqlarning ijtimoiy-xo'jalik hayoti rivojlanishi bilan mukammalroq belgilarga va hisoblash sistemalarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'ildi.

Arab raqamlari – o'nta matematik belgi: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9. Bu raqamlar bilan istalgan katta yoki kichik sonni yozish mumkin. Yozuvda sonlar so'zlar va raqamlar bilan ifoda etilishi mumkin. Harflar bilan yozilgan sonlar o'ngdan chapga qarab yozib boriladi va o'qiladi.

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalansa sonlar chapdan o'ngga qarab yoziladi va o'qiladi. Raqamlarni yozish jarayonida avval ko'pliklarni va oxirida birliklarni

keltirish bilan ifoda qilinadi. Masalan:

1997 tarzidagi raqamlar xuddi shunday, ya'ni ۱۹۹۷ tarzida yoziladi.

1 DAN 10 GACHA BO'LGAN MIQDOR SONLAR

۰	سفر Sefr	Nol
۱	یک Yak	Bir
۲	دو do'	Ikki
۳	سه Se	Uch
۴	چهار Chahor	to'rt
۵	پنج Panj	Besh
۶	شش Shesh	Olti
۷	هفت Haft	Etti
۸	هشت Hasht	Sakkiz
۹	نه no'h	to'qqiz
۱۰	ده Dah	o'n

11 DAN 20 GACHA BO'LGAN MIQDOR SONLAR

Fors tilidagi 11 dan 20 gacha bo'lgan miqdor sonlarning yasallishiga ahamiyat beradigan bo'lsak, ushbu sonlardagi o'nliklar va birliklar o'zni almashgani, hamda, birlik shakldagi miqdor sonlar o'zining asliy nomlanishidan keskin farq qilishini ko'ramiz. Shu sababli fors tilidagi 11 dan 20 gacha bo'lgan miqdor sonlar **o'zgarishga uchragan sonlar** deb ataladi.

۱۱	یازده Yozdah	o'n bir
۱۲	دوازده Davozdah	o'n ikki
۱۳	سیزده Sizdah	o'n uch
۱۴	چهارده Chahordah	o'n to'rt
۱۵	پانزده Ponzdah	o'n besh
۱۶	شانزده Shonzdah	o'n olti
۱۷	هفده Hefdah	o'n etti
۱۸	هجده Hejdah	o'n sakkiz
۱۹	نوزده Nuzdah	o'n to'qqiz
۲۰	بیست Bist	Yigirma

O'NLIK SONLAR

۱۰	ده	Dah	o'n
۲۰	بیست	Bist	Yigirma
۳۰	سی	Si	o'ttiz
۴۰	چهل	Chehl	Qirq
۵۰	پنجاه	Penjoh	Ellik
۶۰	شصت	Shast	Oltmish
۷۰	هفتاد	Haftod	Etmish
۸۰	هشتاد	Hashtod	Sakson
۹۰	نود	Navad	to'qson
۱۰۰	صد	Sad	Yuz

YUZLIK SONLAR

۱۰۰	صد	Sad	Yuz
۲۰۰	دویست	Devist	ikki yuz
۳۰۰	سیصد	Sisad	uch yuz
۴۰۰	چهارصد	Chahorsad	to'rt yuz
۵۰۰	پانصد	Ponsad	besht yuz
۶۰۰	ششصد	Sheshsad	olti yuz
۷۰۰	هفتصد	Haftsad	etti yuz
۸۰۰	هشتصد	Hashtsad	sakkiz yuz
۹۰۰	نه صد	no'hsad	to'qqiz yuz

MINGLIK VA MILLIONLIK SONLAR

۱۰۰۰	هزار	Hezor	Ming
۲۰۰۰	دو هزار	do' hezor	ikki ming
۷۰۰۰	هفت هزار	haft hezor	etti ming
۸۰۰۰	هشت هزار	hasht hezor	sakkiz ming
۱۰۰۰۰	ده هزار	dah hezor	o'n ming
۵۰۰۰۰	پنجاه هزار	Panjoh hezor	ellik ming
۶۰۰۰۰	شصت هزار	shast hezor	oltmish ming
۷۰۰۰۰	هفتاد هزار	haftod hezor	etmish ming
۸۰۰۰۰	هشتاد هزار	hashtod hezor	sakson ming
۹۰۰۰۰	نود هزار	navad hezor	to'qson ming
۱۰۰۰۰۰۰	یک میلیون	yek melyun	Million

Yigirmadan yuqori bo'lgan barcha miqdor sonlar (**o'nliklar, yuzliklar,**

mingliklar va boshqa sonlar) bir-birlari bilan **ۋ** va bog'lovchisi orqali boo'lanib, murakkab son hosil qiladi. Boo'lovchi talaffuzda o'z oldidagi songa qo'shilib, **o'** tarzida talaffuz qilinadi va yozuvda esa ajralgan holda yoziladi. Masalan:

چهل و چهار

chehel-o' chahor

qirq to'rt

سیصد و بیست و پنج

Sisad-o' bist-o' panj

uch yuz yigirma besh

چهار هزار و دویست و پنجاه و شش

chahor hezor-o' devist-o' panjoh-o' shesh

to'rt ming ikki yuz ellik olti

Fors tilida sonlar so'zlar bilan ifodalansa **o'ngdan chapga tomon yoziladi va o'qiladi**. Masalan:

پنج هزار و دویست و شصت و شش

panj hezor-o' devist-o' shast-o' shesh

besh ming ikki yuz oltmish olti

Agarda sonlar raqamlar bilan ifodalanadigan bo'lsa, **o'zbek tilidagidek chapdan o'nga qarab yoziladi va o'qiladi**. Masalan :

142 - ۱۴۲, 597- ۵۹۷, 10786- ۱۰۷۸۶, 2005648- ۲۰۰۵۶۴۸,

Murakkab son tarkibidagi son mustaqil urg'u oladi.

TARTIB SONLAR

اعداد ترتیبی a'dod-e tartibi

Fors tilida ham xuddi o'zbek tilidagidek tartib sonlar mavjud bo'lib, ular predmetlarning tartibini bildiradi va miqdor sonlarga tegishli qo'shimchalar qo'shish orqali tartib sonlar yasaladi. Tartib son yasovchi qo'shimchalar quyidagilar:

1. Sanoq sonlar oxiriga **o'm** qo'shimchasi qo'shish orqali. Masalan:

پنج Panj	Besh
پنجم panjo'm	Beshinchi
هشت Hasht	Sakkiz
هشتم Hashto'm	Sakkizinchi
ده Dah	o'n
دهم daho'm	o'ninchi

Fors tilidagi **do', se, si** miqdor sonlaridan tartib sonlar yasalganda, ba'zi fonetik o'zgarishlar yuz beradi. Masalan:

دو do'	ikki
دوم do'vvo'm	ikkinchi
سه Se	uch
سوم sevvo'm	uchinchi
سی Si	o'ttiz

2. Sanoq sonlar oxiriga **مين** - **o‘min** qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasaladi. qo‘shimchasi **م** - **o‘mga** nisbatan kam ishlatilib, asosan adabiy tilda uchraydi. Masalan:

چهار Chahor	to‘rt
چهارمين chahoro‘min	to‘rtinchi
شش Shesh	olti
ششمين Shesho‘min	Oltinchi
چهل Chehel	Qirq
چهلمين chehelo‘min	Qirqinchi

3. Fors tilida **يکم** yeko‘m – birinchi tartib soni bilan bir qatorda shu sonning arabcha formasi **اول** avval ko‘p qo‘llanadi. Masalan:

درس يکم dars-e yeko‘m	birinchi dars
درس اول dars-e avval	birinchi dars
استاد يکم o‘stod-e yeko‘m	birinchi muallim
استاد اول o‘stod-e avval	birinchi muallim
تمرين يکم Tamrin-e yeko‘m	birinchi mashq
تمرين اول Tamrin-e avval	birinchi mashq

Shu bilan birga, fors tilida boshqa arab tartib sonlari ham uchraydi: **ثانی** soni – ikkinchi, **ثالث** so‘ls – uchinchi va hokazo.

Murakkab sonlarda **o‘m** - م va **o‘min** - مین qo‘shimchalari sonning oxirigi qismiga qo‘shiladi. Masalan:

صد و بیست و پنجمین

sad-o‘ bist-o‘ panjo‘min

bir yuz yigirma beshinchi

دو هزار و نهصد و هفتاد و پنجم

do‘ hezor-o‘ no‘hsad-o‘ panjo‘m

Ikki ming to‘qqiz yuz etmish beshinchi

O‘M VA مین -O‘MIN QO‘SHIMCHALARI YORDAMI BILAN YASALGAN TARTIB SONLARNING SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

1. **o‘m** - م qo‘shimchasi yordamida yasalgan tartib sonlar sintaktik xususiyati jihatidan, o‘zbek tilidagi singari, sifatlarga yaqin turadi va gapda aniqllovchi vazifasini bajarib, o‘zidan oldingi so‘z bilan izofa orqali bog‘lanadi. Masalan:

درس نهم	dars-e no‘ho‘m	to‘qqizinchi dars
روز چهارم	ruz-e chahoro‘m	to‘rtinchi kun
طبقه هفتم	Tabaqe-ye hafto‘m	ettinchi qavat
سال دوم	sol-e do‘vvo‘m	ikkinchi yil

2. **o‘min** - مین qo‘shimchasi bilan tartib sonlar ham gapda aniqllovchi vazifasini bajarib keladi. Lekin bu tartib sonlar o‘zi aniqlaydigan so‘zdan oldin kelib, u bilan izofa orqali emas, balki oddiy bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi Masalan:

چهاردهمین سالکرد استقلال جمهوری ازبکستان

chahordaho‘min solgard-e esteqlol-e jo‘mhuri-ye O‘zbekiston

O‘zbekiston respublikasi mustaqilligining 14 yilligi

سال دو هزار و ششم

sol-e do‘ hezor-o‘ shesho‘m.

Ikki ming oltinchi yil.

دو هزار و ششمین سال

do‘ hezor-o‘ shesho‘min sol.

Ikki ming oltinchi yil.

مين -o‘min qo‘shimchasi bilan yasalgan tartib son dan so‘ng vaqtni bildiruvchi **سال sol** (yil) so‘zi kelgan paytda, ikkala so‘z birikib, biror voqea yoki hodisaning bo‘lib o‘tganiga ma’lum vaqt bo‘lganligini ham bildirishi mumkin. Masalan:

زنده باد چهاردهمین سال استقلال ازبکستان!

zende bod chahordaho‘min sol-e esteqlol-e O‘zbekiston!

Yashasin O‘zbekiston mustaqilligining 14 yilligi!

FORS TILIDA YIL, OY VA KUNLARNING IFODALANISHI

1. Yilni ifodalash uchun **sol** so‘zi yil miqdorini ko‘rsatuvchi son oldiga qo‘yilib, o‘zaro izofa orqali bog‘lanadi. Masalan:

سال هزار و نهصد و هفتاد و شش

sol-e hezor-o‘ no‘hsad-o‘ haftod-o‘ shesh

Bir ming to‘qqiz yuz etmish oltinchi yil

سال دو هزار و صد و بیست و پنج

sol-e hezor-o‘ sad-o‘ bist-o‘ panj.

Ikki ming bir yuz yigirma beshinchi yil

O‘zbek tilida yil miqdorini bildirgan so‘z tartib son shaklida keladi, lekin fors tilida esa yil miqdorini bildirgan so‘z tartib son qo‘shimchasini qabul qilmay, doimo sanoq son shaklida bo‘ladi.

2.Oy kunlari quyidagicha ifodalanadi: Masalan:

امروز چندم ماه است؟

Emruz chando‘m-e moh ast?

Bugun oyning qaysi kuni?

امروز بیست و یکم ماه مارس است.

Emruz bist-o‘ yeko‘m-e moh-e mors ast.

Bugun mart oyining yigirma birinchi kuni.

3.Hafta kunlari quyidagicha ifodalanadi. Masalan:

امروز چه روزی است؟

Emruz che ruzi ast?

Bugun haftaning qaysi kuni?

امروز روز یکشنبه است.

Emruz ruze yakshanbe ast.

Bugun yakshanba.

Evropa taqvim oylarining nomi

1	زانويه	jonviye	yanvar
2	فوريه	fevriye	fevral
3	مارس	mors	mart
4	آوريل	ovril	aprel
5	مه	me	may
6	ژوئن	juan	iyun
7	ژوئيه	juiye	iyul
8	اوت	ut	avgust
9	سپتامبر	Septombr	sentyabr
10	اکتبر	o'kto'br	oktyabr
11	نوامبر	no'vombr	noyabr
12	دسامبر	desombr	dekabr

1-topshiriq. Quyidagi raqamlarni so'zlar bilan yozing.

۸, ۹, ۵, ۳, ۷, ۷۶, ۵۴, ۳۲, ۹۷, ۸۷, ۱۰۱, ۱۲۵, ۲۰۴۵, ۳۰۰, ۶۶۰, ۷۷۷, ۸۹۸, ۹۸۸, ۹۷۷,
۱۰۰۲, ۱۲۳۵, ۷۸۷۸, ۸۷۸۷, ۶۵۶۷, ۸۸۸۷, ۷۳۳۴, ۹۰۰۲, ۷۰۰۸, ۱۰۰۰۸, ۳۰۰۰۵۶

2-topshiriq. Savollarga javob bering.

امروز چندم ماه است؟ آیا امروز پنجشنبه است؟ امروز هوا چطور است؟ یک سال از چند فصل عبارت است؟ یک فصل از چند ماه عبارت است؟ یک ماه از چند هفته عبارت است؟ یک ماه از چند روز عبارت است؟ یک فته از چند روز عبارت است؟ یک شبانه روز چند ساعت است؟ یک ساعت چند دقیقه است؟ یک دقیق چند ثانیه است؟

3-topshiriq. Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Bir yil o'n ikki oydan iboratdir. Bir yil uch yuz oltmish besh yoki uch yuz oltmish olti kundir. Bir yil to'rt fasldan iboratdir. Bir oy to'rt haftadan iboratdir. Bir kecha kunduz yigirma to'rt soatdir. Bugun dam olish kuni. Ertaga nechanchi sana? Ertaga 9 mart. Eron mamlakatida dam olish kuni jumadir. 1 sentyabr O'zbekistonning "Mustaqillik" kunidir.

Uyga vazifa: Fors tilida sonlar, yil, oy va kunlarning ifodalanishini yodlang Quyidagi matnni daftaringizga ko'chirib yozing, o'qing tarjima qiling, sonlar ifodalangan jumalarni aniqlang, yangi so'zlar lug'atini yozing va yodlang.

فصلها و روزها

یک سال از چند فصل عبارت است؟ یک سال از چهار فصل عبارت است. نام فصلها از این قرار است: بهار، تابستان، پاییز و زمستان. یک فصل چند ماه است؟ یک فصل سه ماه است. یک سال چند ماه است؟ یک سال دوازده ماه است. ماه های ایرانی کدامند؟ فروردین، اردیبهشت، خرداد، تیر، مرداد، شهریور، مهر، آبان، آذر، دی، بهمن، اسفند ماه های ایرانی است. ماه های فصل بهار فروردین، اردیبهشت و خرداد است. ماه های فصل تابستان تیر، مرداد و شهریور است. ماه های فصل پاییز مهر، آبان و آذر است. ماه های فصل زمستان دی، بهمن و اسفند است. اول ماه فروردین مطابق با بیست و دوم و یا بیست و یکم مارس ماست. در ایران غیر از ماه های مذکور ایرانی ماه های اروپائی هم معمول است؟ بلی، غیر از ماه های ایرانی ماه های اروپائی هم نیز معمول است. ماه های اروپائی چنین است: ژانویه، فوریه، مارس، آوریل، مه، ژوئن، ژوئیه، اوت، سپتامبر، اکتبر، نوامبر و دسامبر. یک هفته هفت روز است. روزهای هفته چنینند: دوشنبه، سه شنبه، چهارشنبه، پنجشنبه، جمعه (آدینه)، شنبه و یکشنبه. یک ماه چند هفته است؟ یک ماه چهار هفته است. یک هفته چند

روز است؟ یک هفته هفت روز است. در ایران روز تعطیل کدام روز است؟ در ایران روز تعطیل روز جمعه است. در ازبکستان روز تعطیل کدام روز است؟ در ازبکستان روز تعطیل روز یکشنبه است. امروز چندم ماه است؟ امروز بیست و هفتم آوریل است. امروز چه روزی است؟ امروز روز یکشنبه است.

کلمات

Evropa	orupo	آروپا
shular jumlasidandir	az in qaror ast	از این قرار است
Bahor	bahor	بهار
Kuz	poiz	پائیز
Yoz	tobeston	تابستان
9-dars	dars-e no‘ho‘m	درس نهم
dam olish kuni	ruz-e ta‘til	روز تعطیل
Qish	zemeston	زمستان
Yil	sol	سال
Iborat	eborat	عبارت
Fasl	fasl	فصل
Biz	mo	ما
mos, barobar	mo‘tobeq	مطابق
amalda, qabul qilingan	ma‘mul	معمول

O`N IKKINCHI DARS

Mavzu: *Fors tilida kelishiklar.*

Maqsad: Fors tilidagi kelishiklarning ifodalanishi va jumladagi o`rmini tushuntirish.

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism (5 min.)

Uy vazifasini tekshirish O`tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

Yangi tema: (30 min.)

Baholash: (20 min.)

Uyga vazifa: (5 min.)

Davomat tekshirilgach, uyga berilgan vazifa tekshiriladi. So`ng yangi mavzu o`tiladi.

Yangi mavzu: FORS TILIDA KELISHIKLARNING IFODALANISHI.

Fors tilida kelishik yo`q bo`lib, otlarning o`zaro sintaktik munosabatlari izofa, ko`makchi va predloglar (old ko`makchilari) orqali ifodalanadi.

PREDLOGLAR

حروف اضافه

ho`ruf-e ezofe

Fors tilida predloglar o`zlarining tarkibiga ko`ra 3 qismga bo`linadi:

1. Asosiy predloglar.
2. Izofali predloglar.
3. Murakkab predloglar.

Asosiy predloglar fors tilida juda mahsuldor bo`lib, kelishik munosabatlarini ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadilar.

1. **به** be predlogi otlarning oldiga qo`yilib, shu predmetlarning harakat yo`nalishlarini bildiradi va o`zbek tilidagi jo`nalish kelishigiga to`g`ri keladi. **به** be predlogi ot bilan qo`shilib yoki alohida yozilishi ham mumkin.
Masalan:

من به اداره نشریات آمدم.

Man be edore-ye nashriyot omadam.

Men nashriyot idorasiga keldim.

ما به دانشکده روزنامه نگاری رفتیم.

Mo be doneshkade-ye ruznomenegori raftim.

Biz jurnalistika fakultetiga bordik.

E s l a t m a: **به** be predlogi **این** in va **آن** on ko`rsatish olmoshlari, hamda **u** kishilik olmoshiga qo`shilganda, ikki xil shaklda yozilishi mumkin.

به آن	be on	بان	be on	بدان	Bedon
به این	be in	باین	be in	بدین	Bedin

به او	be u	باو	be u	بدو	Bedu
-------	------	-----	------	-----	------

2. **در** -**dar** predlogi otlarning oldiga qo‘shilib, ish va harakat sodir bo‘lgan o‘rinni, vaqtni bildiradi va o‘zbek tilidagi o‘rin payt kelishigi qo‘shimchasiga mos keladi. Masalan:

دیروز من در دانشکده روزنامه نگاری بودم.

Diruz man dar doneshkade-ye ruznomenegori budam

Kecha men jurnalistika fakultetida bo‘ldim.

در آن وقت در خانه او کسی نبود.

Dar on vaqt dar xone-ye u kasi nabud

U vaqtda uning uyida hech kim yo‘q edi.

3. **از** -**az** predlogi otlarning oldida kelib, turli ma‘nolarni ifoda etishi mumkin. Lekin ko‘pchilik ma‘nosi o‘zbek tilidagi chiqish kelishigiga mos keladi. **از** -**az** predlogi orqali anglashiladigan asosiy ma‘no ish-harakatning boshlanish o‘rni, payti va umuman chiqishni bildiradi. Masalan:

از ساعت چهار منظر شما هستیم.

Az soat-e chahor mo‘ntazer-e sho‘mo hastim

Soat to‘rtidan buyon sizni kutyapmiz.

من از دوست ایرانی ام نامه گرفتم.

Man az dust-e ironiyam nome gereftam

Men eronlik do‘stimdan maktub oldim.

4. **با** **bo** predlogi otlarning oldida kelib, birgalik, hamkorlik ma‘nolarini bildiradi va asosan o‘zbek tilidagi **bilan** ko‘makchisi orqali anglashiladigan ma‘nolarni ifodalaydi. Masalan:

من با خانواده خود به شهر سمرقند رفتم.

Man bo xonevode-ye xo‘d be shahr-e Samarqand raftam.

Men oilam bilan Samarqand shahriga bordim.

ما با این نویسنده آشنا هستیم.

Mo bo in navisande oshno hastim.

Biz bu yozuvchi bilan tanishmiz.

5. **تا to** predlogi otlarning oldida kelib, harakatning yo‘nalishidagi eng so‘nggi o‘rinni va vaqt bildiruvchi so‘zlar bilan kelganda, vaqt chegarasini anglatadi. O‘zbek tilidagi **qadar** ko‘makchisi anglatgan ma‘nolarni bildiradi. Masalan:

جلسه عمومی روزنامه نگاران تا ساعت شش ادامه داشت.

Jalase-ye o‘mumi-ye ruznomenegoron to soat-e shesh edome dosht.

Jurnalistlarning umumiy yio‘ilishi soat oltigacha davom etdi.

ما تا خبرگزاری ملی پیاده رفتیم.

Mo to xabargo‘zori-ye melli piyode raftim.

Biz milliy axborot agentligigacha piyoda bordik.

6. **برای baroye** predlogi otlarning oldiga qo‘yilib, ish-harakatning maqsad va sababini bildiradi. O‘zbek tilida **uchun** ko‘makchisining asosiy ma‘nolari va ba‘zan **برای -ga** qo‘shimchasi ma‘nosiga mos keladigan ma‘noni anglatadi. Masalan:

برای دیدن دوستم به منزلش رفتم.

Baroye didan-e dustam be manzlash raftam.

Do‘stimni ko‘rish uchun uyiga bordim.

این روزنامه را برای دوستم آوردم.

In ruznome ro baroye dustam ovardam.

Bu gazetani do‘stim uchun olib keldim.

7. **بر bar** predlogi asosan klassik matnlarda, poetik asarlarda va qisman hozirgi fors tilida uchraydi. Bu predlog ish-harakatning biror predmet ustida sodir bo‘lishini yoki u tomonga yo‘nalishini bildiradi. Masalan:

با چوب بزرگ بر سرش زد.

Bo chub-e bo'zo'rg bar sarash zad

Katta kaltak bilan uning boshiga urdi.

دروود بر شنوندگان گرامی رادیو تاشکند.

Do'rud bar shenavandegon-e geromi-ye rodyu-ye Toshkand

Hurmatli Toshkent radio eshituvchilariga salom!

RO KO'MAKCHISI

را ro ko'makchisi hozirgi zamon fors tilida tushum kelishigini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ma'lumki, bu shakl o'zbek tilidagi tushum kelishigi qo'shimchasi **ni** yordami bilan ifodalanadi. Masalan:

روزنامه "صدای ازبکستان" را به دوستم دادم.

Ruznome-ye «O'zbekiston ovozi» ro be dustam dodam

«O'zbekiston ovozi» gazetasini do'stinga berdim.

دیروز من محرر مجله "سعادت" را دیدم.

Diruz man mo'harrer-e majalle-ye «Saodat»ro didam

Kecha men «Saodat» jurnalining muharririni ko'rdim.

را ro ko'makchisi o'zbek tilidagi **ni** qo'shimchasi singari harakatni bevosita o'z ustiga olgan narsani – vositasiz ob'ektni ifoda etadi, ya'ni fors tilidagi **را** ro ko'makchisi qo'shilgan so'z o'zbek tilidagi tushum kelishigi shaklidagi so'z kabi o'timli fe'l tomonidan boshqarilgan bo'ladi:

امروز از مغازه دیوان شیرازی را خریدم.

Emruz az mag'oze divon-e Shirozi ro xaridam.

Bugun magazindan Sheroziyning devonini sotib oldim.

Tushum kelishigidagi so'z belgisi yoki belgisiz bo'lishi mumkin.

Tushum kelishigidagi soʻzning belgili yoki belgisiz kelishi gapning mazmuniga taʼsir etadi; tushum kelishigi qoʻshimchasini olgan soʻz soʻzlovchi va tinglovchi uchun avvaldan maʼlum boʻlgan aniq narsani koʻrsatadi, tushum kelishigi qoʻshimchasi جمع olmagan soʻz, yaʼni belgisiz tushum esa umuman shu turdagi narsani bildiradi.

Fors tilida ham را ro koʻmakchisi aniq, maʼlum boʻlgan narsa yoki hodisani ifodalayotgan vositasiz toʻldiruvchiga qoʻshilib ketadi. Masalan:

دانشیار زبان فارسی این کتاب را به من داد.

Doneshyor-e zabon-e forsi in ketob ro be man dod.

Fors tili oʻqituvchisi bu kitobni menga berdi.

را ro koʻmakchisi qoʻshilmagan vositasiz toʻldiruvchi aniq boʻlmagan narsani bildiradi. Masalan:

دانشجو از مغازه کتابفروشی کتاب خرید.

Doneshju az maoʻoze-ye ketobfoʻrushi ketob xarid.

Talaba kitob magazinidan kitob sotib oldi.

Quyidagi oʻrinlarda را ro koʻmakchisi tushib qolmaydi:

A) agar vositasiz toʻldiruvchi atoqli ot yoki kishilik olmoshlari bilan ifodalangan boʻlsa:

تو در دانشکده عمر را دیدی؟

Toʻ dar doneshkade Oʻmar ro didi?

Sen fakultetda Umarni koʻrdingmi?

بلی، در دانشکده عمر را دیدم.

Bali, dar doneshkade Oʻmar ro didam.

Ha, fakultetda Umarni koʻrdim.

B) agar vositasiz toʻldiruvchi koʻrsatish, kishilik olmoshlari bilan birga kelsa:

من این دانشجو را خوب میشناسم.

Man in doneshju ro xub mishenosam.

Men bu talabani yaxshi taniyman.

V) agar vositasiz to'ldiruvchi egalik qo'shimchalarini olgan ot bilan ifodalangan bo'lsa:

از دوستم کتاب فارسی اش را گرفتم.

Az dustam ketob-e forsi-ash ro gereftam.

O'rtog'imdan fors tili kitobini oldim.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, fors tilida **را ro** ko'makchisi bilan kelgan otlar o'timli fe'l tomonidan boshqarilib, gapda harakatni o'z zimmasiga olgan narsani – vositasiz ob'ektni ifoda etadi.

Klassik adabiyotda **را ro** ko'makchisi bilan kelgan ot vositali to'ldiruvchi ham bo'lib kelgan. Bunda **را ro** ko'makchisini olgan ot quyidagi ma'nolarni bildirgan:

1) ish-harakatning yo'nalishini anglatadi:

حاطم طائی را گفتند ...

Xotam Toi ro go'ftand...

Hotam Toyga dedilar...

2) **را ro** ko'makchisi bilan kelgan ot nutqning biror shaxs, narsa yoki biror hodisa haqida borayotganini anglatadi:

پادشاهی را شنیدم که بکشتن اسیری اشارت کرد. (از سعدی)

Podshohi ro shenidam ke be ko'shtan-e asiri eshorat kard.

Eshitishimcha, bir podshoh bir asirni o'limga buyuribdi. (Sa'diydan)

3) biror narsaga ega –molik bo'lgan shaxs yoki narsani anglatadi:

او را کتابی بود.

U ro ketobi bud.

Uning bir kitobi bor edi.

را ro ko‘makchisi o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shilib yoki undan ajratib yozilishi mumkin. Masalan:

کتاب را

ketobro

Kitobni

کتابرا

این کتاب را خواندم.

پزشک را دیدم.

این کتابرا خواندم.

پزشکرا دیدم.

In ketobro xondam

Pezeshkro didam

Bu kitobni o‘qidim.

Vrachni ko‘rdim.

را ro ko‘makchisi uyushiq bo‘lakli gaplarda uyushiq bo‘lakka qo‘shiladi va har doim uyushiq bo‘lak oxirida keladi hamda uyushiq bo‘lak tarkibidagi barcha so‘zlarga tegishli bo‘ladi:

مهمانان در شهر تاشکند موزه تاریخ خلقهای ازبکستان، دانشگاه

دولتی، دبیرستانها و چند کودکانها را بازدید نمودند.

Mehmonon dar shahr-e Toshkand muze-ye torix-e O‘zbekiston, doneshgoh-e do‘ulati, dabirestonho
va chand kudakestonho ro boz did namudand.

Mehmonlar Toshkent shahrida O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyini, Toshkent Davlat universitetini,
maktablar va bolalar bog‘chalarini tomosha qildilar.

را ro ko‘makchisi I va II shaxs birlikdagi kishilik olmoshlari bilan birga kelganda, ularning ikkinchi harfi tushib qoladi. Qolgan qismi esa را ro ko‘makchisi bilan doimo qo‘shilib yoziladi. Masalan:

را + من = مرا maro

to'ro = تو + را

Bu hol o'zbek tilidagi shu olmoshlarning tushum kelishigi belgisi qo'shilgandagi o'zgarishga o'xshaydi.

Men + ni = meni

Sen + ni = seni

PREDLOGLAR VA RO KO'MAKCHISINING IZOFIY BIRIKMADA ISHLATILISHI

Izofiy birikmada yoki izofiy zanjirli gaplarda predlog doimo izofiy birikmaning boshida, ko'makchi esa izofiy birikmaning oxirida keladi. Masalan:

نویسندگان کشور ایران به پایتخت ازبکستان آمدند.

Navisandegon-e keshvar-e Iron be poytaxt-e o'zbekiston omadand

Eron mamlakatining yozuvchilari o'zbekistonning poytaxtiga keldilar.

ما داستانهای نویسندگان مشهور ایران را خریدیم.

Mo dostonho-ye navisandegon-e mashhur-e Iron ro xaridim

Biz mashhur Eron yozuvchilarining hikoyalarini sotib oldik.

IZOFALI PREDLOGLAR

Fors tilida mustaqil ma'nodagi ba'zi bir ot va ravishlar predlog vazifasida ham kelishi mumkin. Bu so'zlar predlog bo'lib kelganda, o'zlarining mustaqil ma'nolarini yo'qotib, ko'makchi so'z anglatgan grammatik ma'noni bajaradi va doimo o'zidan keyin kelgan so'zga izofa yordamida birikadi. Izofiy predloglar fors tilida 20 dan ortiq bo'lib, gapda asosiy predloglar orqali ifodalangan ma'nolarni aniqlashtirish, ular munosabatini yana ham aniqroq ko'rsatish uchun xizmat qiladilar.

Masalan, رو ru (yuz) so'zi gapda o'zining mustaqil leksik ma'nosiga ega bo'lishi yoki leksik ma'nosini yo'qotib, ko'makchi so'z bo'lib kelishi ham mumkin.

Uning yuzi chiroyli. Ru-ye u zibo ast روی او زیبا است.

روی میز پاک است. Ru-ye miz pok ast

Stolning yuzi toza.

مجله روی میز است. Majalle ru-ye miz ast

Jurnal stolning ustida.

مداد روی کتاب است. Medod ru-ye ketob ast

Qalam kitobning ustida.

Misollarning ikkalasida ham **رو** ru so'zi ko'makchi so'z bo'lib kelgan, hamda o'rin, yo'nalish ma'nolarini ifoda etgan. Bu misollarda **رو** ru bilan birga yozilishi kerak bo'lgan **در** dar va **به** be predloglari tushib qolgan, chunki izofali predloglar o'rin va yo'nalish ma'nolarini ifoda etganlarida, **o'rin** va **yo'nalish** ma'nolarini anglatuvchi **در** dar va **به** be predloglari ko'pincha tushib qoladi. Ularning ma'nolari esa fe'lining semantikasiga bog'liq. Bu holni hamma izofali predloglarning ishlatilishida kuzatish mumkin.

Izofali predloglarning ko'p uchraydiganlari quyidagilar:

1. **پیش** pish – old. Bu so'z predlog bo'lib kelganda **oldida**, **oldiga** ma'nolarini anglatadi. Masalan:

شخصی پیش کاتبی رفت.

Shaxsi pish-e kotibi raft

Bir kishi bir kotibning oldiga bordi.

روزی شاعر فقیری پیش آدم متمولی رفت.

Ruzi sho'er-e faqiri pish-e odam-e mo'tamavveli raft.

Bir kuni bir kambao'al shoir bir boy odamning oldiga bordi.

2. **پهلوی** pahlū – yon. Bu so'z predlog bo'lib kelganda **yonida**, **yoniga** ma'nolarini anglatadi.

Masalan:

در جلسه علمی پهلوی دوستم نشستم.

Dar jalase-ye elmi pahlū-ye dustam neshastam

Ilmiy majlisda o'rto'o'im yoniga o'tirdim.

پهلوی دانشکده ما مغازه بزرگ واقع بود.

Pahlu-ye doneshkade-ye mo mao'oze-ye bo'zo'rg voqe' bud

Fakultetimiz yonida katta magazin joylashgan edi.

3. **زیر** **zir** *ost, tag*. Bu so'z predlog bo'lib kelganda *ostida, tagida, ostiga, tagiga* ma'nolarini anglatadi. Masalan:

او مداد خود را زیر روزنامه گذاشت.

U medod-e xo'd ro zir-e ruznome go'zosht

U o'zining qalamini gazetaning ostiga qo'ydi.

زیر اشعه آفتاب همه چیز درخشان بود.

Zir ash'e-ye oftob hame chiz deraxshon bud

Quyosh nurlari ostida barcha narsa yaltirar edi.

4. **نزد** **nazd** – *old, yon*. Bu so'z predlog bo'lib kelganda *yonida, oldida, yoniga, oldiga*, ma'nolarini anglatadi. Masalan:

او مقاله خود را نزد محرر گذاشت.

U maqole-ye xo'd ro nazd-e mo'harrer go'zosht

U o'zining maqolalarini muharrir oldiga qo'ydi.

نزد او کسی نبود.

Nazd-e u kasi nabud

Uning oldida hech kim yo'q edi.

5. **سر** **sar** – *bosh*. Bu so'z predlog bo'lib kelganda, o'z leksik manosi butunlay yo'qotib, faqat o'rin va yo'nalish, ma'nolarini anglatadi. Masalan:

دانشجویان سر درس بودند.

Doneshjuyon sar-e dars budand

Talabalar darsda edilar.

دانشجویان سر جای خود نشستند.

Doneshjuyon sar-e jo-ye xo'd neshastand

Talabalar o'z joylariga o'tirdilar.

6. **بالا** **bolo** – *tepa, yuqori*. Bu so'z predlog bo'lib kelganda *tepasida, yuqorisida, tepasiga, yuqorisiga* ma'nolarini anglatadi.

آهو بالای کوه بود.

Ohu bolo-ye kuh bud

Kiyik too'ning ustida edi.

بالای درخت مرغی نشست.

Bolo-ye deraxt mo'ro'i neshast

Daraxtning ustiga bir qush qo'ndi.

7. **میان و بین** **miyon va beyn** - *o'rta, ora*. Bu so'zlar predlog bo'lib kelganda *o'rtada, orada, o'rtaga, oraga* ma'nolarini bildiradi. Masalan:

بین شرکت کنندگان روزنامه نگار هم بود.

Beyn-e sherkat ko'nandegon ruznomenegor ham bud

Ishtirokchilar orasida junalist ham bor edi.

میان شاعر و متمدول یک وجب تفاوت بود.

Miyon-e sho'er va mo'tamavvel yek vajab tafovo't bud

Shoir va boy orasida bir qarich farq bor edi.

Bulardan tashqari, **عقب** **aqab** – *orqa*, **پی** **pey** – *iz*, **تو** **tu** – *ich, ichkari*, **بیرون** **birun** –

tashqari, sirt, **برابر** **barobar** - *qarama - qarshi* so'zlari ham izofali predlog bo'lib keladi.

Shunday qilib, izofali predloglar asosiy predloglarga nisbatan keng va abstrakt ma'noni anglatadi. Asosiy predloglar biror predmetni **o'rni** yoki **yo'nalishini** ifodalasa, izofali predloglar shu o'rin yoki yo'nalish predmetning qaysi tomonga qaratilganini bildiradi. Masalan:

روی میز	ru-ye miz	stolning ustida, stolning ustiga
زیر میز	zir-e miz	stolning ostida, stolning ostiga
سر میز	sar-e miz	stolning yonida, stolning yoniga
پشت میز	po'sht-e miz	stolning orqasida, stolning orqasiga
بین دو میز	beyn-e do' miz	ikki stol orasida, ikki stol orasiga

Uyga vazifa: Quyidagi matnni daftaringizga ko'chirib yozing, o'qing tarjima qiling. Predloglarnitopini va ma'nosini tushuntirib bering.

حکایت

شخصی طوطی را تربیت کرد و زبان فارسی را به او یاد داد. طوطی در جواب هر سخن میگفت: در این شک نیست. روزی آن مرد طوطی را برای فروش به بازار برد و صد تومان قیمت گذاشت. کسی از طوطی پرسید: مگر صد تومان می ارزی؟ گفت: در این شک نیست. آن شخص خوشحال شد و طوطی را خرید و به خانه خود برد. هر چه به طوطی گفت جواب دیگری نشنید جز همین: در این شک نیست. آخر خریدار خشمگین شد و گفت: خر بودم که تو را خریدم. طوطی گفت: در این شک نیست. خریدار خندید و طوطی را آزاد کرد.

کلمات

Arzimoq	arzidan	ارزیدن
ozod qilmoq	ozod kardan	آزاد کردن
Bozor	bozor	بازار
olib botmoq	boʻrdan	بردن
emoq, boʻlmoq	budan	بودن
soʻramoq	poʻrsidan	پرسیدن
tarbiya qilmoq	tarbiyat kardan	تربیت کردن
Eshak	xar	خر
Xaridor	xaridor	خریدار
sotib olmoq	xaridan	خریدن
gʻazablanmoq	xashmgin shoʻdan	خشمگین شدن
Kulmoq	xandidan	خندیدن
xursand boʻlmoq	xushhol shoʻdan	خوشحال شدن
oʻninchi dars	dars-e dahoʻm	درس دهم
bir kuni	ruzi	روزی
soʻz	soʻxan	سخن
bir kishi	shaxsi	شخصی
Eshitmoq	shenidan	شنیدن
shak, shubha	shak	شک
yuz tuman (pul)	sad tumon	صد تومان
toʻti	tuti	طوطی

sotish uchun

baroye fo‘rush

برای فروش

qiymat, narx

qiymat

قیمت

aytmoq, demoq

go‘ftan

گفتن

yod olmoq

yod kardan

یاد دادن

O`N UCHINCHI DARS

Mavzu: *Fors tilida fe’l.*

Maqsad: Fors tilidagi fe’llarning xususiyatlari va ularning jumladagi o`rni tushuntirish.

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism (5 min.)

Uy vazifasini tekshirish O`tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

Yangi tema: (30 min.)

Baholash: (20 min.)

Uyga vazifa: (5 min.)

Davomat tekshirilgach, uyga berilgan vazifa tekshiriladi. So`ng yangi mavzu o`tiladi.

Yangi mavzu: F E ‘ L

فعل

FE’LNING NOANIQ SHAKLI

مصدر masdar

Fors tilidagi fe’llar lug‘atlarda har doim masdar ya’ni noaniq shaklda beriladi. Fe’lning bu shakli shaxs, son va zamonni anglatmagani uchun ham fe’lning noaniq shakli deb nomlanadi. Masdar fe’lning otga yaqin shakli bo‘lib, ham fe’llik, ham otlik belgilariga ega. Masdarning fe’llik belgisi harakat, holatni, o‘timli - o‘timsizlik holatlarini saqlashi, boshqa so‘zlarni boshqarishi bo‘lsa, uning otlik belgilari esa otlar singari turlanishi va gapda ot bajargan sintaktik vazifalarni bajarishidir.

Fors tilidagi fe’llarning noaniq shakli har doim **دن - dan, تن -tan, یدن - idan** qo‘shimchalari bilan tugallangan bo‘ladi. Masalan:

آمدن

Omadan

Kelmoq

خواندن

Xondan

o‘qimoq

رفتن

raftan

bormoq, ketmoq

گفتن

go‘ftan

aytmoq, demoq

پرسیدن

po‘rsidan

so‘ramoq

پریدن

Paridan

Uchmoq

FE‘LLARNING TARKIBIGA KO‘RA TURLARI

Fors tilidagi fe‘llar o‘zlarining tuzilishi jihatidan quyidagicha bo‘ladi:

1. Sodda fe‘llar;
 2. Prefiksli fe‘llar;
 3. Murakkab fe‘llar.
1. Bir so‘zdan tashkil topgan fe‘llar **sodda fe‘llar** deyiladi. Masalan:

نوشتن

Naveshtan

Yozmoq

دیدن

didan

ko‘rmoq

شنیدن

shenidan

eshitmoq

2. Prefiks (old qo‘shimcha) va sodda fe‘l yordami bilan yasalgan fe‘llar **prefiksli fe‘llar** deyiladi. Masalan:

برگشتن

bar-gashtan

Qaytmoq

فرا گرفتن

faro-gereftan

o‘rganmoq, o‘rgatmoq

در آوردن

dar-ovardan

chiqarmoq

3. Ot (yoki fe‘ldan boshqa so‘z turkumlari) va ko‘makchi fe‘l yordami bilan yasalgan fe‘llar **qo‘shma fe‘llar** deyiladi. Masalan:

ترجمه کردن

tarjo‘me kardan

tarjima qilmoq

ادامه دادن

edome dodan

davom ettirmoq

قسم خوردن

qasam xo‘rdan

qasam ichmoq

Qo‘shma fe‘l tarkibiga kirgan sodda fe‘llar asosan o‘zlarining leksik ma‘nolarini yo‘qotib, ko‘makchi fe‘l vazifasini bajaradi. Masalan:

جشن jashn

bayram

Yuqoridagi misoldagi qo'shma fe'l tarkibiga kirgan گرفتن gereftan sodda fe'li mustaqil holda kelgan vaqtda o'zbek tiliga **olmoq** deb tarjima qilinadi. Lekin qo'shma fe'l tarkibida esa etakchi fe'ldan anglashilgan ish harakatni ifoda etib keladi.

Fors tilida ot va ko'makchi fe'l birikuvini orqali fe'l yasash juda mahsuldordir va ular fors tili fe'llarining asosiy miqdorini tashkil qiladi.

FE'L NEGIZLARI

ریشه افعال rishe-ye af'ol

Fors tilida iste'molda bo'lgan har bir fe'lning ikkita negizi mavjud:

1. O'tgan zamon fe'l negizi;
2. Hozirgi zamon fe'l negizi.

O'TGAN ZAMON FE'L NEGIZI

Fors tilidagi fe'llarning masdar shaklidan ن -an qismini olib tashlash orqali o'tgan zamon fe'l negizi yasaladi.

Ushbu holat iste'moldagi sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarning barchasiga tegishlidir. Masalan:

Masdar		Tarjimasi	O'tgan zamon o'zagi	
رفتن	Raftan	bormoq	رفت	raft
دادن	Dodan	bermoq	داد	dod
نشستن	Neshastan	o'tirmoq	نشست	neshast

O'TGAN ZAMON ANIQ FE'LI

ماضی مطلق mozi-ye mo'tlaq

O'tgan zamon aniq fe'lining yasalishi va tuslanishi

O'tgan zamon aniq fe'li ish - harakatning o'tgan zamonda bo'lib o'tganligi va uni bajarilganini aniq ekanligini ifodalaydi. Shunga ko'ra bu fe'l tugallik ma'nosini bildiradi. o'tgan zamon fe'l negiziga o'tgan zamonga tegishli bo'lgan shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali ماضی مطلق mozi-ye mo'tlaq ya'ni o'tgan zamon aniq fe'li yasaladi.

Shaxs-son qo'shimchalari quyidagilar:

shaxslar	birlik	مفرد	mo'frad	ko'plik	جمع	jam'
I shaxs	م -		-am	-م		-im
II shaxs	ی -		-i	-ی		-id
III shaxs	-		-	-ند		-and

ko'plik-	جمع	jam'	birlik-	مفرد	mo'frad	shaxslar
-م	-م	-im	م -	-am		I shaxs
-ی	-ی	-id	ی -	-i		II shaxs
-ند	-ند	-and	-	-		III shaxs

O'tgan zamon aniq fe'li fe'lining yasallishini quyidagi holatda kuzatishimiz mumkin.

ماضی مطلق	=	shaxs-son qo'shimchasi	+	o'tgan zamon fe'l o'zagi
نوشتیم	=	یم	+	نوشت

Yuqoridagi holatga nazar tashlaydigan bo'lsak ushbu formula orqali biz barcha fe'llardan o'tgan zamon aniq fe'lining bo'lishli shaklini yasay olamiz.

shaxslar	مفرد			جمع		
I shaxs	دیدم	didam	ko'rdim	دیدیم	didim	ko'rdik
II shaxs	دیدى	Didi	ko'rding	دیدید	didid	ko'rdingiz
III shaxs	دید	Did	ko'rdi	دیدند	didand	ko'rdilar

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, o'tgan zamon aniq fe'li III shaxs birlikda hech qanday shaxs-son qo'shimchasini olmaydi, ya'ni o'tgan zamon fe'l o'zagi o'tgan zamon aniq fe'lining III shaxs birligiga mos keladi. Chunki III shaxs birlikda shaxs – son qo'shimchasi mavjud emas. Fe'ning tuslanishida uro'u shaxs – son qo'shimchalariga tushadi.

نوشتن **naveshtan** - yozmoq fe'lining tuslanishi

مفرد

من نوشتم	Man naveshtam	Men yozdim.
تو نوشتی	To‘ naveshti	Sen yozding.
او نوشت	U navesht	U yozdi.
جمع		
ما نوشتیم	Mo naveshtim	Biz yozdik.
شما نوشتید	Sho‘mo naveshtid	Siz yozdingiz.
آنها نوشتند	Onho naveshtand	Ular yozdilar.

ماضی مطلق	=	shaxs-son qo‘shimchasi	+	o‘tgan zamon fe‘l o‘zagi
برگشتید	=	ید	+	بر گشت

برگشتن bar-gashtan - qaytmoq fe‘lining tuslanishi

مفرد		
من برگشتم	Man bar-gashtam	Men qaytdim.
تو برگشتی	To‘ bar-gashti	Sen qaytding.
او برگشت	U bar-gasht	U qaytdi.
جمع		
ما برگشتیم	Mo bar-gashtim	Biz qaytdik.
شما برگشتید	Sho‘mo bar-gashtid	Siz qaytdingiz.
آنها برگشتند	Onho bar-gashtand	Ular qaytdilar.

ماضی مطلق	=	shaxs-son qo'shimchasi	+	o'tgan zamon fe'l o'zagi
کار کردند	=	ند	+	کار کرد

کار کردن kor kardan - ishlamoq fe'lining tuslanishi

مفرد		
من کار کردم	Man kor kardam	Men ishladim.
تو کار کردی	To' kor kardi	Sen ishlading.
او کار کرد	U kor kard	U ishladi.
جمع		
ما کار کردیم	Mo kor kardim	Biz ishladik.
شما کار کردید	Sho'mo kor kardid	Siz ishladingiz.
آنها کار کردند	Onho kor kardand	Ular ishladilar.

O'TGAN ZAMON ANIQ FE'LINING BO'LISHSIZ SHAKLI

O'tgan zamon aniq fe'lining inkor shakli fe'l oldiga **na** inkor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi. Bunda asosiy kuchli urg'u inkor yuklamasiga tushadi, ikkinchi kuchsiz uro'u esa shaxs – son qo'shimchalarida bo'ladi. Masalan:

خواندن xondan - o'qimoq fe'lining tuslanishi

مفرد		
من نخواندم	Man xondam	Men o'qimadim.
تو نخواندی	To' xondi	Sen o'qimading.
او نخواند	U xond	U o'qimadi.

جمع		
ما خواندیم	Mo xondim	Biz o‘qimadik.
شما خواندید	Sho‘mo xondid	Siz o‘qimadingiz.
آنها خواندند	Onho xondand	Ular o‘qimadilar.

Prefiksli va qo‘shma fe’llarda **ن** na- inkor yuklamasi ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi.

فرا گرفتن **faro-gereftan - o‘rganmoq** fe’lining tuslanishi

مفرد		
من فرا نگرفتم	Man faro-nagereftam	Men o‘rganmadim.
تو فرا نگرفتی	To‘ faro-nagerefti	Sen o‘rganmading.
او فرا نگرفت	U faro-nagereft	U o‘rganmadi.

جمع		
ما فرا نگرفتیم	Mo faro-nagereftim	Biz o‘rganmadik.
شما فرا نگرفتید	Sho‘mo faro-nagereftid	Siz o‘rganmadingiz.
آنها فرا نگرفتند	Onho faro-nagereftand	Ular o‘rganmadilar.

ملاقات کردن **mo‘loqot kardan - uchrashmoq** fe’lining tuslanishi

مفرد		
من ملاقات نکردم	Man mo‘loqot nakardam	Men uchrashmadim.
تو ملاقات نکردی	To‘ mo‘loqot nakardi	Sen uchrashmading.
او ملاقات نکرد	U mo‘loqot nakard	U uchrashmadi.

جمع		
ما ملاقات نکرديم	Mo mo‘loqot nakardim	Biz uchrashmadik.
شما ملاقات نکرديد	Sho‘mo mo‘loqot nakardid	Siz uchrashmadingiz.
آنها ملاقات نکرديد	Onho mo‘loqot nakardand	Ular uchrashmadilar.

ن - NA INKOR YUKLAMASINING IMLOSI

1. **آ o** cho‘ziq unlisi bilan boshlangan fe‘llarning inkor shaklida inkor yuklamasidan keyin bir **ي y** orttiriladi. Masalan:

آمدن omadan - kelmoq fe‘lining tuslanishi

مفرد		
من نیامدم	Man nayomadam	Men kelmadim.
تو نیامدی	To‘ nayomadi	Sen kelmading.
او نیامد	U nayomad	U kelmadi.

جمع		
ما نیامديم	Mo nayomadim	Biz kelmadik.
شما نیامديد	Sho‘mo nayomadid	Siz kelmadingiz.
آنها نیامدند	Onho nayomadand	Ular kelmadilar.

2. **a** yoki **o‘** qisqa unlisi bilan boshlangan fe‘llarning inkor shaklida **ن -na** inkor yuklamasidan so‘ng bir **ي y** orttirilib, fe‘l boshidagi **ا alif** tushib qoladi. Masalan:

افتادن o‘ftodan - yiqilmoq fe‘lining tuslanishi

مفرد		
من نیفتادم	Man nayo‘ftodam	Men yiqilmadim.

تو نیفتادی	To' nayo'ftodi	Sen yiqilmading.
او نیفتاد	U nayo'ftod	U yiqilmadi.
جمع		
ما نیفتادیم	Mo nayo'ftodim	Biz yiqilmadik.
شما نیفتادید	Sho'mo nayo'ftodid	Siz yiqilmadingiz.
آنها نیفتادند	Onho nayo'ftodand	Ular yiqilmadilar.

خوش آمدن *xo'sh omdan FE'LINING TUSLANISHDAGI XUSUSIYATLAR*

خوش آمدن *xo'sh omdan* qo'shma fe'li *yoqmoq* deb tarjima qilinadi va tuslanishda quyidagi ikki xususiyatga ega bo'ladi:

1. **خوش آمدن** *xo'sh omdan* fe'li tuslanganda, qo'shma fe'lining ot qismi **آمدن** *xo'sh* egalik affikslarini qabul qilib, ko'makchi fe'l **omadan** esa doimo III shaxs birlik shaklida keladi.

آمدن *omadan* ko'makchi fe'li gapning ma'nosiga qarab turli zamon shaklida bo'lishi mumkin. Masalan:

O'tgan zamon

خوشم آمد *xo'sham omd* Menga yoqdi.

Hozirgi zamon

خوشم میاید *xo'sham miyomad* menga yoqyapti, menga yoqadi

2. **خوش آمدن** *xo'sh omdan* qo'shma fe'li boshqargan to'ldiruvchi, ya'ni *yoqish* ob'ekti bo'lgan so'z **از** *az* predlogini qabul qilib keladi. Masalan:

خوش آمدن *xo'sh omdan* - *yoqmoq* fe'lining tuslanishi

مفرد

از این شال گردن ابریشمی خوشم آمد.

Az in shol-e gardan-e abrisho'mi xo'sham omad

Bu ipak sharf menga yoqdi.

از این شال گردن ابریشمی خوشت آمد.

Az in shol-e gardan-e abrisho'mi xo'shat omad

Bu ipak sharf senga yoqdi.

از این شال گردن ابریشمی خوشش آمد.

Az in shol-e gardan-e abrisho'mi xo'shash omad

Bu ipak sharf unga yoqdi.

جمع

از این شال گردن ابریشمی خوشمان آمد.

Az in shol-e gardan-e abrisho'mi xo'shemon omad

Bu ipak sharf bizga yoqdi.

از این شال گردن ابریشمی خوشتان آمد.

Az in shol-e gardan-e abrisho'mi xo'sheton omad

Bu ipak sharf sizga yoqdi.

از این شال گردن ابریشمی خوششان آمد.

Az in shol-e gardan-e abrisho'mi xo'sheshon omad

Bu ipak sharf ularga yoqdi.

آمدن خوش xo'sh omadan fe'lining tuslanishi o'zbek tilidagi *uyqu kelmoq*

qo'shma fe'lining tuslanishini eslatadi: *uyqim keldi, uyqing keldi* kabi.

آمدن خوش xo'sh omadan fe'lining tuslanishida urg'u qo'shma fe'lning ot

qismiga tushadi. Masalan:

از این پیراهن خوشم آمد.

Az in pirohan xo'sham omad

Bu ko'ylak menga yoqdi.

از این پیراهن خوشمان میاید.

Az in pirohan xo'shemon miyoyad

Bu ko'ylak bizga yoqadi.

آمدن خوش xo'sh omadan fe'lining bo'lishsiz shakli **na** inkor yuklamasini

ko'makchi fe'lga qo'shish orqali hosil bo'ladi. Bunda urg'u **ن** -na inkor yuklamasiga tushadi. Masalan:

از جواب شما خوشم نیامد.

Az javob-e sho'mo xo'sham nayomad

Sizning javobingiz menga yoqmadi.

از این مقاله خوشش نیامد.

Az in maqole xo'shash nayomad

Bu maqola unga yoqmadi.

1 – topshiriq. Quyidagi fe'llarning yozilishini esda saqlang.

نوشتن **naveshtan**

yozmoq

خواندن **xondan**

o'qimoq

گفتن **go'ftan**

aytmoq, demoq

پرسیدن **po'rsidan**

so'ramoq

جواب دادن **javob dodan**

javob bermoq

دیدن **didan**

ko'rmoq

گرفتن **gereftan**

olmoq

آمدن **omadan**

kelmoq

رفتن **raftan**

bormoq

خریدن **xaridan**

sotib olmoq

فرستادن **ferestodan**

yubormoq

Studentlarning temani qanchalik o`zlashtirganliklarini baholash maqsadida innovatsion metodlardan foydalaniladi. Masalan:

« *Blits* » o`yini

“Menimcha to`g`ri topdim”

Talabalar har biriga shu kungacha o`tilgan mavzularga doir 15 ta jumlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. « Menimcha to`g`ri topdim » nomli blits o`yinida har bir talaba « Fors tilida o`tgan zamon aniq feli » mavzusiga tegishli jumlarni topishi va to`g`risiga belgilashi kerak bo`ladi. Bu o`yinga 10 minut vaqt ajratiladi. O`yinning shartiga ko`ra 3 ta to`g`ri topilgan javob uchun bir ball qo`yiladi. Hamma savolga to`g`ri javob bergan student 5 ball to`playdi. Keyin kartochkalar yig`ib olinadi va oqituvchi to`g`ri javobni aytadi. Shundan so`ng studentlar darsda yiqqan ballini bilib oladilar.

2– topshiriq. آمدن *omadan* - kelmoq, بر داشتن *bar doshtan* - ko`tarmoq va

استراحت کردن *esterohat kardan* - dam olmoq fe'llarini o`tgan zamon aniq fe'lining bo'lishli shaklida tuslang

3 – topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Men kecha ko`rgazmaga bormadim. Biz darsdan so`ng bibliotekaga ketdik. Singlim maktabni tamomladi. Do'stim menga kitob sovg'a qildi. Biz eron yozuvchilarining hikoyalari bilan tanishdik. Biz o`z joyimizga o'tirdik. Devorga Eron va O'zbekiston xaritasini osdik. Akam kecha Moskvadan keldi. Soat sakkizda darsimiz boshlandi. Kecha universitetga chet ellik mehmonlar kelishdi. Teatrda yaxshi kayfiyat bilan qaytdik. Lug'atimni o`rtog'imga berdim. Ertalab nonushta qildingmi? Men o`qishga piyoda bordim. Kecha fakultetimizda Navoiyga bag'ishlangan kecha bo'lib o`tdi.

Uyga vazifa: 3 va 4 topshiriqlarni shartiga ko`ra yozma bajaring.

3 – topshiriq. افتادن *o'ftodan* – yiqilmoq, در آوردن *dar ovardan* – chiqarmoq va ترجمه

کردن *tarjo'me kardan* – tarjima qilmoq fe'llarini o`tgan zamon aniq fe'lining bo'lishsiz shaklida tuslang.

4 - topshiriq. Jumlarni fors tiliga tarjima qiling.

Men do'stim bilan universitetga bordim. Do'stim magazindan Murtazo Mushfiq Kozimiy «Qo`rqinchli Tehron» romanini sotib oldi. Talabalar san'at muzeyiga bordilar. Men do'stimdan maktub oldim. Talaba bo`r keltirdi. Biz bugun 6 soat o`qidik. Siz ularni ko`rdingizmi? Kutubxonadan lug'atlar olib keldik. Ma'ruzani tingladik. Erondan mehmonlar keldilar. Bugun havo sovuq. Singlim maktabni bitirdi. Biz daryo bo'yida dam oldik. Universitet talabalari musobaqalarda qatnashdilar. Sen bu filmni ko`rdingmi? Sen qaerdan kelding? Biz shahidlar hiyobonini ziyorat qildik. Yangi teatr binosi qurildi.

Mavzu: Yoye vaxdat va yoye nakare.

Maqsad: “Yoye vaxdat va yoye nakare”ning xususiyatlari va ularning jumladagi o`rnini tushuntirish.

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism (5 min.)

Uy vazifasini tekshirish O`tilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

Yangi tema: (30 min.)

Baholash: (20 min.)

Uyga vazifa: (5 min.)

Davomat tekshirilgach, uyga berilgan vazifa tekshiriladi. So`ng yangi mavzu o`tiladi.

Yangi mavzu: YOYE VAXDAT VA YOYE NAKARE

یای وحدت yo-ye vahdat va یای نکره yo-ye nakare

Fors tilida biror predmet yoki shaxsning birlik va noaniqligini ko`rsatish uchun ularga noaniqlik va birlik belgisi **ی** yo qo`shilib, **i** deb talaffuz qilinadi. Bu **ی** yo ni fors grammatikasida **یای وحدت** yo – ye vaxdat yoki **یای نکره** yo –ye nakare deyiladi.

Birlik va noaniqlik belgisi **ی** yo hech vaqt urg`u qabul qilmaydi. Urg`u uning oldidagi bo`g`inga tushadi.

Masalan:

روز ruz kun

کتاب ketob kitob

پزشک pezeshk vrach

روزی ruzi qandaydir bir kun

کتابی ketobi qandaydir bir kitob

پزشکی pezeshki qandaydir bir vrach

1. Undosh bilan tugagan so`zlarda **ی** yo harfi bevosita otlarning oxiriga qo`shiladi. Masalan:

do‘xtar دختر qiz bola

miz ميز stol

kog‘az کاغذ qog‘oz

do‘xtari دخترى qandaydir bir qiz bola

mizi ميزى qandaydir bir stol

kog‘azi کاغذى qandaydir bir qog‘oz

2. **o** yoki **u** cho‘ziq unlilari bilan tugagan so‘zlarda **ى yo** harfi oldidan bir **ء hamza** belgisi orttirilib yoziladi.

Masalan:

doneshju دانشجو talaba

sedo صدا sado, tovush

gado گدا tilanchi

doneshjui دانشجوئى qandaydir bir talaba

sedoi صدائى qandaydir bir sado yoki tovush

gadoi گدائى qandaydir bir tilanchi

3. **e** qisqa unlisi bilan tugagan so‘zlarda **ى yo** harfi oldidan bir **ا alif** orttirilib yoziladi. Masalan:

نویسنده	navisande	yozuvchi
روزنامه	ruznome	gazeta
نامه	nome	maktub
نویسنده ای	navisande-i	qandaydir bir yozuvchi
روزنامه ای	ruznome-i	qandaydir bir gazeta
نامه ای	nome-i	qandaydir bir maktub
یای وحدت	yo-ye vahdat	یا ی نکره
	va	yo-ye nakarening
IZOFIY BIRIKMADA ISHLATILISHI		
Izofiy birikmada birlik va noaniqlik belgisi ی yo asosan birikma oxiridagi soʻzga qoʻshiladi. Masalan:		
مقاله خوب	maqole-ye xub	yaxshi maqola
مقاله خوبی	maqole-ye xubi	qandaydir bir yaxshi maqola
شاعر مشهور	shoʻer-e mashhur	mashhur shoir
شاعر مشهوری	shoʻer-e mashhuri	qandaydir bir mashhur shoir
Birlik va noaniqlik ی yo si birikmaning birinchi soʻziga – aniqlanmishga qoʻshiladi. Masalan:		
میز نو	miz-e noʻu	yangi stol

میزی نو mizi no‘u qandaydir bir yangi stol

دختر جوان do‘xtar-e javon yosh qiz

دختری جوان do‘xtari javon qandaydir bir yosh qiz

یای وحدت yo-ye vahdat va یای نکره yo-ye nakarening

ishlatilishi

یای وحدت yo-ye vahdat va یای نکره yo-ye nakare ning asosiy vazifasi birlik va noaniqlikni

ifodalashdir.

Fors tilida یای وحدت yo-ye vahdat va یای نکره yo-ye nakare gapda ishlatilishi jihatidan bir-

biridan farq qiladi.

یای وحدت yo-ye vahdat otlarga qo‘shilib, birlikni ifodalaydi va miqdoriy jihatdan gap bir predmet yoki

shaxs haqida ketayotganligini, ma’no predmetning soniga qaratilganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, noaniqlik, gumon ma’nolarini bildirib, so‘z noma’lum bir predmet yoki shaxs haqida borayotganligiga ishora qiladi. Masalan:

پادشاهی را پسری بود.

Podshohi ro pesari bud

Bir podshohning bir o‘g‘li bor edi.

Yuqoridagi jumlada یای وحدت yo-ye vahdat qabul qilgan bo‘lib, bunda gap aynan bir o‘g‘il haqida borayotganligini ko‘rsatadi.

دختری آمد و به او چیزی داد.

Do‘xtari omad va be u chizi dod

Bir qiz keldi va unga bir narsa berdi.

Bu jumlada esa **دختری do‘xtari** va **چیزی chizi** so‘zlari **یای نکره yo-ye nakare** bilan kelgan bo‘lib, predmet yoki shaxsning noaniqligini, noma‘lum bir predmet yo shaxs haqida gap borayotganligini bildiradi.

Bundan tashqari, noaniqlik belgisi **چه che** so‘roq olmoshidan keyin kelgan so‘zga qo‘shilib, biror predmet haqida ma‘lumotga ega bo‘lish yoki taajjub va hayajonni izhor qilish ma‘nolarini bildiradi. Odatda bu xildagi gaplar mazmunidan so‘roq anglashilgan bo‘ladi. Masalan:

آن چه کتابی است؟

On che ketobi ast?

U qanaqa kitob?

امروز چه روزی است؟

Emruz che ruzi ast?

Bugun qaysi kun?

خود XO‘D O‘ZLIK OLMOSHI

Fors tilida **خود xo‘d** o‘zlik olmoshi gapda mustaqil holda hamda biror otga izofa orqali birikib keladi.

خود xo‘d o‘zlik olmoshi mustaqil holda ko‘pincha qo‘shimchalari bilan birga keladi. Masalan:

مفرد		
خودم	xo‘dam	o‘zim
خودت	xo‘dat	o‘zing
خودش	xo‘dash	o‘zi

جمع		
-----	--	--

خودمان	xo'demon	o'zimiz
خودتان	xo'deton	o'zingiz
خودشان	xo'deshon	o'zlari

این منظومه را خود مان ترجم کردیم.

In manzume ro xo'demon tarjo'me kardim

Bu dostonni o'zimiz tarjima qildik.

از شهر تهران خودم برگزستم.

Az shahr-e tehran xo'dam bar-gashtam

Tehron shahridan o'zim qaytdim.

کتاب زبان فارسی خودم را به او دادم.

Ketob-e zabon-e forsi-ye xo'dam ro be u dodam

Fors tili darsligimni unga berdim.

O'zbek tilida o'zlik olmoshidan keyin kelgan aniqlanmish doimo egalik qo'shimchalarini qabul qiladi (**kitobim**, **do'sti**, **ishlari**, **uyingiz** kabi). Fors tilida esa aniqlanmish hech qanday egalik qo'shimchalarini qabul qilmay, **خود** so'zi bilan oddiy izofa orqali birikadi. O'zbek tilidagi egalik ma'nosi fors tilida fe'lning shaxs-qo'shimchalari orqali ifodalanadi. Masalan:

آنها کارهای خود را تمام کردند.

Onho korho-ye xo'd ro tamom kardand

Ular o'z (o'zlarining) ishlarini tamom qildilar.

1 – topshiriq. Quyidagi fe'llarning yozilishi va talaffuzini o'rganing.

خوابیدن	xobidan	uxlamoq
خواندن	xondan	o'qimoq
خواستن	xostan	xohlamok, istamoq

2 – topshiriq. Quyidagi so'zlarga birlik va noaniqlik belgisini qo'yib yozing va o'qing.

دختر، دانشجو، هنرپیشه، روزنامه، کاغذ، صندلی، پزشک، رودخانه،
دریا، نویسنده، ساعت، شب، روز، مرد، مجله.

3 – topshiriq. Gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

O'rtog'im menga xat yozdi. U o'zi haqida so'zlab berdi. U o'z xonasini tozaladi. Universitet yonida bir chiroyli bog' joylashgan. Bugun biz mashhur shoir bilan uchrashdik. Bu imoratning orqasida bank joylashgan. Kecha men seni magazinda ko'rdim. Kecha do'stim darsga kelmadi. Daraxtning tepasiga bir qush qo'ndi. U o'z kitobini stoldan oldi. Darsdan so'ng hamma o'z uyiga ketdi.

4– topshiriq. Tekstni mustaqil o'qing, tarjima qiling hamda sodda va qo'shma fe'llarni aniqlang.

روزی پادشاهی با شاهزاده به شکار رفت. چون هوا گرم شد
پادشاه و شاهزاده قبای خود را کردند و روی دوش مسخره نهادند. پادشاه
گفت: ای مسخره بار یک خر روی دوش توست. مسخره جواب داد: بار
دو خر است.

کلمات

شکار	shekor	ov, shikor
قبا	qabo	kiyim, chopon
کندن	kandan	uzmoq, echmoq, qazimoq

dush دوش elka

masxare مسخره qiziqchi

bor بار yuk

4 - topshiriq. Berilgan matnni o'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

روزی شاعر فقیری پیش آدم متمولی رفت و چنین نزدیک او نشست که میان آنها یک وجب تفاوت بود. متمول از این خشمگین شد و از شاعر پرسید که میان تو و خر چه تفاوت است؟ شاعر جواب داد: یک وجب. متمول از این جواب خجل شد و از شاعر عذر خواست.

mo'tamavvel متمول boy kishi

vajab وجب qarich

faqir فقیر kambag'al

Uyga vazifa: Berilgan matnni o'qing, tarjima qiling, yangi so'zlarni yod oling yoye vaxat va yoye nakarelar bor jummlarni aniqlab, izohlab bering.

حکایت

روزی پادشاه ظالمی تنها از شهر بیرون رفت. شخصی را دید. از او پرسید: پادشاه این ملک ظالم است یا عادل؟ گفت: بسیار ظالم است. پادشاه گفت: مرا میشناسی؟ گفت: نخیر، نمیشناسم. گفت: من پادشاه این ملک هستم. آن شخص ترسید و پرسید: میدانی من

کیستم؟ پادشاه گفت : خیر، نمیدانم. گفت : من پسر فلان تاجر و هر ماه سه روز دیوانه میشوم. امروز یکی از آن سه روز است. پادشاه خندید و چیزی به او نگفت.

کلمات

bir kuni	ruzi	روزی
zolim podshoh	podshoh-e zolem	پادشاه ظالم
tanho, yolg'iz	tanho	تنها
tashqariga chiqmoq	birun raftan	بیرون رفتن
o'n birinchi dars	dars-e yozdaho'm	درس یازدهم
ko'rmoq	didan	دیدن
mulk, saltanat	mo'lk	ملک
zolim	zolem	ظالم
odil	odel'	عادل
taniysanmi	mishenosi	میشناسی
qo'rqmoq	tarsidan	ترسیدن
bilasanmi	midoni	میدانی
savdogar	tojer	تاجر
devona bo'lmoq	divone sho'dan	دیوانه شدن

UCHINCHI DARS

Mavzu: Vaqt va yoshning ifodalanishi

Maqsad: Vaqt va yoshning ifodalanishini qoʻllanilishini tushuntirish.

Darsning borishi: Tashkiliy qism (5 min.)

Uy vazifasini tekshirish Oʻtilgan mavzuni takrorlash. (20 min.)

Yangi tema: (30 min.)

Baholash: (20 min.)

Uyga vazifa: (5 min.)

Davomat tekshirilgach, uyga berilgan vazifa va daftarlar tekshiriladi va studentlar baholanadi. Soʻng yangi mavzu oʻtiladi.

Yangi tema: VAQT VA YOSHNING IFODALANISHI

Vaqtning soat orqali ifodalanishi

Fors tilida vaqt **ساعت** soat soʻzining son bilan birikuvi yordamida ifodalanadi. Bu birikmada soat miqdorini bildiruvchi soʻz oldin, **ساعت** soat soʻzi esa undan keyin keladi va **چند ساعت؟** chand soat? – Necha soat? degan savolga javob boʻladi. Masalan:

آنها چند ساعت کار کردند؟

onho chand soat kor kardand?

Ular necha soat ishladilar?

آنها چهار ساعت کار کردند.

onho chahor soat kor kardand

Ular toʻrt soat ishladilar.

ساعت soat soʻzi gapda ega va miqdorni bildiruvchi soʻz kesim boʻlib kelganda, miqdorni bildiruvchi soʻz kesimlikni ifodalovchi **است** ast booʻlmasini qabul qilib, egadan soʻng keladi va **ساعت چند است؟** soat chand ast? – Soat necha? degan savolga javob boʻladi. Masalan:

حالا ساعت چند است؟

holo soat chand ast?

Hozir soat necha?

حالا ساعت هفت است.

holo soat haft ast

Hozir soat etti.

Vaqtning muayyan bir paytini ifodalash uchun avval **ساعت** **soat** soʻzi, soʻng miqdorni bildiruvchi soʻz kelib, bir-birlari bilan izofa orqali birikadilar va **ساعت چند؟** **soat –e chand? - Soat nechada? key? کی** - **Qachon?** degan savollarga javob boʻladi. Masalan:

در دانشکده درس ساعت چند شروع میشود؟

dar doneshkade dars soat-e chand shoʻruʻ mishavad?

Fakultetda dars soat nechada boshlanadi?

در دانشکده درس ساعت هشت و نیم شروع میشود.

dar doneshkade dars soat-e hasht-oʻ nim shoʻruʻ mishavad

Fakultetda dars soat sakkiz yarimda boshlanadi.

S o a t n e c h a d a ? q a c h o n ? savollariga javob boʻlib kelgan bu birikma oʻzbek tilida oʻrin–payt kelishigining belgisi - **da** qoʻshimchasi orqali ifoda etilsa, fors tilida esa izofa orqali beriladi. Masalan:

ساعت شش **soat-e shesh** soat oltida

ساعت پنج **soat-e panj** soat beshda

ساعت دوازده **soat-e davozdah** soat oʻn ikkida

Vaqtning maʼlum paytini aniqroq koʻrsatish uchun koʻpincha **صبح** **soʻbh** (ertalab), **بعد از ظهر** **baʼd**

az zoʻhr (tushdan soʻng) **عصر** **ʼasr** (kech, kechqurun), **درست** **doʻroʻst** (rosa , xuddi) kabi soʻzlar ham

ishlatiladi. Bu soʻzlardan faqat **doʻroʻst** soʻzi vaqtni ifodalovchi birikma boshida, qolganlari esa birikma oxirida kelib, u bilan izofa orqali bogʻlanadilar. Masalan:

درست ساعت چهار

do‘ro‘st soat-e chahor

Rosa soat beshda

ساعت هفت صبح

soat-e haft-e so‘bh

Ertalabki soat ettida

ساعت هشت عصر

soat-e hasht-e asr

Kechki soat sakkizda

ساعت دو بعد از ظهر

soat-e do‘ ba‘d az zo‘hr

Tushdan so‘ng ikkida

VAQTNING SOAT VA MINUT ORQALI IFODALANISHI

Vaqtning soat va minutini ifodalash uchun avval soat, so‘ng minut miqdori keladi. Bu birikmada soat miqdori va minut miqdori **و** bog‘lovchisi orqali bog‘lanadi.

Agar minut miqdori 30 dan kam bo‘lsa, soat miqdoridan so‘ng shu soatdan o‘tgan minut miqdori keladi.
Masalan:

ساعت هفت و بیست دقیقه است.

soat haft-o‘ bist daqiqe ast

Soat ettidan yigirma daqiqa o‘tdi.

ساعت هشت و سیزده دقیقه است.

soat hasht-o‘ sizdah daqiqe ast

Soat sakkizdan o'n uch daqiqa o'tdi.

Agar minut miqdori 15 bo'lsa, 15 minut o'rniga ko'pincha **ربع ro'b'** (chorak) so'zi ishlatiladi. Masalan:

ساعت یازده و ربع است.

soat yozdah-o' ro'b' ast

Soat o'n birdan chorak (15 daqiqa) o'tdi.

ساعت هفت و ربع است.

soat haft-o' ro'b' ast

Soat ettidan chorak (15 daqiqa) o'tdi.

Agar minut miqdori 30 bo'lsa, 30 minut o'rnida **نیم nim** (yarim) so'zi ishlatiladi. Masalan:

ساعت هفت و نیم است.

soat haft-o' nim ast

Soat etti yarim.

ساعت یک و نیم است.

soat yek-o' nim ast

Soat bir yarim.

Agar minut miqdori 30 dan oshiq bo'lsa, soat miqdoridan so'ng shu soatga etishmagan minut miqdori va birikma oxiriga **کم kam** (kam) so'zi qo'yiladi. Masalan:

ساعت پنج و بیست دقیقه کم است.

soat panj-o' bist daqiqe kam ast

Soat yigirma minuti kam besh.

ساعت ده و ربع کم است.

soat dah-o' ro'b' kam ast

Soat chorakam o'n.

Vaqt bo'lagini ifodalovchi bu birikma o'zbek tilidagi ana shunday birikma tartibining aksini ko'ramiz. Ya'ni, o'zbek tilida avval minut miqdori, so'ng soat miqdori, so'ng soat miqdori ko'rsatilsa, fors tilida aksincha, avval soat, so'ng minut miqdori ifoda etiladi.

O'zbek tilida

Soat yigirma minuti kam besh.

Fors tilida

Soat panj - o' bist daqiqe kam ast.

E s l a t m a: ربع ro'b' va نیم nim so'zlari o'zbek tilidagidek ko'proq xalq tiliga oid bo'lib, adabiy tilda

asosan پانزده دقیقه ponzdah daqiqe (o'n besh minut) va سی دقیقه si daqiqe (o'ttiz minut) birikmalari

ishlatiladi. Masalan:

ساعت نه و پانزده دقیقه است.

Soat no'h-o' ponzdah daqiqe ast.

Soat to'qqizdan o'n besh daqiqa o'tdi.

ساعت سه و سی دقیقه است.

soat se-yo' si daqiqe ast

Soat uchdan o'ttiz daqiqa o'tdi.

doshtan (دار - dor) داشتن

(ega bo'lmoq, bor bo'lmoq) fe'li

Fors tilida hamma fe'llar hozirgi-kelasi zamonda tuslanganda می mi-old qo'shimchasini qabul qiladilar, lekin داشتن doshtan fe'li bundan mustasno bo'lib, bu qoidaga bo'ysunmaydi. داشتن doshtan fe'lidan hozirgi-

kelasi zamon shakli hozirgi zamon fe'l negizi (**dar**) ga shaxs-son qo'shimchalarini qo'shish orqali yasaladi va o'zbek tiliga **bor** so'zi hamda fe'l ifodalagan moliklikni bildiruvchi so'zga egalik qo'shimchalari qo'shib tarjima qilinadi. **doshtan** fe'lining hozirgi zamon o'zagi o'zbek tilidagi iste'molda bo'lgan forsiy o'zlashmalarda ham uchraydi. Masalan:

پولدور Puldor

عملدار Amaldor

حصه دار Hissador

Ma'no jihatidan rus tilidagi **imet** fe'liga yoki ingliz tilidagi **to have** fe'liga to'g'ri keladi. Masalan:

مفرد		
من روزنامه دارم.	Man ruznome doram	Mening gazetam bor.
تو روزنامه داری.	to' ruznome dori	Sening gazetang bor.
او روزنامه دارد.	u ruznome dorad	Uning gazetasi bor.

جمع		
ما روزنامه داریم.	mo ruznome dorim	Bizning gazetamiz bor.
شما روزنامه دارید.	sho'mo ruznome dorid	Sizning gazetangiz bor.
آنها روزنامه دارند.	onho ruznome dorand	Ularning gazetalari bor.

na- fe'lining hozirgi – kelasi zamon inkor shakli **doshtan** **داشتن** inkor yuklamasini qo'shish orqali yasaladi. Bunda urg'u **na-** inkor yuklamasiga tushadi. Masalan:

مفرد

من مجله ندارم.	Man majalle nadoram	Mening jurnalim yo‘q.
تو مجله نداری.	to‘ majalle nadori	Sening jurnalning yo‘q.
او مجله ندارد.	u majalle nadorad	Uning jurnali yo‘q.

جمع		
ما مجله نداریم.	mo majalle nadorim	Bizning jurnalimiz yo‘q.
شما مجله ندارید.	sho‘mo majalle nadorid	Sizning jurnalningiz yo‘q.
آنها مجله ندارند.	onho majalle nadorand	Ularning jurnal(lar)i yo‘q.

داشتن **doshtan** fe’li qo’shma fe’l tarkibida ko’makchi fe’l bo‘lib, kelsa **می** **mi-** old qo’shimchasini qabul qilishi mumkin. Masalan:

ما میهن خود را دوست میداریم.

mo mihan-e xo‘d ro dust midoram

Biz vatanimizni sevamiz.

YOSHNING IFODALANISHI

Fors tilida **سال** **sol** (yil, yosh) so‘zining **داشتن** **doshtan** fe’li bilan birikishi orqali yosh ifodalanadi. Masalan:

دوست من بیست سال دارد.

dust-e mann bist sol dorad

Do‘stim yigirma yoshda.

مادر بزرگ او شصت سال دارد.

modar-e bo‘zo‘rg-e u shast sol dorad

Uning buvisi oltmish yoshda.

Biror shaxsning necha yoshda ekanligini bilish uchun **سال** **sol** va

داشتن doshtan birikmasi oldiga **چند chand?** (necha?) so'roq olmoshi qo'yiladi. Masalan:

شما چند سال دارید؟

Sho'mo chand sol dorid?

Siz necha yoshdasiz?

من بیست و پنج سال دارم.

Man bist-o' panj sol doram.

Men yigirma besh yoshdaman.

مادر بزرگ تان چند سال دارد؟

Modar-e bo'zo'rgeton chand sol dorad?

Buvingiz necha yoshda?

مادر بزرگم هفتاد سال دارد.

Modar-e bo'zo'rgam haftod sol dorad.

Buvim etmish yoshda.

سال sol so'ziga **-e** qo'shimchasi qo'shish orqali undan **nisbiy sifat** yasaladi va o'zbek tiliga **yashar, yillik** deb tarjima qilinadi. Masalan:

ما هفتاد سالگی دانشگاه را جشن میگیریم.

Mo haftod solegi-ye doneshgoh ro jashn migirim.

Biz universitetning etmish yilligini bayram qilamiz.

خواهر بزرگم دختر چهار ساله دارد.

Xohar-e bo'zo'rgam do'xtar-e chahorsole dorad.

دیگر DIGAR VA یک YEK SO'ZLARINING MA'NOSI

دیگر digar (boshqa) یک yek (bir) so'zlariga urg'usiz ی i qo'shimchasini qo'shish orqali gapda qayd etilgan predmet yoki shaxslardan birini ajratib ko'rsatish ma'nosi ifodalanadi: Masalan:

دیگری Digari boshqasi

یکی Yeki biri

ت من دو برادر دارد. یکی دانشیار است و در دانشکده

نامه نگاری بین المللی کار میکند و دیگری محرر است و در

یات روزنامه "ترکستان" کار میکند.

Dust-e man du berodar dorad. Yeki doneshyor ast va dar doneshkade-ye ruznomenegori-ye beyno'lm kor miko'nad va digari mo'harrer ast va dar nashriyot-e ruznome-ye «Turkiston» kor miko'nad.

Do'stimning ikki akasi bor. Biri o'qituvchidir va xalqaro jurnalistika fakultetida ishlaydi. Ikkinchisi muharri «Turkiston» gazetasi nashriyotida ishlaydi.

اھر من دو پسر دارد: یکی یازده سال دارد، دیگری نه ساله است.

Xohar-e man du pesar dorad: yeki yozdah sol dorad, digari no'h sole ast

Opamning ikki o'g'li bor: biri o'n bir yoshda, ikkinchisi to'qqiz yashardir.

Berilgan matnni o'zbek tiliga tarjima qiling

نطیفه

وزی مردم از ملا نصرالدین پرسیدند: آقای ملا نصرالدین ما را
خشید، شما چند سال دارید؟ ملا جواب داد: چهل سال دارم. بعد از
، سال پرسیدند که چند سال دارید؟ ملا این بار هم جواب داد: چهل

سال. مردمان تعجب کردند و به ملا نصرالدین گفتند: شما ده سال قبل گفتید چهل سال دارم، حالا هم میگوئید چهل سال. ملا گفت: حرف مرد یکیست. اگر هزار سال بعد هم بپرسید چهل سال خواهم گفت.

1 – topshiriq. Quyidagi gaplarni fors tiliga tarjima qiling.

Mening besh yashar singlim bor. Bu kitob kutubxonanikidir. Akangiz necha yoshda? Akam o‘ttiz yoshda. O‘zingiz necha yoshdasiz? Men yigirma yoshdaman. Meni tog‘am o‘z oilasi bilan chet elda yashaydi. Fakultet kutubxonasida arabcha, forsha, hindcha, inglizcha va ruscha lug‘atlar bor. O‘zbekistonda turli millat vakillari yashaydi. Bu talaba hind tilini yaxshi biladi. Auditoriyada shkaf, doska, stol va stullar bor. Mening xonamda kitob javoni, kompyuter, stol, stul va shkaf bor. Men dam olish kunlari o‘rtoqlarim bilan dam olish uchun shahar tashqarisiga chiqaman. Sizning bog‘ingizda qanday mevali daraxtlar bor? Bizning bog‘imizda anor, anjir, tut, gilos, olma, xurmo va boshqa daraxtlar bor. Bizning fakultetimizda “Fors tili va adabiyoti” o‘qitish xonasi bor. Sizning akangiz ishlaydimi? Yo‘q, mening akam universitetda o‘qiydi.

2 – topshiriq. Quyidagi terminlarni yod oling va ular yordamida 10 ta gap tuzing.

خانواده	Xonevode	oila
برادر بزرگ	barodar-e bo‘zo‘rg	aka
برادر کوچک	barodar-e kuchek	uka
خواهر بزرگ	xohar-e bo‘zo‘rg	opa
خواهر کوچک	xohar-e kuchek	singil
پدر و مادر	pedar-o‘ modar	ota-ona
دوشیزه	dushize	qiz (bo‘yi etgan)
پسر	pesar	o‘g‘il bola
پدر بزرگ	pedar-e bo‘zo‘rg	bobo, buva
مادر بزرگ	modar-e bo‘zo‘rg	buvi
مادر زن	modarzan	qaynona

پدر زن	pedarzan	qaynota
خاله	xole	xola
عمه	amme	amma
عمو	amu	amaki
دائی	doi	tog'a
خواهرزاده	xoharzode	jiyan (opa tomondan)
برادرزاده	barodarzode	jiyan (aka tomondan)
زن	zan	ayol, xotin
شوهر	sho'uhar	er
عروس	'arus	kelin
داماد	Domod	kuyov
برادرتنی	Barodartani	tug'ishgan aka-uka
خواهرتنی	Xohartani	tug'ishgan opa-singil
زائیدن	Zoidan	tug'moq
مجرد	mo'jarrad	bo'ydoq, uylanmagan
متاهل	mo'taahhel	uylangan, oilali
زبان مادری	zabon-e modari	ona tili

3– topshiriq. Maqollarni tarjima qiling va yod oling.

- ۱ داشتم داشتم حساب نیست، دارم دارم حساب است.
- ۲ دیوار موش دارد، موش گوش دارد.
- ۳ صبر تلخ است و لیکن بر شیرین دارد.
- ۴ سیر از حال گرسنه خبر ندارد.

Soat o'n ikkida. Soat uchdan yigirma minut o'tganda. Ertalab soat oltida. Rosa soat to'rtida. Tushdan so'ng soat beshda. Kechqurun soat sakkizda. Soat o'ndan o'n minut o'tganda. Soat o'nta kam ettida. Tushdan so'ng soat to'rt yarimda. Ertalab soat to'qqizda. Soat birdan yigirma etti minut o'tdi. Kech soat o'nda. Tushdan so'ng soat chorakam beshda. Soat besh minuti kam ikki. Rosa soat birda.

Uyga vazifa: Quyidagi tekstni o'qing, tarjima qiling, yangi so'zlar lug'atini yozing va yodlang. Matnni gapirib bering.

خانواده ما

خانواده ما از هشت نفر عبارت است. من، پدر بزرگ و مادر بزرگ، پدر و مادر، دو برادر بزرگ و دو خواهر کوچک دارم. پدر بزرگ و مادر بزرگم بازنشسته هستند. پدر من دانشیار دانشگاه اقتصادی جهانی است. مادرم دانشیار است و در یکی از دانشگاه‌های شهر تاشکند تدریس میکند. یکی از برادران بزرگم پزشک است و در یکی از بیمارستانهای شهر قوقان کار میکند. او با زن و پسر پنج ساله خود در شهر قوقان زندگی میکند. برادر دیگرم در دانشکده تاریخ فرهنگستان علوم ازبکستان کار میکند. او هنوز جوان است و زن ندارد. خواهر بزرگم بیست سال دارد. او دانشجوی سال دوم دانشگاه دیپلوماسی (سیاسی) ازبکستان است. خواهر کوچکم دوازده سال دارد. او دانش آموز است و در دبیرستان تحصیل میکند. من دانشجوی سال سوم دانشکده زبان و ادبیات ازبکی دانشگاه تعلیم و تربیتی معلمین دولتی تاشکند به نام نظامی هستم. من هجده سال دارم. پسر برادر بزرگم سه سال است و او به کودکستان میرود. منزل ما در خیابان بابر واقع است. ما پنج اتاق داریم. یک اتاق مال من است. اتاق من کوچک ولی خیلی روشن است و یک پنجره بزرگ دارد. اتاقم میز تحریر، ساعت دیواری، قفسه کتاب، تختخواب و دو صندلی دارد. در طرف راست دیوار اتاقم عکس مادرم و طرف چپ نقشه‌های جمهوری ازبکستان و ایران آویزان است. در قفسه کتاب من کتابهای فارسی، عربی، هندی، فرانسوی، انگلیسی، روسی و ازبکی وجود دارد.

من چند نفر رفیق و دوست دارم. آنها روزهای تعطیل پیش من میایند و ما با هم به سینما یا برای تماشای مسابقه های فوتبال به ورزشگاه میرویم.

پشت خانه ما باغ بابور است که درختان پرسایه دارد. روزهای تابستان هنگامیکه هوا گرم میشود اغلب ما در این باغ زیر درختها استراحت میکنیم.

در شهر تاشکند قوم و خویش هم داریم. آنها بکارهای گوناگون مشغولند. بعضی روزها آنها به خانه ما میایند یا ما را به مهمانی به خانه خود دعوت میکنند. ما در تابستان روزهای تعطیل بیرون شهر میرویم و ما تمام روز را در آنجا به گردش و هواخوری میگذرانیم.

کلمات

o'zbekcha	o'zbaki	ازبکی
ko'p, ko'pincha	ag'lab	اغلب
o'rta maktab o'qituvchisi	Omuzgor	آموزگار
inglizcha	Englisi	انگلیسی
osilgan, osig'liq	ovizon ast	آویزان است
birga	bo ham	با هم
pensioner	Bozneshaste	بازنشسته
mehmondorchilikka taklif etmoq	be mehmoni da'vat kardan	به مهمان دعوت کردن
shahar tashqarisi	birun-e shahr	بیرون شهر
soyali, sersoya	po'rsoye	پرسایه
krovat	Taxtexob	تختخواب
butun, hamma	Tamom	تمام
bir qancha, bir nechta	Chandin	چندین

oila	Xonevode	خانواده
chaqirmoq, taklif qilmoq	da'vat kardan	دعوت کردن
diplomatiya	Diplomosi	دیپلوماسی
o'ng, to'g'ri, rost	Rost	راست
ruscha	Rusi	روسی
tilshunoslik	Zabonshenosi	زبانشناسی
yashamoq	zendegi kardan	زندگی کردن
tomon, taraf	Taraf	طرف
chap tomon	taraf-e chap	طرف چپ
o'ng tomon	taraf-e rost	طرف راست
surat, rasm, aks	'aks	عکس
luo'at	Farhang	فرهنگ
forscha-ruscha lug'at	farhang-e forsi be rusi	فرهنگ فارسی به روسی
kitob shkafi	qafase-ye ketob	قفسه کتاب
qavmu qarindosh	qo'um-o' xish	قوم و خویش
o'tkazmoq	go'zaronidan	گذرانیدن
har xil, turli	Gunogun	گوناگون
mutolaa qilmoq, o'qimoq	mo'tole' kardan	متالعه کردن
futbol musobaqasi, futbol o'yini	mo'sobaqe-ye futbol	مسابقه فوتبال
yozuv stoli	miz-e tahrir	میز تحریر
jon, nafar, tan	Nafar	نفر
xarita	Naqshe	نقشه
...gan vaqtda, ...gan paytda	hangomi-ke	هنگامیکه
hali, hali ham, hanuz	Hanuz	هنوز
havo olmoq, sayohat qilmoq	havoxo'ri kardan	هواخوری کردن

Odatda ikki predmetni bir-biri bilan chogʻishtirish analitik yoʻl bilan olib boriladi. Bunda chogʻishtiriluvchi predmet **از az** predlogini qabul qilib, undan soʻng kelgan sifat **تر -tar** qoʻshimchasi bilan keladi. Masalan:

از نان حسیس ستاره نزدیکتر است.

az non-e xasis setore nazdiktar ast

Xasis nonidan yulduz yaqinroqdir.

Oʻzbek tilida ham **تر** qoʻshimchasi orqali yasalgan sifat darajalari ham uchraydi. Masalan: *battar, kamtar...*

3. Orttirma daraja oddiy darajadagi sifatlarning oxiriga **ترین -tarin** qoʻshimchasi ni qoʻshish orqali yasaladi. Masalan:

tarjimasi	orttirma sifat darajasi	=	qoʻshimcha	+	oddiy sifat darajasi
juda oz	کمترین	=	ترین	+	کم

مهمترین

moʻhemtarin

eng muhim, juda muhim

درازترین

Deroztarin

juda uzun, eng uzun

زیباترین

Zibotarin

eng chiroyli, juda chiroyli

I z o h: **خوب xub** sifatining qiyosiy va orttirma darajalari shu soʻzning ekvivalanti boʻlmish **به beh** soʻzidan hosil qilinadi. Masalan:

خوب

Xub

yaxshi

بهتر

Behtar

yaxshiroq

بهترین

Behtarin

eng yaxshi, juda yaxshi

Baʼzan qiyosiy darajada **تر -tar** qoʻshimchasi tushib qolishi ham mumkin. Bu holda **به beh** soʻzining oʻzi qiyosiy maʼnosini bildiradi. Masalan:

نام بلند به از بام بلند.

nom-e bo‘land beh az bom-e bo‘land

Baland nom baland tomdan yaxshiroq.

Orttirma darajadagi sifat gapda aniqlovchi vazifasida kelib, aniqlanmish bilan izofasiz, oddiy yondashish orqali birikadi. Masalan:

بهترین دانشجو

behtarin doneshju

eng yaxshi talaba

Aniqlanmish ko‘plik shaklida ham kelishi mumkin. Masalan:

جلال و احمد بهترین دانشجویان شعبه ما است.

Jalol va Ahmad behtarin doneshjuyon-e sho‘‘be-ye most

Jalol va Ahmad bo‘limimizning eng yaxshi talabalaridir.

Ba‘zi vaqtlarda orttirma darajadagi sifat (**aniqlovchi**) o‘zidan keyingi so‘z (**aniqlanmish**) bilan izofa orqali birikishi ham mumkin. Bu holda sifat o‘zidan keyin kelgan so‘zni ko‘plik shaklida kelishini talab qilib, bir jinsdagi predmetlardan birini yoki bir nechtasini ajratib ko‘rsatish ma’nosini anglatadi. Masalan:

بهترین انگورها حسینی است.

behtarin-e angurho husayni ast

Uzumlarning eng yaxshisi – husaynidir.

جلال نزدیکترین برادران کوچک من است.

Jalol nazdiktarin-e barodaron-e kuchek-e man ast

Jalol ukalarim orasida menga eng yaqinidir.

Shunday qilib, orttirma darajadagi sifatdan so‘ng kelgan so‘z ko‘plik shaklida bo‘lsa, ikki xil o‘qilishi va ikki ma’noda bo‘lishi mumkin. Masalan:

این قشنگترین خیابانهای تاشکند است.

Yuqoridagi jumlaning ikki xil o‘qilish mumkin:

birinchisi; orttirma darajali sifatdan so‘ng izofa qo‘ymay, ketidagi so‘z bilan oddiy bitishuv orqali (**قشنگترین**

خیابانها qashangtarin xiyobonho),

ikkinchisi; orttirma darajali sifatdan soʻng izofa qoʻyib, oʻzidan soʻng kelgan soʻz bilan izofa orqali biriktirib (قشنگترین خیابانها qashangtarin-e xiyobonho) oʻqish mumkin.

Bundan tashqari, orttirma darajadagi sifatni izofali yoki izofasiz oʻqilishining maʼno jihatdan ham katta farqi bor. Masalan:

این قشنگترین خیابانهای تاشکند است.

in qashangtarin xiyobonho-ye Toshkand ast

Bu – Toshkentning eng chiroyli koʻchalari.

این قشنگترین خیابانهای تاشکند است.

in qashangtarin-e xiyobonho-ye Toshkand ast

Bu – Toshkent koʻchalarining eng chiroylisi.

Bu ikki gapning yozilishida hech qanday farq boʻlmasa ham, lekin orttirma darajadagi sifatni izofali yoki izofasiz oʻqilishiga qarab, maʼno jihatidan birlaridan farqlari borligini koʻramiz. **Birinchi gapda** (orttirma darajadagi sifat izofasiz kelganda) bir jinsdagi predmetlarning eng yuqori sifati haqida xabar berilsa, **ikkinchi gapda** (orttirma darajadagi sifat izofali kelganda) yuqori sifatga ega boʻlgan shu jinsdagi predmetlardan biri ajratib koʻrsatilganligi haqida bayon qilinadi.

Koʻpincha bir xil sifatga ega boʻlgan bir jinsdagi predmetlardan bir yoki bir nechtasini ajratib koʻrsatish uchun orttirma darajadagi sifat oldida **از az** predlogi yo **یکی yeki az** birikmasining kelishi ham mumkin. Bu holda orttirma darajadagi sifat ortidan kelgan soʻz koʻplik shaklida boʻladi va ular izofa orqali emas, birikuv orqali bogʻlanadilar. Masalan:

سعدی و حافظ از برجسته ترین شعرای قرن چهاردهم.

Saʼdi va Hofez az barjastetarin shoʻʼaro-ye qarn-e chahordahoʻmand

Saʼdiy va Hofiz XIV asrning eng mashhur shoirlaridandir.

شهر سمرقند یکی از بزرگترین شهرهای ازبکستان است.

shahr-e Samarqand yeki az shaharho-ye bo'zo'rgtarin-e O'zbekiston ast

Samarqand shahri O'zbekistonning eng kata shaharlaridan biridir.

Berilgan mashqlarni shartiga ko'ra bajaring. **1 – topshiriq.** Quyidagi sifatlardan qiyosiy va orttirma darajali sifatlarni hosil qiling.

گرم garm	issiq	بزرگ bo'zo'rg	katta
سیاه siyoh	qora	زیبا zibo	chiroyli
شیرین shirin	shirin	تلخ talx	achchiq
نزدیک nazdik	yaqin	جوان javon	yosh

2 – topshiriq. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan sifatlarni tegishli sifat darajalarini qo'yib gaplarni ko'chirib yozing.

شهر سمرقند یکی از (زیبا) شهرهای ازبکستان است. زبان فارسی یکی از (شیرین) زبانهای دنیاست. جلال یکی از (خوب، به) دانشجویان کلاس ما است. رودخانه امودریا یکی از (بزرگ) رودخانه های جمهوری ازبکستان است. من چند برادر دارم، (کوچک) آنها فقط ۷ سال دارد. در شهر تاشکند انواع وسائل نقلیه وجود دارد، (مهم) آنها مترو است.

Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabani mustaqil ishi o'quv rejasida «Fors tili» fanini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- seminar va amaliy mashfulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- Internet ma'lumotlaridan foydalanish va b.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashfulotlarini olib boradigan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba uchun fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra professori tomonidan o'quv mashfulotini bevosita olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda tuziladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishini bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmoqidagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

«Fors tili» fani bo'yicha talabalarning mustaqil ishlari o'quv semestri davomida tekshirilib, har bir nazorat maksimal "15" ball bilan baholanishi mumkin. Semestr yakunida mustaqil ish natijalari umumiy reyting baliga qo'shiladi.

Talabalar mustaqil ta'limining mazmuni

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Berilgan topshiriqlar	Bajar.muddat	Xajmi (soatda)
1	Fors tili faniga kirish	Konspekt yozish, Ifodali o'qish Uyga vazifalarni bajarish Jumlar tuzish Grammatik qoidalarini mustahkamlash. Uyga vazifalarni bajarish.	1,2- haftalar	5
2	Fonetika	Konspekt yozish, Ifodali o'qish Uyga vazifalarni bajarish Jumlar tuzish Grammatik qoidalarini mustahkamlash.Uyga vazifalarni bajarish.	3,4-haftalar	5
3	Grafika	Husniyat Matnni o'qiy bilish Lurat boyligi ya'ni forscha so'zlarni yodlash va so'zlashishda ishlata bilish	5,6- haftalar	5
4	Morfologiya Ot	Matnni tarjima qila olish Konspekt yozish Uyga berilgan vazifalarni bajarish	7,8- haftalar	5
5	Sifat	Grammatik qoidalarini mustahkamlash. Konspekt yozish,Ifodali o'qish Uyga vazifalarni bajarish Jumlar tuzish	9,10- haftalar	5

6	Olmosh	Uyga vazifalarni bajarish. Xatosiz va xusnixat qoidalariga mos yozish	11, 12- haftalar	5
7	Son	Konspekt yozish, Ifodali o'qish Uyga vazifalarni bajarish Jumlar tuzish Grammatik qoidalarini mustahkamlash. Uyga vazifalarni bajarish	13, 14- haftalar	5
8	Fe'l	Husniyat Matnini o'qiy bilish Lurat boyligi ya'ni forscha so'zlarni yodlash va so'zlashishda ishlata bilish Uyga vazifalarni bajarish	15- hafta	5
9	Ko'makchi	Grammatik qoidalarini mustahkamlash. Konspekt yozish, Ifodali o'qish Uyga vazifalarni bajarish Jumlar tuzish	16- hafta	6
		Jami		56

“FORS TILI” FANI BO‘YIDA GLOSSARIYSI

Tanvin – kelishik qo‘shimchasi hamda so‘zning noaniq holatda ekanligini ko‘rsatuvchi belgi.
Tashdid – ikkilanish belgisi. So‘z o‘rtasi yoki oxirida ikki undosh harf ketma-ket kelib, ularning birinchisi hech qanday qisqa unli tovushi bilan ifodalanmagan holda undosh harfning bittasi yoziladi va ustiga tashdid belgisi qo‘yiladi va o‘qilganda harf ikkilanib talaffuz qilinadi.

Hamza – arab alifbosiga kirmagan undosh tovush. Yozuvda (ء) belgisi bilan ifodalanadi.

Qat'iy hamza –odatda so‘z o‘rtasi va oxirida ى, ۋ, ۋ harflari, so‘z boshida esa faqat ا harfi ustiga qo‘yiladi hamza tovushi.

Vaslali hamza – hamzaning yana bir turi bo‘lib (ؤ) so‘z boshidagina ishlatiladi va ا harfining ustiga qo‘yiladi hamda ikki so‘zning bir-biriga bog‘lab o‘qilish uchun “ko‘prik” vazifasini o‘taydi.

Muzakkar – erkak jinsiga oid so‘zlarni bildiruvchi atama.

Muannas – ayol jinsiga oid so‘zlarni bildiruvchi atama.

Birikma olmoshi – o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchasi.

Izofa – qaratqich va qaralmish birikmasi.

Bob – fe'l shakllariga nisbatan qo‘llaniladi.

Ism – ot, sifat, son, sifat-dosh va olmoshlarni qamrab oluvchi so‘z turkumi.

Harf – aniqlik artikli, ko‘makchilar, bog‘lovchilar va undovni o‘z ichiga oluvchi so‘z turkumi.

Ikkilangan o‘zak – uch harfli o‘zakning ikkinchi va uchinchi harflari bir xil undoshdan iborat bo‘lgan o‘zak turi.

Noqis o‘zak – o‘zak tarkibida “noqis harflar” (ۋ, ۋ, ا) dan biri ishtirok etgan o‘zak turi.

Sog‘lom o‘zak – o‘zak tarkibida “noqis harflar” (ۋ, ۋ, ا), hamza (ء) uchramaydigan hamda ikkinchi va uchinchi harflari bir xil undoshdan iborat bo‘lmagan o‘zak turi.

Vazn – so‘zlarni muayyan shaklga soluvchi qolip.

Shamsiy (quyosh) harf – so‘zning birinchi harfi bo‘lib, aniqlik artikli (ال) qo‘shilganda artiklning ikkinchi harfini yutib yuborish hisobiga ikkilanib o‘qiladigan harf turi.

Siniq ko‘plik – so‘zning tarkibi buzilishi, ya‘ni o‘zak harflar orasiga boshqa harflar qo‘shilishi orqali yasaladigan ko‘plik turi. Bunda o‘zak harflar tushib qolmaydi va ularning tartibi o‘zgarmaydi.

Moslashgan aniqlovchi – aniqlovchi bilan aniqlanmish sonda, jinsda, kelishikda va holatda (aniq yoki noaniq) bir-biri bilan to‘la moslashgan birikma turi.

Moslashmagan aniqlovchi – izofaga qarang.

Abjad – son tushunchasini harflar bilan ifoda etish.

Alif maqsura – yozuvda yoziladi, ammo talaffuz qilinmaydi.

Izofa – aniqlovchi va aniqlanmish, qaratqich va qaralmish munosabatlarini ifodalovchi tushuncha.

Madda – arab satr ustki belgisi, harfni cho‘zib o‘qishga ishora qiladi.

Muttasil harflar – har ikki tomondan qo‘shilib yoziluvchi harflar.

Munfasil harflar – o‘zidan oldingi harfga qo‘shilib, keyingisiga qo‘shilmaydigan harflar.

Qamariy harflar – arabcha oy harflari, ular 14 ta.

Sukun – arab satr ustki belgisi, undosh harf ustiga qo‘yiladi.

Zamma – arab satr usti belgisi, qisqa u- unlisini bildiradi.

Tanvin – kelishik qo‘shimchasi hamda so‘zning noaniq holatda ekanligini ko‘rsatuvchi belgi.

Tashdid – ikkilanishbelgisi. So‘zo‘rtasiyokioxiridaikkiundoshharfketma-ketkelib, ularningbirinchisihechqandayqisqaunlitovushibilanifodalanmaganholdaundoshharfningbitta siyoziladivaustigatashdidbelgisiqo‘yladivao‘qilgandaharfikkilanibtalaffuzqilinadi.

Hamza – arabalifbosigakirmaganundoshtovush. Yozuvda (ء) belgisibilanifodalanadi.

Qat’iyhamza –odatdaso‘zo‘rtasivaoxirida), ى, ۋharflari, so‘zboshidaesafaqat)harfiustigaqo‘yladihamzatovushi.

Vaslalihamza – hamzaningyanabirturibo‘lib (ِ) so‘zboshidaginaishlatiladiva)harfiningustigaqo‘yladihamdaikkiso‘zningbir-birigabog‘labo‘qilishuchun “ko‘prik” vazifasinio‘taydi.

Muzakkar – erkakjinsigaoidso‘zlarnibildiruvchiatama.

Muannas – ayoljinsigaoidso‘zlarnibildiruvchiatama.

Birikmaolmoshi – o‘zbektilidagiegalikqo‘shimchasi.

Izofa – qaratqichvaqaralmishbirikmasi.

Bob – fe’lshakllariganisbatanqo‘llaniladi.

Ism – ot, sifat, son, sifatdoshvaolmoshlarniqamraboluvchiso‘zturkumi.

Harf – aniqlikartikli, ko‘makchilar, bog‘lovchilarvaundovnio‘zichigaoluvchiso‘zturkumi.

Fe’l – fe’lningbarchashakllarinio‘zichigaoluvchiso‘zturkumi.

Ikkilangano‘zak – uchharfli)zakningikkinchivauchinchiharflaribirxilundoshdaniboratbo‘lgano‘zakturi.

Noqiso‘zak – o‘zaktarkibida “noqisharflar” (ۋ, ى, ِ) danbiriishtiroketgano‘zakturi.

Sog‘lomo‘zak – o‘zaktarkibida “noqisharflar” (ۋ, ى, ِ) uchramaydiganhamdaikkinchivauchinchiharflaribirxilundoshdaniboratbo‘lmagano‘zakturi.

Vazn – so‘zlarnimuayyanshaklgasoluvchiqolip.

Shamsiy (quyosh) harf – so‘zningbirinchiharfibo‘lib, aniqlikartikli (ۋ) qo‘shilgandaartiklningikinchiharfiniyutibyorishhisobigaikkilanibo‘qiladiganharfturi.

Siniqko‘plik – so‘zningtarkibibuzilishi, ya’nio‘zakharflarorasigaboshqaharflarqo‘shilishiorqaliyasaladiganko‘plikturi.

Bundao‘zakharflartushibqolmaydivaularningtartibio‘zgarmaydi.

Moslashgananiqlovchi – aniqlovchibilananiqlanmishsonda, jinsda, kelishikdavaaholatda (aniqyokinoaniq) bir-biribilanto‘lamoslashganbirikmaturi.

Moslashmagananiqlovchi – izofagaqarang.

Masdar – otlashganfe’l.

Abjad-sontushunchasiniharflarbilanifodaetish.

Alifimaqsura – yozuvdayoziladi, ammotalaffuzqilinmaydi.

Izg‘i –arabalifbosidagizoharfi.

Izofa– aniqlovchivaaniqlanmish, qaratqichvaqaralmishmunosabatlariniifodalovchitushuncha.

Isloh– tuzatish, o‘zgartirishdeganma’nonianglatadi.

Itqi– arabalifbosidagitoharfi.

Kalligrafiya– tubma’nosihusnixat,chiroyliyozyuvdegani.

Kasiba– to‘rtyildabirmartakeladigan 29 kunlikfevraloyi.
 Kasra– arabsatrustibelgisi, qisqai- unlisinibildiradi.
 Kotib– yozuvbilanshug‘ullanuvchishaxs.
 Lutf– yumshoq, yaxshimuomila.
 Madda– arabsatrustkibelgisi, harfnicho‘zibo‘qishgaishoraqiladi.
 Ma‘qaliy– arabxatituri.
 Muttasilharflar – harikkitomondanqo‘shilibyoziluvchiharflar.
 Mo‘nfasilharflar – o‘zidanoldingiharfgaqo‘shilib, keyingisigaqo‘shilmaydiganharflar.
 Nasx– arabxatituri, “to‘g‘ri” deganma‘nonibildiradi.
 Qamariyharflar – arabchaoyharflari, ular 14 ta.
 Riqo – arabxatituri.
 Sukun – arabsatrustkibelgisi, undoshharfustigaqo‘yiladi.
 Suls– arabxatituriibo‘libarabtilida “uchdanbir” deganma‘nonianglatadi.
 So‘g‘d (Opomiy) – O‘rtaOsiyodagiqadimgiyozuvturiidir.
 Tanvin– arabsatrustibelgisi, alifharfigaqo‘yiladi, fathalitanvin-ano‘qiladi, kasralitanvin-in, zammalitanvin-uno‘qiladi.
 Tashdid– arabsatrustibelgisi, “kuchaytirish” deganma‘noniifodalab, bubelgiostidagiundoshikkilantiribo‘qiladi.
 Translitteratsiya– muayyanbixalqalifbosiasosidagixatniikkinchibixalqimlosigao‘tkazishdir.
 Tildantilgao‘girishtarjimabo‘lsa, biralfavitdanikkinchialfavitgao‘tkazishtranslitteratsiyadir.
 Uyg‘uryozuvi – O‘rtaOsiyodagiqadimgiyozuvturi.
 Vasla– arabsatrustibelgisi, “qo‘shish” deganbildiradi, anqlikshaklinibildiradi.
 Xattot-arabimlosidachiroylihusnixatbilanyozuvchikishidir.
 Xorazmyozuvi – O‘rtaOsiyodagiqadimkgiyozuvturi.
 Yozuv –insoniyattafakkuriyaratganma‘naviyboyliklarniasrlardanasrlarga, avlodlardanavlodlarga yetkazuvchibebahovosita. Uinsonningengoliykashfiyotlaridanbiri.
 Zamma – arabsatrustibelgisi, qisqau- unlisinibildiradi.
 O‘rxun-enasoy – O‘rtaOsiyodagiqadimgiyozuvturi.
 Shamsiyharflar – arabchaquyoshharflari, al-artiklidankeyinikkilantiriladi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi

№ BD-5111200-307
2014-yil "10" 11



Vazirlikning 2014-yil 13
11 11 -sonli buyrug'i bilan
tasdiqlangan

ESKI O'ZBEK YOZUVI PRAKTIKUMI VA SHARQ TILLARI
fan dasturi

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 - Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5111200 - O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent – 2014

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishi bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2014-yil "____" _____dagi "____" -son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi TDPUda ishlab chiqildi va turdosh oliy ta'lim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar:

M.Rahmatov - filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Z.Xidraliyeva - o'qituvchi
D.Saidova - katta o'qituvchi
A.G'oziyev - o'qituvchi

Taqrizchilar:

A.Hasanov – Qo'qon DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

D.Mustafoyeva – Nizomiy nomidagi TDPU qoshidagi ALning O'zbek tili kafedrasini mudiri

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2014-yil «____» _____dagi ____-sonli bayonnoma).

Kirish

Arab alifbosi asosidagi o'zbek yozuvi qariyb 1000 yil davomida iste'molda bo'lib kelganligi barchaga

ma'lum. Bu yozuv milliy qadriyatimiz belgilaridan biridir. Istiqlolni kutib olgan "Davlat tili to'g'risidagi qonun"da bu yozuv milliy qadriyatlarimizga aylanib qolganligi o'z ifodasini to'g'ri topgan va uning 16-moddasida eski o'zbek yozuvini o'rganishga davlat ahamiyati berilgan. Bu qonun eski o'zbek yozuvini oliy o'quv yurtlarida, o'rta maxsus o'quv yurtlarida, maktablarda ommaviy ravishda o'qitilishi lozimligini hamda shu sohada mutaxassislar tayyorlash ishiga jiddiy e'tibor berilishini kun tartibiga qo'ydi. Shu qonunning ijrosi sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasalarining filologiya, tarix yo'nalishlari o'quv rejalaridan «Eski o'zbek tili va yozuvi praktikumi» kursi o'rin oldi. Bu tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligining 1990-yil 16-apreldagi 122-sonli buyrug'iga asosan amalga oshirildi.

Shuni aytish lozimki, ko'rsatilgan bakalavriat yo'nalishlari namunaviy o'quv rejalarida «Eski o'zbek yozuvi va sharq tillari» kursi soatlari xilma-xil bo'lsa-da, ushbu dasturdagi mazmun ishchi (joriy) o'quv dasturida moslashtirilgan holda rejalashtirilishi lozim bo'ldi.

Bu dastur hozirga qadar e'lon qilingan dasturlardan farqli tomonlarga ega. Ya'ni biz ko'p yillik tajribani hisobga olib harf o'rgatish qismida alifbo tartibini emas, balki bu yozuvni tezroq va osonroq o'rgatish hamda o'rganishni ko'zda tutgan tartibni saqladik.

Dastur mufradot, murakkabot, imlo, eski o'zbek yozuvi bilan bog'liq boshqa masalalarni, matnni izohli o'qish, matnshunoslik va manbashunoslikni ham o'z ichiga oladi.

Eski o'zbek yozuvi matnlari to XX asrning 20-yillariga qadar bo'lgan katta davrda asosan qo'lyozmalardan iborat bo'lganligi barchaga ma'lum, talabalar tomonidan qo'lyozmalarni erkin o'qib keta olishni ta'minlash maqsadida bu kurs yakunida talaba yakka tartibda mustaqil ish bajarishi albatta shart.

Fanning maqsadi va vazifalari

- eski o'zbek yozuvining asosiy xususiyatlarini egallash va uni o'quvchilarga o'rgata olish ;
- eski o'zbek yozuvi va harfiy san'atlar munosabatini chuqur his qilish;
- harflarning yozilish sirlarini, eski o'zbek tilidagi fors va arab tili xususiyatlarini farqlay olish;
- eski o'zbek tilining imloviy xususiyatlarini to'la egallash;
- hozirgi davrdagi eski o'zbek yozuvida e'lon qilinayotgan matnlarning imlo va tinish belgilari tizimini o'zlashtirib olishi zarur.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

- eski o'zbek yozuvi, o'zbek yozma manbalari;
- yozuv turlari, yozuv bilan bog'liq hisob turlari;
- o'zbek kitobotchiligi va matbaachiligi tarixi, matnshunoslik va manbashunoslik;
- arab-fors yozuvi va undagi harflar hamda ularning yozuvdagi xususiyatlari. Arab va fors tili fonetikasi, leksikasi, morfologiyasi va sintaksisi;
- o'zlashma izofalar (sodda so'z birikmasi) va izofa zanjiri (murakkab so'z birikmasi). Arab va fors tilidagi gap bo'laklari (ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) haqida **bilimga**;
- arab yozuvi asosidagi eski o'zbek yozuvi alifbosini;
- eski o'zbek yozuvining o'ziga xos xususiyatlarini mukammal egallashni;
- yil hisobi, hijriy yil turlari va oy nomlarini;
- arab va fors tillarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari, fonetikasi va yozuvini;
- arab tilida bo'g'inlar. «Hamza» belgisi;
- eski o'zbek tiliga arab va fors tillaridan o'zlashgan so'z va iboralarning asosiy grafik, semantik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari va ularning qiyosiy tahlilini;
- arab va fors tillarining sintaktik qurilishi va uning yozma manbalar tiliga ta'siri masalalarini bilish **ko'nikmasiga** ;
- eski o'zbek yozuvining asosiy xususiyatlarini egallash va uni amalda qo'llay olish;

- arab-fors, turkiy yozuv harflari asosidagi matnlarni yozish va o‘qish;
- eski o‘zbek tilidagi fors va arab tilidan o‘zlashgan so‘zlarning xususiyatlarini farqlay olish;
- matnlarni sharhlab o‘qish **malakasiga ega bo‘lishi kerak.**

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Eski o‘zbek yozuvi va sharq tillari” fani boshqa fanlar, xususan, “O‘zbek tili tarixi”, “O‘zbek adabiyoti tarixi” fanlarining o‘qitilishiga tayyorgarlik fan vazifasini bajaradi.

Fanning ta’limdagi o‘rni

«Eski o‘zbek yozuvi va sharq tillari» fani “O‘zbek tili va adabiyoti” bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida asosiy fan hisoblanadi hamda o‘zbek xalqining o‘tmishi merosi va ma’naviyatini asl nusxalarda tanishish imkoniyatini yaratadi.

Fanni o‘qitishda foydalaniladigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Eski o‘zbek yozuvini o‘rganishda illyustrativ metoddan va klaster metodidan unumli foydalaniladi. Kompyuter xotirasidagi alifbo bilan tanishtiriladi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha

ko‘rsatma va tavsiyalar

Mashg‘ulotlarda talabalar fan haqidagi bilim va ko‘nikmalarni matnlar o‘qish, u yoki bu tilda mashqlar bajarish, grammatik tahlillar qilish orqali mustahkamlab boradi. Mashg‘ulotlarning muayyan rejasi, adabiyotlar ro‘yxati talabalarga taqdim etiladi. Rejada ko‘rsatilgan mavzularni darslik yoki o‘quv qo‘llanma hamda ilmiy adabiyotlarga tayanib o‘rganish tavsiya etiladi.

Asosiy qism

I Bo‘lim. Eski o‘zbek tili va yozuvi

Mashg‘ulotlarning mazmuni

Alif harfi, munfasil harf ekanligi, uning o‘zbek tilidagi **a, o** unlilarini ifoda qilishi. Maddli alif haqida tushuncha. **Be, pe, se, te** harflari. Ularning muttasil harf ekanligi, bu harflar uchun bir shakl asos qilib olinishi, satr osti va satr usti nuqtalari bilan farqlanishi, ularning yozilishi. **Be, pe, se, te** harflarining alif harfi bilan qo‘shib yozilishini mashq qilish.

Yoy harfi, uning «**yo**» harfi deb ham nomlanishi, muttasil harf ekanligi. **Yoy** harfining so‘z boshida va o‘rtasida shaklan **be, pe, se, te** harflariga o‘xshash ekanligi va satr osti ikki nuqtasi bilan ulardan farqlanishi, qo‘l yozma asarlaridagi uning yozilishi xususiyatlari. So‘z boshda «y» undoshini bildirishi, so‘z o‘rtasida va oxirida «i» va «e (e)» unlilarini ifoda qilishi.

Yoyning alif hamda **be, pe, se, te** harflari bilan qo‘shib yozilishini mashq qilish.

Jim, chim, xe, hoyi hutti harflari, ularning muttasil harf ekanligi. **Jim** harfi o‘zbek tilida qorishiq portlovchi «j» (**dj**) undoshini, **chim** esa «**ch**» undoshini anglatishi, **hoyi hutti** arab tilidan kirgan so‘zlarda qo‘llanishi. **Jim, chim, xe, hoyi hutti** harflarining **yoy, alif** harflari bilan qo‘shib yozilishini mashq qilish, **alif, be, pe, se, te, yoy, jim, chim, xe, hoyi, hutti** harflari ishtirok etgan so‘zlarni yozish.

Dol, zol harflari, munfasil harf ekanligi, **zol** harfi arabcha soʻzlarda qoʻllanishi.

Be, yoy harflarining **dol, zol** harflariga qoʻshib yozilishini mashq qilish. **Dol, zol** harflari ishtirok etgan soʻzlarni yozish.

Re, ze, je harflari, ularning munfasil harf ekanligi, **je** harfining sirgʻaluvchi undoshni ifodalashi va artikulyatsion usuli jihatidan **jim** harfi ifodalagan tovushdan farq qilishi.

yoy harfini **re, ze, je** harflariga qoʻshib yozish. Yuqorida tanishib chiqilgan harflar ishtirok etgan soʻzlarning yozilishini mashq qilish.

Sin, shin harflari, ularning muttasil harf ekanligi, qoʻlyozma asarlardagi ularning yozilishi xususiyatlari. Yuqorida koʻrilgan harflar bilan **sin, shin** harflarining qoʻshilib yozilgan soʻzlarni mashq qilish.

Vov harfi, uning munfasil harf ekanligi. Soʻz boshida va boʻgʻin boshida «v» (lab-tish baʼzan lab-lab) undoshini ifoda qilishi. Soʻz oʻrtasida va oxirida «u, oʻ» unilarini hamda lab-lab «v» undoshini ifoda qilishi. **Vov** harfining boshqa harflarga qoʻshilish imkoniyatlarini yuqoridagi harflar ishtirokida mashq qilish.

Kof, gof harflari, ularning muttasil harf ekanligi. **Kof** harfi «k» undoshini ifoda etishi, arab alifbosiga **gof** forslar tomonidan kiritilganligi. Uzbek yozma yodgorliklarining aksariyatida **gof** harfining qoʻllanmasligi, **kof** harfi ayni oʻrinda **gof** harfining vazifasini bajarishi.

Kof, gof harflarining turli oʻrinlarda qoʻllanishini yozib mashq qilish hamda bu harflar ishtirok etgan (yuqorida koʻrilgan harflar bilan birgalikda) soʻzlarni yozish.

Lom harfi, uning muttasil harf ekanligi va «m» undoshini ifoda qilishi.

Mim harfi, uning muttasil harf ekanligi va «m» undoshini ifoda qilishi.

Nun harfi, uning muttasil harf ekanligi va «n» undoshini ifoda qilishi.

Lom, mim, nun harflarining yozilish xususiyatlarini mashq qilish va ular ishtirokida soʻzlar yozish.

Sod, zod harflari, ularning muttasil harf ekanligi, arab tilidan oʻzlashgan soʻzlardagina uchrashi, oʻzbek tilida «s» va «z» undoshlariga muvofiq kelishi.

Sod va zod harflarining yozilish xususiyatlarini mashq qilish va shu harflar ishtirok etgan soʻzlarni yozish.

Itqi, izgʻi harflari. Ularning **to, zo** harflari deb ham yuritilishi, muttasil harf ekanligi, arab tilidan oʻzlashgan soʻzlardagina uchrashi, oʻzbek tilidagi «t», «z» undoshlariga muvofiq kelishi.

Itqi, izgʻi harflarining yozilish xususiyatlarini mashq qilish va ular ishtirokida soʻzlar yozish.

Fe va qof harflari, ularning muttasil harf ekanligi, **fe** harfining «f» undoshini ifoda qilishi. «Devoni lugʻatit turk», «Xisrav va Shirin» kabi asarlarda **fe** harfining uch nuqta bilan qoʻllanishi va u lab-lab «v» tovushini ifoda qilishi, baʼzan **fe** harfining oʻzi ham lab-lab «v» undoshini ifodalaganligi.

Fe va qof harflarining yozilish xususiyatlarini mashq qilish va ular ishtirokida soʻzlar yozish. **Fe** undoshining lab-lab «v» tovushini ifodalagan oʻrinlariga ham yuqoridagi kabi asarlardan misollar keltirish.

Hoyi havvaz harfi, uning muttasil harf ekanligi. Bu harfning «h» «a» tovushlarini ifoda qilishi, qoʻlyozmalarda turli shakllarga ega boʻlishi. Hoyi havvaz harfining yozilishi xususiyatlarini mashq qilish, uning qoʻlyozmalarda uchraydigan oʻziga xos variantlarini oʻzlashtirish.

Ayn va gʻayn harflari, ularning mutassil harf ekanligi, **gʻayn** harfi «gʻ» undoshini ifoda etishi, **ayn** faqat arab tilidan kirgan soʻzlarda qoʻllanishi va eski oʻzbek tilida (xususan, Alisher Navoiy davri tilida) arab tilidagidek boʻgʻiz undoshini anglatganligi, uning kasralik, fathalik, dammalik va sukunlik boʻlishi, hozirgi oʻzbek tilida bu boʻgʻiz undoshi turli unli tovushlar bilan transliteratsiya qilinishi va oʻqilishi yoki umuman talaffuz qilinmasligi. **Ayn va gʻayn** harflarining yozilishi xususiyatlarini mashq qilish va ular ishtirokida soʻzlar yozish. **Ayn** harfining «u», «oʻ», «i», «e (e)», «a» unilari kabi oʻqiladigan oʻrinlariga alohida-alohida misollar yozish.

Harfiy birikmalar

Fanning nazariy-amaliy mashg'ulotlari mazmuni

Alif yo (y). So'z boshida qo'llanishi, uning «**e**», «**i**» unlisini ifoda qilishi, forscha, ba'zan turkiy so'zlarda «**yo**» harfining yozilmaslik an'analari yoki harakat bilan berilishi.

Alifu vov. So'z boshida qo'llanishi, uning «**u**», «**o**» unlisini ifoda qilishi. Arabcha, forscha ba'zan turkiy so'zlarda **vov** harfining yozilmaslik an'analari yoki harakat bilan berilishi.

Vovu alif. So'z o'rtasida, so'z oxirida **u** unlisining cho'ziq talaffuz qilinishini bildirishi, «**o**» unlisi kabi o'qilishi.

Nunu kof. So'z o'rtasida va oxirida qo'llanishi, hozirgi o'zbek tilidagidek «**ng**» tovushini ifoda qilishi.

Eski o'zbek matnlaridan yuqoridagi harfiy birikmalar ishlatilgan so'zlarni topib, lug'at tuzish.

Harfiy qo'shilmalar (ligaturalar). Eski o'zbek tili yodgorliklarida harflarni qo'shib yozish san'atining mavjudligi. Ulardan, ayniqsa, nasta'liq yozuvida keng foydalanilganligi.

Lomu alif, kofu alif, uning gofliq varianti, **kofu lom**, uning gofliq varianti, **kofu lomu alif** ligaturasi, **hoiy havvazu alif, lomu mimu alif, te-vu mimu alif**. Matnlardan yuqoridagi ligaturalar ishtirok etgan so'zlarni topib, uning yozilishini mashq qilish.

Harakatlar

Madd(a). Satr ustki belgisi ekanligi, alifning «**o**» yoki «**a**» o'qilishini bildiruvchi harakat ekanligi.

Fatha . Uning forscha **zabar** deb ham nomlanishi, satr usti harakat belgisi ekanligi, fatha qo'yilgan undoshdan so'nggi unli «**a**» o'qilishi.

Kasra. Uning forscha **zer** deb ham nomlanishi, satr osti harakat belgisi ekanligi, kasra qo'yilgan harfdan so'ng «**i**», «**e**» (**e**) o'qilishi.

Damma (zamma), uning forscha **resh**, turkiy **utur** deb ham yuritilishi, satr usti harakat belgisi ekanligi, bu belgi qo'yilgan harfdan so'ng **u**, **o** unlisining o'qilishini ta'minlashi yoki **vov** ustiga qo'yilgan damma uning **u** yoki **o** unlisi mavqeida kelganligini bildirishi.

Sukun. Satr usti belgisi ekanligi, undosh tovushni bildiruvchi harf ustiga qo'yilishi va ayni o'rinda uning yopiq bo'g'inni bildirishi hamda **yoy**, **vov** harflari ustiga qo'yilishi o'sha harflarning undosh o'qilishini ta'minlashi, ba'zan «Qur'on» matnlarida alif ustiga ham qo'yilishi va shu unlining kesib, qisqa o'qilishini bildirishi.

Tashdid. Satr usti belgisi ekanligi, uning cho'ziq (yoki ikkilangan) undosh tovushni ifoda qilishi. Kasrali tashdid, fathali tashdid, dammali tashdid haqida tushuncha.

Tanvin. Uning alif harfi ustiga va ostiga qo'yilishi, **fathali tanvin**, **kasrali tanvin va dammali tanvin** haqida tushuncha. Tanvinli so'zlarning o'zbek tilida ravish turkumiga o'tishi.

Hamza. Satr usti belgisi ekanligi, uning eski o'zbek tilidagi amal qilish o'rinlari, ya'ni unli va undosh tovushlarni ajratib o'qishni, ikki unli tovushning qo'shib ketmasligini ta'minlash, izofa, yoye ishorat, yoye vahdat belgisi sifatida xizmat qilishi.

Vasla. Uning arab tilidan o'zlashgan so'zlarda (birikmalarda) qo'llanishi va aniqlik shaklini bildiruvchi **al** old ko'makchisining mavjudligini ko'rsatishi.

Raqamlar

Raqamlar tarixi haqida qisqacha ma'lumot. Eski o'zbek yozuvida qo'llangan raqamlarning yozilishi xususiyatlari, murakkab sonlarni ifodalash usullari.

Imlo va tinish belgilar

Ayrim harflar imlosi. «**Harf**» terminining ham harfni, ham tovushni ifoda qilishi va hozirgi o'zbek tilida faqat uning grafik ifodanigina bildirishi, **lafz** termini so'zning tovush jihati ekanligi. Malfuz harakat, alifi g'ayri malfuz, alifi maqsura, alifi fatha, hoyi g'ayri malfuz, vovi damma, yoyi kasra, to-i marbuta.

Qo'shimcha (affikslar) imlosi. Turkiy (o'zbekcha) qo'shimchalarda unli tovushlarni bildiruvchi **alif, vov, yoy** harflarining doim yozilib kelganligi, bundan mustasno quyidagi o'rinlarda qayd qilinishi: **-ki** yuklama (ba'zan bog'lovchi)sida **hoyi havvaz**, jo'nalish kelishiginin **-ga, -qa** til orqa variantida alif bilan barobar hoyi havvazning ishlatilishi, uning (**hoyi havvazning**) qo'llanishi XIX asrning ikkinchi yarmida yanada kuchayishi.

Bo'g'in ko'chirish. Bo'g'in ko'chirish tushunchasi va qoidalarining keyingi davrda paydo bo'lganligi, xattotlik san'atida oldingi satrga sig'may qolgan so'zlarning ayrim bo'g'in va harflari ustalik bilan satr ustiga yozilishi.

Forsiy izofa imlosi. Forsiy izofaning tabiati haqida qisqacha ma'lumot, uning o'ziga xos tartibga ega bo'lishi, undosh bilan tugagan so'zlar zerlik bo'lishi, zer harakatining yozuvda aksariyat hollarda qo'llanmasligi, forsiy izofalarda **yoy** harfi va **hamza** belgisi uning ko'rsatkichi sifatida qo'llanishi.

Matndan forsiy izofalarni ajratib olish va yozish.

Arabiy izofa imlosi. Arabiy izofa tushunchasining nisbiyligi, aniqlik ko'rsatkichi (artikli)ning izofa ko'rsatkichi sifatida qo'llanishi, aniqlovchi-aniqlanmishning yozilishi va talaffuzidagi o'ziga xos tomonlari. Oy harflari va quyosh harflari, quyosh harflarining idg'om (assimilyatsiyaga) uchrashi. Matndan arabiy izofalarni ajratib olish va ularning talaffuzini mashq qilish.

Milodiy va hijriy yil hisoblari haqida ma'lumot berish. Milodiy yilni hijriyga, hijriy yilni milodiyga aylantirish usullarini tushuntirish.

Muchal va muchal oylari haqida axborot berish. Hamal, savr, javzo, saraton kabi burjlar to'g'risida talabalarda tasavvur uyg'otish.

Abjad hisobi va harflarning qaysi raqamlarni anglatishi haqida ma'lumotlar berish.

Abjad hisobi bilan bog'liq harfiy san'atlar: tarix, muammo, tuyuq, tajnis, topishmoq, chiston. Harfiy san'atda abjad hisobining o'rni va ahamiyati haqida ma'lumot berish.

Isloh qilingan eski o'zbek yozuvi va uning imlosi. Arab grafikasi asosidagi eski o'zbek yozuvining isloh qilinishi tarixi, uning «Chig'atoy gurungi» tashkiloti tomonidan amalga oshirilishi, yutuq va kachiliklari. Unli tovushlarni ifoda qiluvchi harflar, undosh tovushlarni ifoda qiluvchi harflar, arab so'zlaridagi undosh harflar taqdiri, harakatlar taqdiri, raqamlar islohi.

20-yillar matbuoti matnlarini o'qish va ko'chirib yozish.

Eski o'zbek yozuvida nashr qilinayotgan hozirgi o'zbek matbuoti tilining imlo xususiyatlari. Eski o'zbek yozuvida nashr qilinayotgan matbuotlar, ularda o'zbekcha (turkiy) so'zlar va qo'shimchalar imlosi, forschatojikcha va arabcha so'zlar imlosi, ular imlosida amal qilinayotgan tamoyillar (prinsiplar), matbuot tilining savodxonligi.

Eski o'zbek tilida tinish belgilari. Tinish belgilarining XIX asrning 2-yarmida o'zbek matnlarida qo'llana boshlashi, ungacha, ya'ni qadimgi turkiy va eski o'zbek tilida tinish belgilari emas, ajratish belgilarining qo'llanganligi. Eski o'zbek yozuvida qo'llanadigan tinish belgilari va ularning yozilishi.

«Turkiston viloyatining gazetisi» va 20-yillar matbuoti matnlaridagi tinish belgilarining qo'llanishini tahlil qilish.

Klassik ijodkorlar asarlaridan namunalar o'qish (asl nusxa, tosh bosma, faksimil, fotonusxa, nasta'liq xatida terilgan elektron matnlar).

II Bo'lim. Sharq tillari

Fors tili haqida tushuncha

Sharq tillari (Fors tili). Fanning maqsadi va vazifalari. Fors tilini pedagogika oliy ta'lim muassasalarining O'zbek tili va adabiyoti, Tarix o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlarida Sharq tillari (Fors tili) ni o'qitish va o'rganishining ahamiyati.

Sharq tillari (Fors tili) haqida qisqacha tarixiy ma'lumot. Uning qardosh Eroniy tillar bilan birga Hind-Yevropa tillari oilasiga mansubligi. Fors tilining O'rta Osiyo va Sharq xalqlari adabiyoti tarixidagi roli va o'rni. Yangi fors tilining *forsiy*, *forsi-ye dariy* va *dariy* tili deb yuritilishi, yangi fors tilining arab so'zlari va iboralari bilan boyishi. IX asrda Somoniylar davlati vujudga kelgach, fors tilining davlat tiliga aylanishi. Shu kunga qadar o'zbek adabiyoti, ayniqsa, she'riyatda forsiy so'zlarning qo'llanishi va bu tilda o'zbek adabiyoti hamda tarixiga oid juda boy yozma adabiy meros mavjudligi. O'zbek tili va adabiyoti tarixi va tarix fani hamda unga oid manbalarni o'rganish, ular ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borish uchun fors tilini o'rganish va uni bilishning ahamiyati.

O'zbek tili lug'at boyligida forsha so'zlar, soz birikmalari va so'z yasovchi elementlar, ularning o'zbek tili lug'at tarkibining boyib borishidagi ahamiyati.

Fonetika

Fonetika haqida umumiy tushuncha. O'zbek va fors tillaridagi tovushlar o'xshashligi. Tovush, harf va transkripsiya. Fors tili tushunchalari uchun qabul qilingan ilmiy transkripsiya. Fors tili tovushlarining o'zbek tilida transkripsiya orqali berilishi.

Fors tili tovushlarining klassifikatsiyasi.

Fors tilida unlilar tizimi, transkripsion va transliteratsion xususiyatlari, unlilar miqdori, akkustik-artikulyatsion xususiyatlari, fonetik va fonematik xossalari.

Diftonglar. Fors tilidan kirgan diftongli so'zlarning o'zbek tilidagi talaffuzi.

Undosh fonemalar. Ularning talaffuzi. Tovushlarning artikulyatsion-akkustik tavsifi. N(M) undoshining fors tilida devergentsiyaga uchrashi.

Bo'ginlarning cho'ziq va qisqa bo'g'inlarga bo'linishi. Klassik va poetik asarlarni o'qish va o'rganishda bo'g'inning roli.

Urg'u. Fors tilida urg'uning ahamiyati. Fors so'zlarida urg'uning so'z oxirida bo'lishi. Ba'zi bir, ikki bo'g'inli fors so'zlarida urg'uning birinchi bo'g'inga tushishi.

Grafika

Grafika haqida ma'lumot. O'zbek va fors tillarining yozuvdagi farqlari. Fors yozuvi uchun arab-fors alifbosining qabul qilinishi. Arab fonetik sistemasiga moslashgan arab alifbosining fors tovushi sistemasiga mos emasligi. Fors tili tovushlarini aks ettiruvchi to'rt harf arab alifbosi sistemasiga qo'shilib, arab-fors alifbosini tashkil etishi.

Arab-fors alifbosida har bir harfning so'zdagi o'rniga qarab turli shaklda kelishi. Ko'p harflar bir xil shaklga ega bo'lib, ularning ostiga yoki ustiga qo'yiladigan nuqtalar soniga qarab bir-biridan farqlanishi.

Arab-fors yozuvining sahifadagi bitiklar o'ngdan chapga qarab yozilishi va o'qilishi. Bosma asarlar va qo'lyozma asarlar haqida ma'lumot. Arab-fors yozuvida bosh harflarning bo'lmasligi.

Yozuvda qisqa unlilarning ifodalanishi. Harakatlar (diakritik belgilar) haqida qisqacha ma'lumot. Harakatlarning yozilishi va ishlatilish o'rinlari. Harakat orqali ifodalangan unlilar:

a) *Zabar*, yozilishi va talaffuzi,

b) *Zir*, yozilishi va talaffuzi,

v) *Pish*, yozilishi va talaffuzi.

Yozuvda cho‘ziq unilarning ifodalanishi. Cho‘ziq unilarni ifodalovchi harflar va ularning ishlatilish o‘rinlari. Cho‘ziq unilarning so‘z boshida yozilishi. «*Madd*» va uning ifodalanishi.

«*Hamza*» belgisi va uning yozilishi. «*Hamza*»ning fors tilida ishlatilish hollari.

«*Tashdid*» belgisi. Uning yozilishi, vazifasi va ishlatilishi.

«*Tanvin*» belgisi. Uning yozilishi va ishlatilishi. Fors va o‘zbek tillariga o‘zlashgan arabiy tanvinli so‘zlarning ishlatilish hollari va morfologik xususiyatlari.

«*Vasla*» belgisi. Uning yozilishi va ishlatilishi.

O‘zbek tiliga xos bo‘lmagan forsiy diftonglarning ifodalanishi.

Morfologiya

Ot

O‘zbek va fors tillaridagi otlar haqida qiyosiy ma’lumot. O‘zbek va fors tillaridagi otlarda son kategoriyasi va ularning o‘xshash hamda farqli tomonlari. Ularning imlo qoidalari.

Otlarda birlik va noaniqlikning ifodalanishi. «*yo-ye vahdat*» («birlik yo»si) va uning imlosi. O‘zbek klassik matnlarida “yo-ye vahdat” va “yo-ye nakare”lar va ularning tahlili.

O‘zbek va fors tillaridagi egalik kategoriyasi. Egalik qo‘shimchalari.

Egalikning kishilik olmoshlari orqali ifodalanishi.

O‘zbek tilida arabiy va forsiy ko‘plik shaklining qo‘llanilishi. O‘zbek tiliga o‘zlashgan siniq va to‘g‘ri ko‘pliklar.

O‘zbek tiliga o‘zlashgan fors tilida otlarning yasalishi va ot yasovchi qo‘shimchalar.

Eston, don, gar, kor, bon, chi, esh, zor, ak, sor, kash, kade, goh, gax, lox, e, gor, boz va *ok* affikslari. Morfologik va sintaktik yo‘l bilan ot yasash.

Sifat

O‘zbek va fors tillaridagi sifat haqida qiyosiy ma’lumot. Asliy va nisbiy sifatlar. Sifatlarning yasalishi. «*yo-yi nisbat*»lar, uning talaffuzi va imlosi. Sifatlarning yasalishi va mahsuldor sifat yasovchi qo‘shimchalar.

O‘zbek va fors tillaridagi sifat darajalari va ularning o‘xshash va farqli jihatlari. Oddiy daraja, qiyosiy daraja. Sifat darajalarining yasalishi. Ikki predmetni analitik yo‘l bilan qiyoslash.

Olmosh

O‘zbek va fors tillaridagi olmoshlar haqida qiyosiy ma’lumot. Olmoshlarning turlari: a) kishilik olmoshlari, b) o‘zlik olmoshlari «*xo‘d*» va «*xesh*», v) ko‘rsatish olmoshlari.

O‘zbek va fors tillaridagi ko‘rsatish olmoshlari. «*In*» va «*on*» hamda ularning ishlatilishi.

O‘zbek va fors tillaridagi belgilash olmoshari: «*Hame*» belgilash olmoshlarining izofali va izofasiz o‘qilishi.

O‘zbek va fors tillaridagi bo‘lishsizlik olmoshlari.

O‘zbek va fors tillaridagi gumon olmoshlari va ularning yasalishi.

O‘zbek va fors tillaridagi so‘roq olmoshlari va ularning ishlatilishi.

Son

O‘zbek va fors tillaridagi Son haqida qiyosiy ma’lumot. O‘zbek va fors tillaridagi miqdor va tartib sonlar va ularning yasalishi, yozilishi va talaffuzi. Raqamlar.

Tartib sonlarning prepozitiv va postpozitiv holatda kelishi.

Fe'l

O'zbek va fors tillaridagi fe'l haqida qiyosiy ma'lumot. Fe'llarning noaniq (infinitiv) shakli.

Fe'llarning o'zaklari: o'tgan zamon va hozirgi zamon o'zagi. O'tgan zamon fe'l o'zagining hosil qilinishi va ularning o'zbek tili bilan farqli tomonlari.

O'tgan zamon aniq fe'lining yasalishi va tuslanishi.

Sodda fe'llar. Prefiksli fe'llar. Qo'shma fe'llar. Ularning tuzilishi va tuslanishi. Ko'makchi fe'llar va ularning qo'shma fe'l tarkibida bajaradigan vazifalari. «*Yo-ye estemrori*» va uning ishlatilishi. O'zbek tiliga xos bo'lmagan prefiksli fe'llarning xususiyatlari.

O'zbek tiliga xos bo'lmagan fors tilidagi hozirgi zamon fe'l negizining hosil bo'lishi va tuslanishi. *Doshtan* fe'lining xususiyatlari va uning hozirgi zamon formalari. O'zbek tilida *doshtan* fe'lining qo'llanilishi.

O'zbek va fors tillaridagi buyruq fe'llarini qiyoslash va ular haqida ma'lumot. Buyruq fe'lining yasalishi. Buyruq fe'lining bo'lishsiz formasi.

O'zbek va fors tillaridagi shart-istak mayli va ularni qiyosiy tushuntirish. "Aorist" haqida ma'lumot. Aoristning yasalishi va tuslanishi. *Aoristning* fors tilida ishlatilish hollari.

O'zbek tilida modal fe'llarning mavjud emasligi. Fors tilidagi modal fe'llar va ularning xususiyatlari. *Xostan*, *tavonestan*, *boyestan* modal fe'llari va ular orqali ifodalanadigan ma'nolar. Modal so'zlar va ularning ishlatilishi.

O'zbek va fors tillaridagi uzoq o'tgan zamon fe'lining yasalishi va tuslanishi.

Fe'llarda aniq va majhul daraja va uning yasalishi. Qo'shma fe'llarda majhul darajaning yasalishi.

Ravish

O'zbek va fors tillaridagi ravish haqida umumiy ma'lumot va ularni qiyoslash.

Ravishning ma'no turlari. Ravishning yasalishi va mahsuldor ravish qo'shimchalari.

O'zbek va fors tillaridagi ravishdosh.

O'zbek va fors tillaridagi sifatdosh haqida ma'lumot. O'tgan zamon sifatdoshi. O'zbek tiliga o'zlashgan o'tgan zamon sifatdoshining otlashgan shakllari.

O'zbek tiliga o'zlashgan hozirgi zamon sifatdosh shakllari. Hozirgi zamon sifatdoshi va uning yasalishi hamda imlo qoidalari. O'zbek tiliga o'zlashgan *-ande* affiksi bilan yasalgan sifatdoshlar. O'zbek tiliga o'zlashgan *-o* affiksi bilan yasalgan sifatdoshlar. O'zbek tiliga o'zlashgan *-on* affiksi bilan yasalgan sifatdoshlar.

Ko'makchi

O'zbek va fors tillaridagi ko'makchilar haqida ma'lumot.

Fors tilidagi predlog (old qo'shimcha) va ko'makchilarni o'zbek tili bilan qiyoslash.

Ularning gapdagi sintaktik funksiyalari.

Bog'lovchi

O'zbek va fors tillaridagi bog'lovchi haqida umumiy ma'lumot. Bog'lovchilarning vazifalari, ularning qo'llanish o'rinlari va sintaktik vazifalariga ko'ra turlari:

a) biriktiruvchi bog'lovchilar,

b) zidlovchi bog'lovchilar,

v) ayiruvchi bog'lovchilar

Yuklama

O'zbek va fors tillaridagi yuklama haqida umumiy ma'lumot. Yuklamaning turlari:

a) ta'kid yuklamalari

b) so'roq yuklamalari

v) inkor yuklamalari

Sintaksis. Izofa

O'zbek tiliga o'zlashgan forsiy izofalar. Izofa haqida ma'lumot. Izofaning qo'llanish hollari. Izofali birikmada so'z tartibi. Izofaning yozuvda ifodalanishi. Izofa zanjiri va undagi so'z tartibi.

O'zbek tilida forsiy izofaning ishlatilishi.

Gapning mazmuniga ko'ra turlari:

a) darak gap; b) so'roq gap; v) undov gap.

Gapda so'zlarning bog'lanishi va tartibi. Moslashuv, boshqaruv va bitishuv.

O'zbek va fors tillaridagi gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot.

Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari. O'zbek va fors tillaridagi ot kesim va fe'l kesim. Ega bilan kesimning shaxs va sonda moslashuvi.

To'ldiruvchi va uning ifodalanishi. Vositali va vositasiz to'ldiruvchi. Vositasiz to'ldiruvchining belgili va belgisiz qo'llanilishi.

Aniqlovchi va uning ifodalanishi. Fors tilidagi ergash gaplar va uning o'zbek tilidagi ergash gaplardan farqi. O'zbek tiliga o'zlashgan forsiy qolipdagi gaplar.

Qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot. Bog'langan qo'shma gap.

1) bog'langan qo'shma gap haqida ma'lumot.

2) bog'langan qo'shma gapda bog'lovchilar.

a) biriktiruvchi bog'lovchilar.

b) ayiruvchi bog'lovchilar.

Ergashgan qo'shma gap.

1) ergashgan qo'shma gapning tuzilishi.

2) bosh gap va ergash gap. Ergash gapning bosh gapga bog'lanish turlari. Ergash gapning turlari. O'zbek va fors tillaridagi gaplarda so'z tartibi va ularning o'xshash hamda farqli tomonlari.

1) to'ldiruvchi ergash- gap;

2) maqsad ergash gap;

Arab tili haqida tushuncha

Mashg'ulotlarda talabalar arab tili haqidagi bilim va ko'nikmalarni eski o'zbek tilidagi matnlarni o'qish, ularda mavjud bo'lgan arabiy so'zlarni arab tili grammatikasi nuqtai nazaridan tahlil qilib, ularning sintaktik va semantik xususiyatlarini o'rganib boradi. Mashg'ulotlarning rejasi, adabiyotlar ro'yxati talabalarga taqdim etiladi. Rejada ko'rsatilgan mavzularni darslik yoki o'quv qo'llanma hamda ilmiy adabiyotlarga tayanib o'rganish tavsiya

etiladi.

Fonetika va yozuv

Tavsiya etiladigan mashg'ulot mavzulari va ularning mazmuni: arab tilida tovushlar tizimi, ularning yozuvdagi ifodasi, undosh fonemalar, emfatik va bo'g'iz tovushlarning o'ziga xos talaffuz qoidalari, undoshlarning ikkilanishi, o'zbek va arab tillari fonetikasidagi farqli jihatlar.

Arab tilida unlilar

Qisqa va cho'ziq unli fonemalar, qisqa unlilarning yozuvda ifodalanishi, unli fonemalarning fonetik tavsifi, lablangan unlilar, qisqa va cho'ziq unlilarning transkripsiyada ifodalanishi, arab tilidagi (av), (ay) diftonglari, ularning yozuvda berilishi, arab tili unlilarining o'zbek tilida mavjud unlilardan tubdan farq qilishi.

Morfologiya. Arab tilida so'z, so'z o'zagi

Arab tilida so'z tuzilishi, uch va to'rt undoshli so'zlar, so'z o'zagidan morfologik vositalar yordamida so'z yasash, affiksalar, profiksalar, suffiksalar, ichki fleksiya haqida.

So'z turkumlari

Arab tilidagi uch asosiy morfologik guruh – ism, fe'l va harf haqida ma'lumot, ismga ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh va masdarlarning kirishi, fe'l guruhiga fe'l zamonlari, nisbatlari, masdarlari va sifatdosh shakllarining kirishi, harf so'z turkumiga kiruvchi yordamchi so'zlar, ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklama va undalmalar haqida.

Ot. Jins kategoriyasi

O'zbek adabiy tili leksik qatlamidagi arabiy o'zlashmalar – otlar haqida ma'lumot berish, arab tilidagi otlarning o'zbek adabiy tilidan farqli o'laroq jins kategoriyasiga ega ekanligi, muzakkar va muannas jinslarning mavjudligi, o'zbek tiliga o'zlashgan muannas jinsdagi otlarning grammatik belgisi bo'lgan tamarbutaning o'zbek tilida tushib qolishi va bu kabi o'zlashmalarning keng qo'llanilishi.

Kelishiklar

Arab tilida uchta kelishikning mavjudligi, ularning o'zbek tilidan miqdor va shakl jihatidan farqlanishi, kelishik qo'shimchalarining maxsus belgilar bilan ifodalanishi, Bosh kelishik, uning semantik va sintaktik xususiyatlari, Qaratqich kelishigi, uning izofa tarkibida va ko'makchidan so'ng qo'llanishi, arab tilidan o'zlashgan Tushum kelishigida kelgan so'zlarning o'zbek tilida ravish so'z turkumi sifatida qo'llanilishi.

Holat kategoriyasi

Arab tilida aniqlik va noaniqlik holatlari, holat kategoriyasining o'zbek tilida mavjud emasligi, “-al” aniqlik artikli, o'zbek tilida «al» bilan kelgan arabiy o'zlashmalarning qo'llanishi, eski o'zbek tilidagi manbalarda “al” aniqlik artikli bilan kelgan so'zlarning grammatik xususiyatlari.

Olmoshlar

Arab tilida olmoshlar, ularning vazifalari va turlari, kishilik, ko'rsatish, birikma, so'roq, nisbiy va ajratuvchi olmoshlar, kishilik olmoshlarining shaxslar o'rniga qo'llanilishi, ularning ikki jins va uch shaxsga bo'linishi, son kategoriyasiga egaligi, o'zbek tilida kishilik olmoshlarining jins kategoriyasiga ega emasligi, ko'rsatish olmoshlarining ma'nosi, gapdagi vazifasi, birikma olmoshlarining o'zbek adabiy tilida egalik qo'shimchalari vazifasini bajarishi, bu turdagi olmoshlarning otlarga birikib kelishi.

Son kategoriyasi

Birlik, ikkilik, ko'plik, ikkilik kategoriyasining faqat arab tilida mavjudligi, ikkilikdagi otlarning kelishiklarda turlanishi, otlarda ko'plik, ularning yasalishi, to'g'ri ko'plikning muzakkar va muannas shakllarini hosil qilish, ularning kelishiklarda turlanishi, siniq ko'plikning ichki fleksiya orqali yasalishi, arab tilida eng ko'p qo'llaniladigan siniq ko'plik shakllari, ikkilik va ko'plikdagi otlardagi predikativlik munosabatlari, o'zbek adabiy tiliga o'zlashgan siniq ko'plikdagi arabiy so'zlarning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishi, bu kabi so'zlarning mumtoz manbalarda va hozirgi

zamon o'zbek adabiy tilida keng qo'llanilishi.

Sifatlar

Ara tilida sifat turlari – asliy va nisbiy sifat, ularni yasash usullari va ma'nolari, sifat darajalari, sifatning muzakkar, muannas shakllari, sifatning ot va otlashgan ismlar bilan to'liq moslashuvi, arab tilidagi nisbiy sifat va sifatning orttirma darajasining o'zbek adabiy tili va manbalarida keng qo'llanilishi.

Sonlar

Sanoq va tartib sonlar. Sodda sanoq va tartib sonlar (1-10 gacha) imlosi. Sonlarning ot bilan moslashuvi. Eski o'zbek tilidagi manbalarda berilgan sanalarni o'rganishda sonlar mavzusining o'rni.

Fe'l. Fe'l zamonlari

Fe'llarning o'zak undoshlari soniga va tarkibiga qarab turlarga bo'linishi: uch o'zakli va to'rt o'zakli fe'llar (o'zak soniga qarab); to'g'ri va noto'g'ri fe'llar (o'zak tarkibiga qarab). Fe'l vaznlari. Qomuslar bilan ishlash. Fe'l zamonlari; o'tgan, hozirgi-kelasi, kelasi zamon fe'llari, ularning o'zbek tili grammatikasidan farqli va o'xshash tomonlari.

Fe'l boblari

Arab tilida fe'l boblari tushunchasi. Hosila boblarning yasalishi. 1-10 bo'lgan fe'l boblarining hosil qilinishi, vazifalari, ma'nolari.

Fe'llardan yasalgan ismlar. Masdar

Fe'llardan ismlarning yasalishi. Harakat nomi - masdar, uning shakllari, ma'nolari, arab tilidagi harakat nomi – masdarlarning o'zbek adabiy tilida va manbalarda keng qo'llanilishi, ularning o'z va ko'chma ma'nolarda ishlatilishi.

Sifatdosh

Arab tilida sifatdoshning turlari – aniq va majhul darajalari. Sifatdosh turlarining eski o'zbek tilidagi manbalarda va hozirgi o'zbek adabiy tilida keng qo'llanilishi.

Yordamchi so'zlar. Ko'makchilar

Yordamchi so'zlar haqida umumiy ma'lumot. Ko'makchi turlari - alohida va birikib yoziluvchi ko'makchilar, ularning vazifalari. Arab tilidagi old ko'makchilarning o'zbek tilida kelishiklar vazifasini bajarib kelishi.

Sintaksis. Gap turlari

Arab tili sintaksisi haqida umumiy ma'lumot. Arab tilining sintaksis qurilishi, uni o'zbek tili bilan qiyoslash. Sodda yig'iq ot kesimli gaplar. Ularda ega-kesim munosabati. Sodda yoyiq ot kesimli gaplar. Arab va o'zbek tillaridagi ot kesimli gaplarda ega va kesimning tartibi. Fe'l kesimli gaplar. Fe'l kesimli gaplarda kesimning o'rni va ega-kesimning moslashuvi. Ifoda maqsadiga ko'ra, gaplarning darak va so'roq gaplarga bo'linishi.

Gapning ikkinchi darajalari bo'laklari. So'z birikmasi

Arab tilida aniqlovchi, uning vazifasi va turlari. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar. Moslashgan aniqlovchili birikmaning o'zbek tilida sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajarishi. Izofa haqida tushuncha. Izofa brikmasining o'zbek tilidagi qaratqich aniqlovchi vazifasida kelishi. Eski o'zbek tilidagi qo'lyozma manbalar matnida izofa birikmasining keng qo'llanilishi.

To'ldiruvchi

To'ldiruvchi, uning turlari va vazifalari. Vositali va vositasiz to'ldiruvchilar, ularning ifodalanishi.

Hol

Hol, uning vazifalari va ma'no turlari (o'rin, payt, ravish va h.k), tarkibi.

Gapning uyushiq bo'laklari. Bog'lovchilar

Gapning uyushiq bo'laklari, ularning bog'lovchilar yordamida bog'lanishi. Bog'lovchilarning o'zbek adabiy tiliga o'zlashlashganligi va ularning keng qo'llanilishini eski o'zbek tilidagi matnlar orqali o'rganish.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Talabani mustaqil ishi o'quv rejasida Arab tili fanini o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi bo'lib, u metodik va axborot resurslari bilan ta'minlanadi hamda bajarilishi reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda har bir talabani akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- Internet ma'lumotlaridan foydalanish va b.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba uchun fan bo'yicha mustaqil ish topshiriqlari tegishli kafedra professori tomonidan o'quv mashg'ulotini bevosita olib boruvchi o'qituvchi bilan birgalikda tuziladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning

shakli va mazmuni

Fan bo'yicha mustaqil ishlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Talaba eski o'zbek yozuvi namunalarini yaxshi o'qishi va yoza olishi uchun eski o'zbek tili yodgorliklari bo'yicha referat tayyorlaydi. Unda:

